

O'ZBEK TILI

*Ta'lism rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy
o'rta ta'lism maktablarining 4-sinf o'qituvchilari uchun
metodik qo'llanma*

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tasdiqlangan

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent – 2017

UO'T: 372.881.512.133(072)

KBT 74.268.1

O'16

Tuzuvchi-mualliflar:

**Fotima Tolipova, Hilola Bakiyeva, Zarifa Jumanova,
Ma'pura Akramova, Dildora Nuriddinova**

Taqrizchilar:

- O'. Lafasov** – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;
- L. Xodjayeva** – Toshkent shahar Shayxontohur tumani 180-sonli umumiy o'rta ta'lim mактабining o'zbek tili fani o'qituvchisi;
- Z. Polvonova** – Toshkent shahar Chilonzor tumani 90-sonli umumiy o'rta ta'lim mактабining o'zbek tili fani o'qituvchisi.

O'16 O'zbek tili 4: 4-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / F. Tolipova [va boshq.]. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 128 b.

UO'T: 372.881.512.133(072)

KBT 74.268.1

Mazkur metodik qo'llanma ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinflarida o'zbek tili fanini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari hamda pedagogik texnologiyalarning ilg'or usullaridan foydalanib o'qitish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirishga qaratilgan. Qo'llanmada o'rganilayotgan mavzularni mustahkamlashga yo'naltirilgan dars ishlalmalar, didaktik materiallar, test topshiriqlari, dam olish daqiqlarini uchun qo'shimcha materiallar kiritildi.

Ushbu qo'llanma Respublika ta'lim markazi huzuridagi filologiya (ona tili, adabiyot, o'zbek tili) fanlari bo'yicha Ilmiy-metodik kengashining 2017-yil 10-iyul yig'ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etildi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-07-543-6

© F. Tolipova va b., 2017

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

SO‘ZBOSHI

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da: «Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlari va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, es-kirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish – respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Shunga ko‘ra, bugungi kunda ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga katta e’tibor qaratilmoqda. Birgina O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagи PQ-2133-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Sog‘lom bola yili» Davlat dasturining mazmun-mohiyati ham bolalarni jismonan va ruhan maktab ta’limiga tayyorlash, ularning so‘z boyligi, og‘zaki nutqini shakllantirish borasida metodik qo‘llanmalar yaratish, pedagogik ishlarni o‘rganish va tahlil qilish, nihoyat, pedagogik faoliyatni takomillashtirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish, ushbu jarayonni maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab, ta’limning keyingi bo‘g‘inlarida uzviylik va uzluk-sizlikda bosqichma-bosqich amalga oshirish masalalariga qaratilgan.

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qitish sifatini yaxshilash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi hamda psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatiga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar va darsliklarning multimedia ilovalarini yaratish maqsadida, umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 1–2-sinf o‘qituvchilari uchun 7 nomda metodik qo‘llanmalar va multimedia ilovalari yaratildi. Ushbu jarayonning mantiqiy davomi sifatida «Sog‘lom ona va bola yili» Davlat dasturi doirasida ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinflari uchun «O‘zbek tili» o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma (multimedia ilovasi bilan)da o‘zbek tiliga o‘rgatishning maqsadi, mazmu ni va o‘ziga xos jihatlari bilan bir qatorda darslik materiallarining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishida amaliy yordam beradigan,

dars jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni hamda o‘yin usullarini qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

O‘zbek tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan kompetensiyaviy yondashuvga yo‘naltirilgan davlat ta’lim standartida O‘zbek tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari, o‘quvchilarning egallashi kerak bo‘lgan minimal talablari kompetensiyaviy yondashuvga yo‘naltirilgan holda belgilab berildi.

O‘zbek tilini o‘qitishning maqsadi: o‘quvchilarning o‘qish va mehnat jarayonida, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini bayon eta olishi, axborotni idrok etishi, voqe-a-hodisalarga o‘z munosabatini bildirishi; o‘zbek adabiyotining eng sara namunalari, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayoti, jahon madaniyatiga va milliy madaniyatga hissa qo‘shtigan buyuk allomalar ijodiy merosini o‘rganish orqali milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish malakasini rivojlantirishdan iborat.

O‘zbek tilini o‘qitishning asosiy vazifalari: o‘quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish; o‘quvchilarning o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish; o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch kompetensiyalar

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchan-

lik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalaridan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitvlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, o'zbek tili fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid kommunikativ va lингistik kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Ta'lif boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarining rus guruhlarida o'zbek tili kommunikativ-nutqiy tamoyilda ikkinchi til sifatida o'qitaladi. Shuning uchun ta'lif mazmunida

asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyaga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar o'zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, tabiat va jamiyat, ijtimoiy-madaniy hayot hamda mutaxassislik sohalarida og'zaki va yozma erkin mu-loqot yuritish ko'nikma va malakalari, hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutiladi. O'quv das-turida fan yuzasidan belgilangan ta'limgaz mazmuni o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari hamda ta'limgaz turi talablaridan kelib chiqib belgilangan va uzlusizlik, uzviylik tamoyillariga to'liq javob beradi.

Boshlang'ich ta'limgaz e'tibor, asosan, o'quvchilarning lug'at boyligi bilan ishslash, o'zbek tilini amaliy egallah ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratdir. Shuningdek, o'quvchilarda shakllantiri-ladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarning elementlari dars-ning maqsadida har bir nutqiy mavzuning mazmunidan kelib chiqib namuna sifatida taqdim etildi.

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Bugungi kunda ta'limgaz muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sabablari quyidagilardir. Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limgazni amalga oshirish imkoniyatining kengligi. «Ta'limgaz to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da rivojlantiruvchi ta'limgazni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan; ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi; uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'limgaz-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon ke-chishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishi-ga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanishi shaxsiy xarakterdan kelib

chiqqan holda, o‘quvchini kim o‘qitayotganligi va o‘qituvchi kimni o‘qitayotganiga bog‘liq. O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatalidigan texnologiya tanlanadi. Masalan: natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishslash lozimdir, balki film yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar kerak bo‘lar. Bularning hammasi o‘qituvchi va o‘quvchilarga bog‘liq. O‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari – interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilmilar, o‘quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovatsiya – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalananiladi. Interfaol – o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Shu jihatdan o‘zbek tilini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularning o‘zbekcha nutqini shakllantirish, nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. O‘quvchilarning izlanishi, mustaqil ravishda qo‘srimcha manbalarga murojaat qilishi, ma’lumotlar bankidan o‘ziga kerakli materiallarni saralab olishga o‘rgatish orqali egallayotgan bilimla-

rining amaliyotda qo'llay olish layoqati shakllanadi. Bunda, albatta, o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklanadi, chunki ular Davlat ta'lif standarti, o'quv dasturi va darslikda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fanning o'ziga xos jihatlari, o'quvchilarning yosh, psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, tayanch va fanga oid kompetensiyalarning elementlarini shakllantirib borish va ularning qiziqishidan kelib chiqib, ta'lif metodlari va dars shakllarini tanlaydi. Dars jarayonida bir nechta metodlardan o'rinli foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, o'quvchini faollashtiradi. Ta'lif shakli, metodlari sinfdan sinfga o'tgan sari oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borilishi, quyi (2–4) sinflarda ko'proq rasmlar, narsa-buyumlardan foydalanish, slaydlar, audio va videolavhalardan foydalanish, darslarda ta'limiyl o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga o'qituvchi quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishi lozim:

- o'quvchilar bilan muloqot qilish jarayonida muomala va kiyinish madaniyatiga ega bo'lishi;
- mavzuning o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilayotganligiga alohida e'tibor berishi hamda ularni turli usullar yordamida o'qishga qiziqtirishi;
- dars jarayonida turli metod, usullardan o'rinli va unumli foydalanishi;
- dars mavzusining mohiyatini chuqur tushunishi, o'z fikrlarini qisqa va aniq ifodalashi kabilar.

Til o'rganish jarayoni, avvalo, jonli muloqotni taqozo etadi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini yangi pedagogik texnologiyalar va an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirgan holda tatbiq etish yuqori samara berib kelmoqda. Ayniqsa, nutq o'stirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli mavzularni yoritisha kompyuter kuchli o'quv vositasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi — o'quvchining og'zaki nutqini o'stirish uchun shart-sharoit yaratish, o'quvchilarga zarur yordamni tez hamda qulay usul bilan yetkazishdan iborat. Buning uchun dars jarayonida mavzu mazmunidan kelib chiqib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur bo'ladi. Shundagina o'quvchining shaxsiy layoqati, bilim saviyasiga mos ravishda mashq va topshiriqlar berish orqali o'zbek tilini o'rganish jarayonini yuksak saviyada tashkil etish mumkin. Rus va qardosh tillarga mansub o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatishda

o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyaning ilg‘or usullarini qo‘llash hamda axborot texnologiyalaridan o‘rinli foydalanish darslarni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishda og‘zaki bayon qilish, ko‘rgazmalilik, ta’limiy o‘yinlar va noan’anaviy ta’lim metodlari keng qo‘llaniladi.

Suhbat metodi og‘zaki bayon qilish metodi bo‘lib, o‘quvchilarda faollikni yuzaga keltiradi, o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga javob topish jarayonida o‘quvchi fikr yuritadi, o‘z fikrini bildirib, uni dalillashga harakat qiladi. Bu o‘quvchida mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bahs – biror muammoni guruh bo‘lib yechimini izlash usulidir. Bunda har bir o‘quvchi suhbatdoshining fikrini asoslashi yoki uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashga harakat qiladi.

Ko‘rsatmalilik metodi turli ko‘rgazmali vositalar yordamida amalga oshiriladi. Yangi so‘zlarni ongli va puxta o‘zlashtirish ko‘rgazmalilikni taqozo etadi. Bunda turli buyumlar, jadvallar, rasmlar va boshqa tasviriy vositalardan, diafilm, kinofilm va televhalardan, multimedia vositalaridan foydalanish mumkin.

Ta’limiy didaktik o‘yinlardan ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniadi. O‘yin, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faoliyatida muhim o‘rinni egallaydi. O‘yin o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtirishga, o‘quvchilarini darsga to‘liq jalb etishga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarining o‘zbekcha nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyi ta’lim bosqichlarida krossvordlar, rebuslar, topishmoqlar, tez aytishlardan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiq.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarini dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtarda tabiat hodisalarini, narsa-buyumlarni kuzatish va tahlil qilishga o‘rgatish, ularni atrof-muhit, ya’ni o‘simgiliklar, hayvonot dunyosi, tabiatga oid tushunchalar, narsa-buyumlarning nomlari, belgi va miqdorni bildiruvchi so‘zlar bilan tanishtirish orqali ularning lug‘at boyligini oshirib borish, ayni paytda o‘rgangan so‘zlarini ular xotirasiga singdirib borishga qaratilgan mashqlarni qo‘llash til darslarining asosiy ta’limiy maqsadlari hisoblanadi. Buning uchun pedagogik texnologiyalarning ushbu maqsadlarga muvofiq keladiganlarini tanlash, ushbu metodlarni guruh, sinf imkoniyatlarini

e'tiborga olgan holda eng sodda vositalardan murakkab vositalarga qarab o'stirib borish kerak bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutgan holda ko'proq ko'rgazmali vositalardan, ta'limiy didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi.

Ta'limiy didaktik o'yinlar, ayniqsa, kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi, ular dunyoni va o'zlikni anglashda, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi, ular o'quvchilarning o'zaro va o'qituvchilar bilan hamkorligini mustahkamlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq ulardan o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin. Ta'limiy o'yinlarni qo'lllashda me'yorni bilish kerak, ularni haddan ziyod ko'paytirib yuborish o'quvchini dars maqsadidan chetlashtirib qo'yishi mumkin.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'zbek tili darslarini o'tishda quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

«So'z top» o'yini. Ushbu metodni 2–3-sinflarda darsning kirish qismida avvalgi darsni mustahkamlash maqsadida yoki lug'at us-tida ishslash maqsadida o'tkazish mumkin. O'qituvchi bironta so'z aytadi, o'quvchilar esa davom ettiradilar. O'yin qoidasiga ko'ra o'qituvchi boshlagan so'z qaysi harfda tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Masalan: kitob-bog'cha-ayiq-qush. Bunday ish turini biror mavzuga oid so'zlar bo'yicha ham o'tkazish mumkin. O'quvchilar navbatma-navbat bir soha yoki bir mavzu guruhiга oid so'zlarni topishlari lozim. Masalan: uy jihozlariga oid so'zlarni aytish topshirig'i berilsa, 1-o'quvchi: xontaxta, 2-o'quvchi: ko'rpacha, 3-o'quvchi: gilam, 4-o'quvchi: guldon va hokazo tarzida davom ettirib ketishi mumkin. Ushbu o'yinni o'simliklar, gullar, o'quv qurollari nomlari bo'yicha tashkil etish ham mumkin. Bunda ham tezda so'z topa olmagan o'quvchi o'yinni tark etadi, o'yin davomida oxirigacha qolgan ishtirokchilar g'olib hisoblanadi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2–3-sinflarida «O'zbek tili» darslarida aynan shunday mavzular o'tiladi, shu bois bu ta'limiy o'yin o'tilgan mavzular va o'rganilgan so'zlarni o'quvchilar xotirasida mustahkamlashga juda katta yordam beradi. O'zbek tilini mukammal o'rganish uchun lug'at bilan ishslashga

urg‘u berish talab etiladi. Matn uchun berilgan lug‘atlarni shunchaki o‘qish emas, lug‘atlarni o‘qish va eslab qolish, eslab qolining lug‘atlarni takrorlash va yoddan zanjir usulida so‘rash yoki, aksincha, lug‘atlarni o‘qish va eslab qolish, eslab qolganlarini yozish, berilgan lug‘atlardan foydalanib so‘z birikmalari tuzish kabi topshiriqlarni dars jarayonida muntazam qo‘llab borish o‘quvchilarning so‘z boyligini boyishiga xizmat qiladi. Ko‘p marta takrorlash orqali o‘rganilgan nutq materiallari oson o‘zlashtiriladi. O‘quvchilarning grammatik materiallarni puxta va aniq tushunib olishlarida turli didaktik o‘yinlar, ko‘rsatmali vositalardan o‘rinli foydalanish bunda darsning o‘tilgan mavzuni mustahkamlash bosqichida darslikda berilmagan qisqa grammatik topshiriqlarini, viktorinalar, «Xotira mashqi», «Xatosini toping» usullarini qo‘llash o‘rganilgan leksik materiallarni mustahkamlash va yaxshi eslab qolishga yordam beradi. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘rganishda darslikda berilgan diaoglarga tayanib qolmasdan, turli mavzularda o‘quvchilar bir-birlari bilan diaolog yaratishlariga, sughbattoshining o‘zbek tilidagi nutqini eshitma olishlariga, nutqning asosiy mazmunini tushunish va tushunganini o‘z ona tilida so‘zlab bera olishga o‘rgatib borish kerak.

«**O‘ylab top**» o‘yinini 3–4 va undan yuqori sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq, chunki bu o‘yin samarali natija berishi uchun o‘quvchilar ko‘p so‘z bilishlari lozim. Mazzkur o‘yinda ma’lum bir kasbga oid so‘zlar olinib, boshlovchi biron kasb egasiga taqlid qilib harakat qiladi, o‘yin ishtirokchilari bu harakat qaysi kasbga oid so‘zni ifodalashini topishlari kerak. Bekitilgan so‘z kartochkaga yozilgan bo‘lib, so‘zni to‘g‘ri topgan o‘quvchiga ko‘rsatiladi. O‘yinda javobni to‘g‘ri topgan o‘quvchilar g‘olib bo‘ladi.

«**Kim ko‘p so‘z biladi**» o‘yini ham o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirishga katta yordam beradi. Buning uchun sinf 2 guruuhga bo‘linadi va har bir guruuh uchun alohida topshiriq beriladi. 1-guruuh o‘quvchilariga ikki tomoni bir xil unli bilan yoziladigan, 2-guruuhga esa ikki tomoniga bir xil undosh yoziladigan so‘zlarni doskaga yozish topshiriladi. Masalan: 1-guruuh ikki, alla; 2-guruuh qiziq, katak kabi. Har bir guruuh o‘quvchilari birma-bir chiqib so‘zlarni yozadilar. So‘z topolmay to‘xtagan guruuh yutqazgan hisoblanadi.

«**So‘nggi axborot**» o‘yinini 3-sinfdan boshlab, har darsning boshlanish bosqichida o‘tkazib turish yaxshi natija beradi. O‘quvchilar

hafta davomida o‘zлari eshitgan, ko‘рган yangiliklari xususida so‘zlab beradilar. Bu ish turi o‘quvchilar bog‘lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga, so‘z so‘rash, so‘zga chiqish, bir-birining fikrini davom ettirish, o‘zini xuddi suxandonlar, jurnalistlar kabi tutish odobini o‘rganishga yordam beradi. Bu o‘yin o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishga, yangiliklarni o‘zbek tilida eshitish, ularni biringchi bo‘lib so‘zlab berishga intilish, chiroyli va bexato gapirishni o‘rgatishga sabab bo‘ladi.

«Rasmlarni to‘g‘ri joylashtirish» usuli. Ma’lumki, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan «O‘zbek tili» darsliklarida adabiy o‘qish uchun turli she’rlar, hikoyalar, ertaklar ham berib boriladi. Ushbu ertak va hikoyalar o‘qib bo‘lingach, ularni takrorlash uchun ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. Buning uchun shu ertaklar asosidagi rasmlarni har xil qilib doskaga terib qo‘yiladi. O‘quvchilar rasmlarni mavzuni mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiladigan shaklda qayta terib chiqadilar va ertak mavzusini qisqacha so‘zlab beradilar.

«Poyezd» metodi. Poyezd vagonlari ko‘rinishidagi alohida qog‘ozlarga bitta gapning har bir so‘zi alohida-alohida yoziladi va aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilar vagonlarni shunday terishi kerakki, natijada to‘g‘ri gap hosil bo‘lsin. Masalan: ikkinchi, bizning, qavatda, joylashgan, sinfimiz. To‘g‘ri javob: Bizning sinfimiz ikkinchi qavatda joylashgan.

«Eslab qol» o‘yini. O‘quvchilarga kasseta orqali kichik bir matn o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar tayanch so‘zлarni yozib boradilar, so‘ngra ushbu so‘zlar yordamida tinglangan matnni tiklaydilar. Kimning matni to‘liq va to‘g‘ri tuzilsa, o‘sha yuqori bahoga sazovor bo‘ladi. Bu o‘yin o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Unlilar» o‘yini. Bu nomni istalgan mavzu asosida o‘zgartirish mumkin. Katta ekran orqali tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ixtiyoriy matn namoyish qilinib, undan matndagi unlilar miqdorini imkon qadar tezroq va to‘liqroq aniqlash topshiriladi. Chunki bu mavzu nisbatan sodda hisoblanadi.

«O‘zing top» o‘yini. Proyektor orqali o‘tilgan mavzular asosida ixtiyoriy ertakdan biron tasvir ko‘rsatilishi aytildi. O‘quvchilar (3 nafar) taklif qilinadi. O‘quvchilar tasvirga teskari qaragan holda turadilar. Qolgan o‘quvchilar ertak bilan bog‘liq bittadan ma’lumot aytadilar. O‘quvchilar bilim darajasiga ko‘ra avval yoki keyin ertakning nomini aytishlari mumkin.

«Kim nima qiladi?» o‘yini. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi, doska yoniga har bir guruhdan bittadan o‘quvchi taklif etiladi. Doskaga birinchi guruh ishtirokchisi kim so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi nima qiladi so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozadi. Natijada yig‘iq gaplar vujudga kelishi kerak.

Qolgan ishtirokchilar esa gaplarni daftarlariiga ko‘chirib yoza-dilar. Bunda o‘quvchilarning yozma savodxonligiga ham hisobga olinadi. Qaysi guruh a‘zosi topshiriqni bexato bajarsa, shu guruhga «rag‘bat kartochkasi» topshiriladi.

«Zanjir» o‘yini. O‘qituvchi birinchi bo‘lib so‘z aytadi. O‘quvchilar bu so‘z qaysi harf bilan tugagan bo‘lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so‘zni topib aytadilar. So‘z o‘yini shu tarzda davom etadi. Bunday o‘yinlarning o‘tkazilishi o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Dam olish daqiqalari-da yoki darsni boshlashdan oldin o‘quvchilar diqqatini to‘plab olish maqsadida foydalanish mumkin. Masalan: tabiat, maymun-jon, non, nok, kitob, botir, ruchka. 2-variant: lola, ayiq, qiro, li-mon. 3-variant: atirgul, Laziza, Amerika, anor va h.k.

«Topag‘on» o‘yini. O‘qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O‘quvchilar shu belgini o‘ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yo-zadilar, eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchilar g‘olib sanaladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi. Masalan: 1-variant: savol: nima oq rangda? Javob: bulut, parda, qog‘oz qor. 2-variant: savol: nima yumshoq? Non, paxta, xamir, yostiq. 3-variant: savol: Nigora nima qilayapti? Javob: kitob o‘qiyapti, o‘ynayapti va h.k.

O‘ZBEK TILINI O‘QITISH USLUBIYOTI

O‘zbek tilini o‘qitish tamoyili ikkinchi tilni o‘qitishning maqsad va mazmuniga nazariy va amaliy jihatdan mushtarakdir. Chunki eshitib tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish kabi til faoliyatining turlari bo‘yicha barcha tillarni o‘rgatishda bir xil umumdidaktik usullar qo‘llaniladi. O‘zbek tilini o‘qitishda faoliyat turlarining har biri bo‘yicha ko‘nikma va malakalar baravar rivojlantiriladi. Faqat o‘qishga yoki matn mazmunini tushunishga e’tibor berilgan taqdirda so‘z boyligi passiv shakllanadi. O‘zbek tilida o‘g‘zaki nutq, o‘zarо fikr almashuv, muloqotga o‘rgatish asosiy maqsad bo‘lgani tufayli nutq faoliyatining so‘zlash turiga ko‘proq e’tibor beriladi. Lug‘at

bilan ishslash, grammatik materiallarni o‘rganish, o‘qish va yozuv bo‘yicha olib boriladigan mashg‘ulotlarga ana shu nuqtayi nazardan yondashiladi.

Ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish ikkinchi tilni o‘qitishda keng qo‘llanayotgan, bir-biriga asoslanadigan quyidagi beshta tamoyildan iborat:

1. O‘qitishda amaliy kommunikativ yo‘nalishda ish tutish.
2. O‘quv materilani nutqiy vaziyat asosida bosqichma-bosqich izchil tarzda berish.
3. O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.
4. O‘zbek tilini o‘zbek adabiyoti bilan uyg‘unlikda, uzviy bog‘lab o‘qitish.

5. Ta’lim va tarbiyaning birligini ta’minlash.

6. Mazkur tamoyillarning mohiyati metodik qo‘llanmada o‘zbek tilini amaliy yo‘nalishda o‘qitishning ijodiy tashkil etilishini ta’minlaydi.

O‘zbek tilini ona tili sifatida emas, balki ikkinchi til sifatida o‘qitilishi nazarda tutilgan holda o‘zbek tilining izchil grammatik kursini emas, balki ta’lim oluvchilarda o‘zbek tilida so‘zlashish, og‘zaki va yozma tarzda o‘z fikrini bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Ya’ni o‘quvchi muayyan mavzular doirasida o‘zbekcha nutqni tinglab tushuna olishga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda mustaqil ifoda eta olishga, hamda egal-langan bilim va ko‘nikmalarini turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatish nazarda tutiladi.

METODIK QO‘LLANMANING TUZILISHI

4-sinf «O‘zbek tili» o‘quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga yo‘naltirilagn bo‘lib, 18 ta nutqiy mavzu berilgan. Har bir mavzu 2-3 soatga mo‘ljallangan. Ular: «Vatan», «Qadrdon maktabim», «Ko‘chamiz», «Uyimiz», «Bog‘da», «Kuzgi ishlar», «Kitob», «Bozorda», «Do‘konda», «Maktab oshxonasi», «Yil fasllari va ob-havo», «Bahor keldi», «Assalom, Navro‘z», «Orasta bo‘ling», «Sport va salomatlik», «Har doim bo‘lsin tinchlik», «Yo‘l harakati», «Yozgi ta’til» kabi mavzulardan iborat. Har bir mavzu bo‘yicha so‘z va so‘z birikmlari muayyan grammatik shaklda berilgan bo‘lib, ular asosida o‘quvchilarda bu grammatik shaklni nutqda qo‘llash bo‘yicha ilk ko‘nikmalar hoslil qilish ko‘zda tutilgan. 4-sinf o‘quv dasturida o‘quv materiallari mavzuiy (tematik) asosda tashkil etilib, har bir leksik

mavzu bo'yicha o'quvchilarda tinglangan nutqni tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini bir yo'la bir-biriga bog'liq holda shakllantirish ko'zda tutilgan. Har bir mavzuga fanga oid kompetensiyalarning elementlari singdirilgan. Shunga ko'ra, dasturda so'z va so'z birikmalari, nutq namunalari va muomala odobiga oid hamda o'quvchilarda fonetik ko'nikmalarini hosil qilishga mo'ljallangan materillar belgilangan. Ta'lif rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinflarida o'zbek tili fanidan o'quvchilarda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ko'zda tutilgan:

- 4-sinfda o'zlashtirilgan leksik mavzular bo'yicha so'z boyligini oshirish;
- nutqiy faoliyatning to'rtala turi (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- yangi mavzular bo'yicha so'z va so'z birikmalari, gap qurilmalarini o'zlashtirish;
- sinfda o'rganiladigan mavzular yuzasidan o'z fikrini bog'lanishli matn tarzida og'zaki va yozma ifoda etish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quv dasturida belgilangan grammatik shakllarni o'zlashtirish;
- o'zbekcha salomlashish, xayrlashish, murojaat etish, iltimos qilish, ruxsat so'rash kabi muomala odobiga oid eng zaruriy so'z va iboralarni o'zlashtirish;
- darslikda berilgan she'r va qo'shiqlarni yoddan ayta bilish, dastur doirasidagi hikoya va ertaklarni tushunish, ularning mazmunini aytib bera olish, ular yuzasidan savollarga javob bera olish kabilar. Qo'llanmada, asosan, o'quvchilarning lug'at bilan ishlashi, o'zbek tilini amaliy egallash ko'nikmalarini hosil qilish ko'zda tutilganligi sababli o'zbek tili darslarida o'quv dasturida belgilangan nutqiy mavzular bo'yicha lug'at, nutq namunalari, tinglab tushunish va so'zlash, o'qish va yozish amallari ustida ishlanadi. Mazkur metodik qo'llanma ta'lif rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinf «O'zbek tili» darsligi asosida o'qituvchilarga qo'shimcha manba sifatida ishlab chiqildi.

Metodik qo'llanma 128 betdan iborat bo'lib, so'z boshi, o'zbek tilini o'qitishning maqsad va vazifalari, o'zbek tilini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalinish, o'zbek tilini o'qitish uslubiyoti, metodik qo'llanmaning tuzili-

shi, namunaviy dars ishlanmalari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va mundarijadan iborat. Metodik qo‘llanmada tavsiya etilgan animatsiyalar orqali o‘quvchilarga havola qilinayotgan turli mavzudagi tasvirlar matnda o‘qitiladigan so‘z va gaplarni hayot bilan bog‘lash, gap ichida qo‘llash mumkin bo‘lmagan so‘zlarni rasm orqali nutqiga kiritish imkonini beradi. O‘zbek tilini o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun talaffuzi qiyin bo‘lgan tovushlarni, so‘zlar va iboralarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, tinglab, tushunish, gapirish, yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda audio-video, multimedia vositalarining ahamiyati katta. Masalan: she‘r va ashula, kichik jumlalarni tinglab jo‘r bo‘lib bir necha bor takrorlash, tinglab tushunganlarni yozish o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri talaffuz qilishiga, to‘g‘ri yozishga, she‘rlarni ifodali o‘qishiga zamin hozirlaydi. Ko‘rilgan diafilm, tinglangan hikoya va ertaklar, kuzatilgan rasmlar o‘quvchilarda so‘zlovchi nutqini diqqat bilan tinglash va fikrning nima haqida ekanligini tushunish ko‘nikmasini o‘stirishga yordam beradi. Shuningdek, qo‘llanmada foydalanilgan «Interaktiv mashq», mavzular doirasida video va audio, test, lug‘at kabi animatsiyalarning taqdim etilishi, jumboqli rebuslar, mini test va boshqotirmalarning berilishi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqining shakllanishiga, ularni o‘zbek tilida o‘z fikrini mustaqil tushuntira olishiga tayyorlaydi. Topshiriqlar «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida beriladi. «Rasmga qarab gap tuzing», «Boshqotirmani yeching», kabi topshiriqlar o‘quvchilar faolligini oshiradi, yangi va avval o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga ko‘maklashadi. Ba’zi vazifalarning bajarilish tezligi va sifatini kompyuter (to‘plangan ballarni ko‘rsatish yoki «Barakalla!», «O‘ylab ko‘ring» kabi yozuv, tegishli musiqa yordamida rag‘batlantirish, ogohlantirish orqali baholasa, ba’zilarini o‘qituvchi nazorat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda elektron darsliklarni qo‘llash pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda samarali sanaladi. Masalan:

- o‘quvchilarning darsga, til o‘rganishga qiziqishlari ortadi;
- o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi va sifat jihatidan yaxshilanadi;
- barcha o‘quvchilarning faoliyatlarini baholash imkoniyati yaratiladi;
- o‘qituvchining o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlashiga sharoit yaratiladi.

Darslarni kompyuter vositasida tashkil etish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish bilan birga o‘qituvchilarning mahoratini ham oshirib borishga xizmat qiladi.

Darsda slayd va multimedia vositalaridan foydalanishda quyidagi tamoyil va qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- slaydni tayyorlashdan ko‘zlangan maqsadni aniq belgilash;
- slaydlar mavzuning mazmun-mohiyatiga mos kelishi kerak;
- slaydda mavzuning nomi, rejasи ko‘rsatilishi kerak;
- ma’lumotlarni yozishda imloviy savodxonlikka amal qilish;
- yozuv shriftini tanlashda har xillikka yo‘l qo‘ymaslik, qoraytirib, kursivda beriladigan o‘rinnlarni farqlash;
- o‘quvchilarni qiziqtiradigan yangi ma’lumotlarni berish;
- qoida, ta’rif va izohlarni lo‘nda, aniq va mazmunli bo‘lishini ta’minlash;
- sahifalarga fon tanlashda o‘ta yorqin ranglardan foydalanmaslik, ranglarni o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishiga erishish;
- rasm, animatsiyalar tanlashda o‘quvchining yoshi, psixologiyasini hisobga olish.

Bugungi kunda kompyuterda taqdimot slaydlarini yaratish va namoyish etish eng samarali va qulay zamonaviy vositaga aylandi. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tili ta’limida slaydlardan foydalanish o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini o‘siradi, darsni qiziqarli, samarali, zamon talablariga mos bo‘lishini ta’minlaydi.

Ushbu metodik qo‘llanma bilan ishlash jarayonida amaliyotchi o‘qituvchilar darsga ijodiy yondashgan holda darslik materiallari bilan chegaralanib qolmasdan, qo‘srimcha manbalardan, turli janrdagi adabiylardan (ertak, hikoya, dostonlar), lug‘atlardan, xrestomatiyalarda berilgan qiziqarli ma’lumotlardan foydalanishlari o‘quvchilarni o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

**O'ZBEK TILI FANIDAN ILG'OR
PEDAGOGIK VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANILGAN
DARS ISHLANMALARI**

1-dars. VATAN

Darsning texnologik xaritasi

Darsning maqsadi:	<p>a) ta'limiylari: o'quvchilarni O'zbekiston haqida, tabiatni, ona vatan tushunchasi bilan tanishtirish, belgi, harakatni bildiruvchi so'zlar, qayer so'rog'i haqida ma'lumot berish;</p> <p>b) tarbiyaviy: Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish; vatani bilan faxrlanish, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash;</p> <p>d) rivojlantiruvchi: o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda tushunarli bayon qilish, o'zaro muqodda muomala madaniyatiga amal qilish, jahmoaviy hamkorlikda ishlay olish;</p> <p>husnixat bilan yozish ko'nikmasini rivojlantirish, lug'at boyligini boyitish;</p>
O'quv jarayonini amalgao shirish texnologiyasi.	<p>Dars turi: yangi bilim beruvchi.</p> <p>Dars metodi: interfaol metod, aqliy hujum, suhbat, «Xotira mashqi» animatsion test.</p> <p>Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishlash.</p> <p>Dars jahozi: darslik, AKT, O'zbekiston tabiatni aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositalari.</p> <p>Nazorat usuli: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.</p> <p>Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.</p>

Mavzuga oid tayanch tushunchalar.	«Vatan» mavzusidagi tayanch so‘zlar: Vatan, tuproq, obod, davlat, o‘lka, ipak, ko‘mir, tabiiy boyliklar, dunyo, tinchlik, birdamlik, shahar, ko‘chalar, qurilishlar, turar joy binolari, makktab, bog‘cha, teatr, bog‘lar, favvoralar, yo‘llar, avtobus, mashinalar, mavjud, boy, chiroyli, baland, uzun, keng, mashhur, ko‘rkam, ulug‘, aziz, yashamoq, sevmoq, faxrlanmoq, tug‘ilmoq, bormoq, yurmoq, qurilmoq, dam olmoq, qatnamoq
Kutilayotgan natija	O‘quvchilarning egallagan bilim ko‘nikmalarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olish, kundalik hayotida nutqiy vaziyatga ko‘ra mustaqil ravishda muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirish.

Dars jarayoni texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish nomi	Metodi	Vaqti
I bosqich. Tashkiliy qism.	Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. O‘quvchilar davomati aniqlanadi.	suhbat	2 daqiqa
II bosqich. Dars-davomi-da rioya qilish lozim bo‘lgan qoidalar belgilanadi.	Darsning qoidalari: 1. Intizomli bo‘lish. 2. Bir-birini hurmat qilish. 3. Faollik ko‘rsatish. 4. Hamkorlikda ishlash. 5. Do‘stining fikrini qadrlash. 6. Vaqtidan unumli foydalanish.	suhbat	2 daqiqa

III bosqich. Yangi mavzuning bayoni.	<p>1. Animatsiya. O‘qituvchi darsni Zikrilla Ne’matning «Yosh vatanparvarlar» qo‘sигини eshittirish bilan boshlaydi.</p> <p>2. Nutqiy mavzu bo‘yicha videolavha namoyish etiladi. Vatan haqida ma’lumot beriladi.</p> <p>2. Videolavha yuzasidan savol-javob.</p> <p>4. Darslik bilan ishslash.</p> <p>5. Lug‘at bilan ishslash.</p> <p>«Xotira mashqi» didaktik o‘yini.</p> <p>6. She’r ifodali o‘qib beriladi. She’r o‘quvchilarga navbat bilan ifodali o‘qtiladi. Suhbat.</p> <p>7. Guruhlarda ishslash.</p>	savol-javob (tarqatma materiallar asosida)	7 daqiqa 2 daqiqa 5 daqiqa 10 daqiqa 5 daqiqa 5 daqiqa
IV bosqich. Mustah-kamlash.	Animatsiya. Test.	Tushuntirish	5 daqiqa
V bosqich. Baholash.	O‘quvchilar darsdagi ishtirokiга ko‘ra baholanadilar.	Suhbat	2 daqiqa
VI bosqich. Uyga vazifa berish.	3-topshriqdagi she’rni yodolish.	Tushuntirish	1 daqiqa

Darsning borishi:

I. Animatsiya. O‘qituvchi darsni Zikrilla Ne’matning «Yosh vatanparvarlar» qo‘shibini eshittirish bilan boshlaydi.

<i>Biz-ona yurt bag‘rida</i>	<i>Xizmatlaringga shaymiz.</i>
<i>Sho ‘x-u shodon bolamiz.</i>	<i>Baxting ko ‘zlab yashaymiz.</i>
<i>O‘sib-unib tez kunda</i>	<i>Sen – mehrli quyoshsan,</i>
<i>Kuch-g‘ayratga to ‘lamiz.</i>	<i>Biz yulduzga o ‘xshaymiz.</i>
<i>Vatan, Vatan, jon Vatan,</i>	<i>Vatan, Vatan, jon Vatan,</i>
<i>Senga fido jon-u tan.</i>	<i>Senga fido jon-u tan.</i>
<i>Aziz farzandlaringmiz,</i>	<i>Aziz farzandlaringmiz,</i>
<i>Seni sevgan jonidan.</i>	<i>Seni sevgan jonidan.</i>
<i>Jondek aziz Vatanga</i>	<i>Vatan, sen-onajonsan,</i>
<i>Sodiq o‘g‘lon kerakdir.</i>	<i>Mehribon, jonajonsan.</i>
<i>Qalbga yoniq alanga,</i>	<i>Toki dunyo turguncha-</i>
<i>Elga posbon kerakdir.</i>	<i>Bo ‘lgil mangu omon san!</i>

Lug‘at: Vatan, tuproq, obod, davlat, o‘lka, ipak, ko‘mir, tabiiy boyliklar, dunyo, tinchlik, birdamlik, shahar, ko‘chalar, qurilishlar, turar joy binolari, maktab, bog‘cha, teatr, bog‘lar, favvoralar, yo‘llar, avtobus, mashinalar mavjud, boy, chiroqli, baland, uzun, keng, mashhur, ko‘rkam, ulug‘, aziz.

II. Yangi mavzuning bayoni. Video. Video orqali vatanimizning mustaqillikka erishgandan so‘nggi o‘zgarishlar tasvirlangan video rolik namoyish etiladi. Namoyish vaqtida mayin kuy va quyidagi she’r o‘qiladi. Videolavha asosida shahar ko‘rinishi haqida suhbat o‘tkazilganda quyidagi so‘zlardan foydalanish mumkin: bog‘, teatr, favvara, bekat, mashina, tramvay, maydon, ko‘cha, chorraha, bino, do‘kon, haykal.

O‘qituvchining nutqi.

«O‘zbekiston – bizning vatanimiz» mavzusidagi slayd ko‘rsatiladi.

Vatan – bu	onamiz uyimiz ko‘chamiz mahallamiz
------------	---

Vatan – bu biz tug‘ilib o‘sgan joyimiz, uyimiz, oilamizdir. Bizning vatanimiz go‘zal va quyoshli O‘zbekiston. O‘zbekiston boy va chiroyli o‘lka. Bizning o‘lka juda ajoyib, unda katta va kichik shaharlar bor. Vatanimizda juda ko‘p millat vakillari yashaydilar. Shu Vatanda bizning kelajagimiz uchun ota-onalarimiz mehnat qiladi. Biz ham shu Vatanga sodiq farzandlar bo‘lib yetishamiz. O‘zbekiston biz uchun aziz.

Respublikamiz har sohada rivojlanmoqda. Barcha viloyatlarda qayta qurish ishlari ketmoqda. Yangi sanoat korxonalari qurilmoqda. Yangidan-yangi ko‘chalar, baland binolar bunyod etilmoqda. Dehqonlarimiz tomonidan poliz ekinlari, bog‘bonlarimiz esa keng bog‘-rog‘lar barpo etib, mevali daraxtlar yetishtirishmoqda. O‘zbek xalqi tinch va farovon hayot kechirmoqda. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat.

Shu jarayonda 1-topshiriq bajariladi. O‘quvchilar rasmlar asosida 4-5 ta bog‘lanishli gap tuzadilar.

Darslik bilan ishlash.

2-topshiriq. O‘quvchilar «Vatan» matnini zanjir usulida o‘qiydilar. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni daftarga yozadilar. Matn quyidagi savollar asosida mustahkamlanadi.

1. Vatan deganda nimalarni tushunasiz?
2. Vatan qayerdan boshlanadi?
3. Quyoshli O‘zbekistonda kimlar yashaydi?
4. Ular qaysi tilda so‘zlashadilar?
5. Siz o‘z vataningizni sevasizmi? Nima uchun?
6. O‘zbekistonning poytaxti qayer?



Lug‘at bilan ishlash.

Animatsiya:

Vatan – родина

viloyat – область

barcha – все

ulkan – огромный

qurilishlar – стройки

sanoat korxonalari – промышленные предприятия

bog‘-rog‘lar – сады

bunyod – создаются

bepoyon – бескрайний
markaz – центр
tarixiy – исторический

Lug‘at yuzasidan «Xotira mashqi» o‘yini o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilarga lug‘atni o‘qish va eslab qolish topshirig‘i beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan lug‘atni og‘zaki o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha shaklda so‘raydi.

3-topshiriq. Muqimjon Qodiriyning «Yurtim» she’rini dastlab o‘qituvchi ifodali o‘qib beradi. So‘ngra o‘quvchilar ikki misradan o‘qiydilar. O‘qituvchi she’r asosida quyidagi topshiriqni beradi.

1. She’rning mazmunini tushundingizmi?
2. She’rdan vatan so‘ziga yaqin bo‘lgan so‘zlarni toping va o‘qing.

III. Guruhlarda ishlash.

O‘quvchilar ikki guruuhga bo‘linadilar. Sinf doskasiga so‘zlar yozib qo‘yiladi. Shu so‘zlardan foydalanib, gap tuzish topshirig‘i beriladi. Birinchi va to‘g‘ri bajargan guruh g‘olib sanaladi.

Namuna: Vatanim, mening, O‘zbekiston, men, shu, yurda, tug‘ilganimdan, faxrlanaman, keladi, shaharga, bu, oiladan, ko‘p, sayyoqlar, vatan, boshlanadi. Shaharlar, qadimiy, ko‘p, O‘zbekistonda.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. 1-mashq. Og‘zaki bajariladi. Muomala odobiga oid berilgan so‘zlarni zanjir usulida o‘qiydilar. So‘ngra shu so‘zlardan foydalanib gaplar tuzadilar.

Test: Ushbu beriladigan test rasmlar asosida tashkil etiladi. Test savoli o‘qiladi hamda ekranda yozuv, uning tagida bir nechta rasmlar paydo bo‘ladi. Ovoz orqali test savoli o‘qiladi. Test javoblari rasm asosida tashkil etiladi. O‘quvchilar javobni sichqoncha tugmasi orqali belgilaydilar.

1. «O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyi berilgan rasmni toping.
2. «Istiqlol» san‘at saroyi berilgan rasmni toping.
3. «O‘zbekiston Respublikasi tarixi muzeyi» berilgan rasmni toping.
4. «Amir Temur» muzeyi berilgan rasmni toping.
5. «Yoshlar ijodiyot markazi» binosi tasvirlangan rasmni toping.

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish: 3-topshiriqdagi she’rni yod olish.

2-dars. VATAN

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: og‘zaki va yozma nutqda mavzuga oid tayanch so‘zlarni nutq vaziyatiga mos holda qo‘llay olish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish; o‘quvchilarning O‘zbekiston, vatan haqidagi bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy: ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, odob-axloq qoidalariga rioxva qilish, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

Dars turi: mustahkamlash.

Dars metodi: interfaol, aqliy hujum, suhbat, «Zanjir», «Aql charxi» o‘yini.

Dars shakli: yakka tartibda, guruhlarda ishlash.

Dars jihози: darslik, AKT, O‘zbekistonning tabiat, shaharlari aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: «Vatan» mavzusidagi tayanch so‘zlar: Vatan, tuproq, obod, davlat, o‘lka, ipak, ko‘mir, tabiiy boyliklar, dunyo, tinchlik, birdamlik, shahar, ko‘chalar, qurilishlar, turar joy binolari, maktab, bog‘cha, teatr, bog‘lar, favoralar, yo‘llar, avtobus, mashinalar, mavjud, boy, chiroyli, baland, uzun, keng, mashhur, ko‘rkam, ulug‘, aziz,

Kutilayotgan natija: o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llashga qaratilgan kundalik hayotida nutqiyligi vaziyatga ko‘ra muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirish.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish;
- davomatni aniqlash;

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Vatan so‘zining sinonimlari ko‘rsatiladi. Vatan, yurt, diyor, shu so‘zlar ishtirokida o‘quvchilar gaplar tuzadilar va sinf doskasida bajaradilar.

Avvalgi mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasi aqliy hujum usuli yordamida mustahkamlanadi.

Vatan – bu uyim, jumlasiga izoh bering.

Vatan – bu ko‘chamiz, Vatan – bu mahallamiz, gaplariga izoh bering.

Interaktiv mashq: O‘yin avvalida «Ruscha», «Tojikcha», «Qirg‘izcha», «Turkmancha», «Qozoqcha», «Qoraqalpoqcha» tugmalari tasviri paydo bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlariga tegishlisini belgilaydilar. Masalan, «Ruscha» tugmachasini bosish bilan: o‘zbek tilidagi so‘zlar ustuncha qilib ekranga yozilgan bo‘ladi. So‘zlarning ustiga sichqoncha tugmasini bosish bilan so‘zlar o‘zbekcha talaf-fuz etiladi. Berilgan so‘zlar tagida aralash holda ruscha so‘zlar beriladi. O‘quvchilar o‘zbekcha berilgan so‘zlarning o‘zlariga tegishli tildagi tarjimasini to‘g‘ri topib o‘z o‘rniga qo‘yishlari talab etiladi.

sharqiy-восточный
janubi sharq-юго-восточный
keng-широкий
o‘rmon-лес
sahro-пустыня

Darslik bilan ishlash.

2-topshiriq. «O‘zbekiston» matni avval «Zanjir» usulida o‘qitiladi. Keyin 3-4 o‘quvchi mazmunini so‘zlab beradi. Matn yuzasidan o‘qituvchi quyidagi savollar asosida suhbat o‘tkazadi.

1. Sizning vataningiz qayer?
2. Vatan – bu sening kindik qoning tomgan tuproq, deganda nimani tushunasiz?
3. Inson uchun aziz bo‘lgan narsalarni sanang.
4. Ona vatanga muhabbat deganda nimalar ko‘z oldingizga keladi?
5. O‘zbekiston qanday o‘lka?

Lug‘at bilan ishlash. O‘quvchilar matn asosida berilgan lug‘atni o‘qib eslab qoladilar. O‘qituvchi slaydda lug‘atlarni ko‘rsatadi. O‘quvchilar lug‘atlarning tarjimasini topib yozadilar.

1-mashqni o‘quvchilar sinf doskasida bajaradilar. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri tuzadilar. Mashqni vaqtidan unumli foydalanish uchun sinf doskasini uchga bo‘lib bajarish mumkin.

2-mashq. O‘quvchilar maqollarni zanjir usulida o‘qiydilar va mazmunini so‘zlab beradilar. Maqollarni daftarlariغا ko‘chiradilar.

Guruhlarda ishslash. Slaydda ayrim so‘zlar tushirib qoldirilgan matn ko‘rsatiladi. Guruhlarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda tushirib qoldirilgan so‘zlar yozilgan. O‘quvchilar tushirib qoldirilgan so‘zlarni joy-joyiga qo‘yib yozadilar va o‘qiydilar. Topshiriqni birinchi bajargan guruh taqdimot qiladi. Guruhlar bir-birlarining xatolarini tuzatib boradilar.

Namuna: Mening vatanim – O‘zbekiston. Men Buxoro shahrida tug‘ildim. Bu shaharga ko‘p sayyoohlar keladi. O‘zbekistonda qadimiyy shaharlar ko‘p.

Grammatik mavzu bo‘yicha topshiriq beriladi va guruhlarda ishlanadi.

Topshiriq: Qayer so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni ajratib yozish, 2-3 ta gap tuzish.

Namuna: bormoqda, ko‘cha, kelyapti, O‘zbekiston, kelmoqda, shahar, daryo, qishloq, o‘ynamoqda, tog‘, rivojlandi, sahro, qurilmoxda.

III. Darsni mustahkamlash. «Aql charxi» o‘yini. O‘qituvchi 4 ta so‘zni o‘qiydi. O‘quvchilar eslab qolganlarini yozadilar va o‘qiydilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning yozganlarini tekshiradi va xatolar o‘quvchilar tomonidan tuzatib boriladi.

Namuna: go‘zal, shahar, katta, mashhur.

IV. O‘quvchilarni baholash. O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi, darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish. 2-mashqdagi maqollarni yod olish.

3-dars. QADRDON MAKTABIM

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchilarga nutqiy va grammatik mavzu haqida, «Maktabimiz» mavzusidagi tayanch so‘zlar, nechanchi so‘rog‘i, -inchi qo‘sishmchasining ishlatalishi, belgi, harakatni bildiruvchi so‘zlarning talaffuzi va yozilishi haqida ma’lumot berish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, o'z burch va huquqlarini bilish, kirishimlilik, muomala madaniyati, mulkni asrab-avaylash tuyg'ularini tarbiyalash.

d) rivojlantiruvchi: o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, husnixat bilan yozish ko'nikmasini rivojlantirish, lug'at boyligini boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol metod, aqliy hujum, suhbat, «Kim top-qir?», «Xatoni tuzating».

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jihizi: darslik, AKT, didaktik tarqatma materiallar, mavzuga oid rangli tarqatma rasmlar, multimedia vositalari.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: maktabimiz, o'qituvchi, sinfdoshim, ikki qavatlari, oshxona, sport zali, sinf, parta, stol, stul, kitob javoni, kiyim javoni, katta, yorug', keng, ozoda, chiroyi, o'qiymiz, yozamiz, qo'shiq aytamiz, dars tayyorlaymiz, sinf xonalari, sport zali, o'qituvchilar xonasi, kompyuter xonasi, sport maydonchasi, kutubxona, maktab oshxonasi, oshxona binosi, yorug', shinam.

Kutilayotgan natija: kundalik muloqotga oid oddiy jumlalar ni tinglab tushunish, o'qish, gapirish, yozish bo'yicha dastlabki ko'nikmalar shakllantiriladi. O'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar ni to'g'ri qo'ya olish va javob berish, mavzuga oid tayanch so'zlar o'zlashtiriladi va ma'lumotlarga ega bo'linadi.

Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- davomatni aniqlash;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Sinf doskasida quyidagi savol beriladi. Ona Vatanimizni asrash uchun qanday fazilatlarga ega bo'lish lozim? O'quvchilar yakka tartibda o'z fikrlarini daftarlariiga yozadilar. O'qituvchi o'quvchilarning yozganlarini tekshiradi va og'zaki so'raydi.

Interaktiv mashq:

Ekranda qator predmetlar tasvirlanadi. Topishmoq o'qiladi. O'quvchilar sichqoncha yordamida javobni aniqlaydilar. 1. Tilsiz, aql o'rgatar. (*Kitob*)

2. Sirli tayoq
Ichi bo‘yoq. (*Qalam*)
3. O‘zi kichik bir narsa
Kerak bo‘lar har darsda
Chizib qo‘ysang noto‘g‘ri,
Yo‘q qiladi bir pasda. (*O‘chirg‘ich*)
4. Ustini yo‘q,
Uydan ammo kami yo‘q.
O‘quv qurolim har xil,
Unda yashar do‘s-t-ahil. (*Papka*)
5. «K harfidan boshlanib,
«K bilan bo‘lar tamom.
Ba’zan «o‘qish oynasi»,
Deyishar, bu qanday nom? (*Kundalik*)

III. Yangi mavzuning bayoni. Grammatik mavzu bo‘yicha slayd ko‘rsatiladi. Sanoqni bildiruvchi so‘zlarga **-inchi** qo‘srimchasi qo‘silsa, narsa-hodisalarning tartibi ifodalananadi.

Masalan: bir + inchi = birinchi, o‘n + inchi = o‘ninchi
Raqamlardan keyin tartibni ko‘rsatish uchun chiziqcha (-) qo‘yildi va u -inchi deb o‘qiladi: 18-maktab, 4-xona, 2-sentabr.
Sanoqni bildirgan so‘zlarga nechanchi so‘rog‘ini beramiz.

	to‘rtinchi
Nechanchi?	to‘qqizinchi
	yigirma to‘rtinchi

«Kim topqir?» o‘yini. Guruhlarda ishlash. Bunda o‘quvchilar to‘rt guruhga ajralib ishlashadi. Guruhlarga 2 ta topshiriq beriladi. 1) 8, 2, 9 raqamlariga -inchi qo‘srimchasi qo‘sib so‘z bilan yozing. 2) birinchi oktyabr, ikkinchi qavat, oltinchi maktab so‘z birikmalaridagi sonlarni raqamga aylantirib yozing. Guruhlar o‘z ishlarini taqdimot qiladilar.

Darslik bilan ishlash.

1-topshiriq. O‘quvchilar matnni zanjir usulida o‘qiydilar va nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni topadilar. So‘zlarni savoli bilan birga ikkita o‘quvchi sinf doskasida qolgan o‘quvchilar daftarga yozadilar.

2-topshiriq. «Mening maktabim» matnini o‘quvchilar zanjir usulida o‘qiydilar.

Matn mazmuni yuzasidan savollar:

Maktabingiz binosi qanday?

Maktabda sinf xonalari ko‘pmi?

Sinfingiz nechanchi qavatda?

Maktabingiz hovlisi kattami?

Maktab hovlisida qanday daraxtlar ekilgan?

Maktabga nima uchun borasiz?

Lug‘at bilan ishlash.

O‘quvchilar lug‘atni o‘qiydilar. Ularga lug‘atda berilgan so‘zlarni eslab qolish vazifasi beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan zanjir usulida eslab qolgan lug‘atlarini yoddan so‘raydi.

Zamonaviy

Joylashmoq

Faxrlanmoq

Mashhur

Musobaqa

1-mashq. O‘qituvchi she’rni o‘qib beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini k—q, x—h tovushlarining to‘g‘ri talaffuziga e’tibor qaratadi. O‘quvchilar she’rni zanjir usulida o‘qiydilar. So‘ngra she’rdan k—q, x —h tovushlari ishtiroy etgan so‘zlarni topib sinf doskasida yozadilar va k—q, x —h tovushlarining tagiga chizish topshirig‘i beriladi.

2-mashq. O‘quvchilar berilgan dialogni o‘qiydilar va sinf doskasida ikkitadan o‘quvchi chiqib javob yozadi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining javobini baholaydi.

Guruhlarda ishlash. 1-guruh o‘quvchilari maktab kutubxonasi haqida, 2-guruh o‘quvchilari maktab oshxonasi haqida, 3-guruh o‘quvchilari maktab sport zali haqida 4 ta gapdan iborat kichik matn tuzadilar. Sinf doskasida yozilgan tayanch so‘zlardan foydalanib, so‘zlarni qo‘sib kichik matn yozadilar.

1-guruh uchun so‘zlar: mana bu, ikkinchi qavatda, qiziq kitob, jurnallar, tez-tez, boramiz, qiziq, yangi, o‘qiymiz.

2-guruh uchun so‘zlar: ozoda, keng, yorug‘, mazali, taomlar, oshpaz.

3-guruh uchun so‘zlar: katta, yorug‘, yugurish, uchun, sakrash, sharoit, qishda, yozda, ko‘chada.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Animatsiya. Test: O‘yin avvalida «Ruscha», «Tojikcha», «Qirg‘izcha», «Turkmancha», «Qozoqcha», «Qoraqalpoqcha» tugmalari tasviri paydo bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlariga tegishlisini belgilaydilar. Masalan «Ruscha» tugmachasini bosish bilan: O‘zbek tilidagi so‘zlar ustuncha qilib ekranga yozilgan bo‘ladi. So‘zlarning ustiga sichqoncha tugmasini bosish bilan so‘zlar o‘zbekcha talaffuz etiladi. Berilgan so‘zlar tagida aralash holda ruscha so‘zlar beriladi. O‘quvchilar o‘zbekcha berilgan so‘zlarning o‘zlariga tegishli tildagi tarjimasini to‘g‘ri topib o‘z o‘rniga qo‘yishlari talab etiladi.

Yakka tartibda ishlash. Vazifa bajarilgach, o‘quvchilar bir-birining daftarini tekshiradilar.

Nuqtalar o‘rniga k va q tovushlarini va foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib so‘z birikmalarini hosil qilish:

...o‘l, ...ator, ...iyin, ... iyin, ...iyim.

Foydalanish uchun so‘zlar: katta, oldingi, misol, tezroq, issiq.

«**Xatoni tuzating!**» o‘yini. O‘quvchilarga javobi xato berilgan lug‘atlar ko‘rsatiladi. Ular lug‘atni o‘qiydi, xatoni aniqlaydi va javobini to‘g‘ri joylashtirib yozadilar.

Namuna:

yorug‘ — просторный

keng — светлый

parvarish qilmoq — каждый день

har kuni — ухаживать

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. O‘z maktabingiz haqida 3-4 gapdan iborat bog‘lanishli matn tuzish.

4-dars. QADRDON MAKTABIM

Darsning maqsadi:

a) **ta’limiy:** «Maktabimiz» mavzusidagi tayanch so‘zlar, -nchi, -inchi qo‘shimchalarining yozilishi, hafta kunlari haqida ma’lumot berish.

b) **tarbiyaviy:** ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;

d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi va mustahkamlovchi.

Dars metodi: interfaol, aqliy hujum, suhbat, «Aql charxi», «Xotira mashqi», «Zanjir» o‘yini

Dars shakli: yakka tartibda, guruhlarda ishlash.

Dars jahozi: darslik, AKT, mакtab tasviri aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *maktabimiz, o‘qituvchi, sinfdoshim, ikki qavatli, oshxona, sport zali, sinf, parta, stol, stul, kitob javoni, kiyim javoni, katta, yorug‘, keng, ozoda, chiroyli, o‘qiyimiz, yozamiz, qo‘sishq aytamiz, dars tayyorlaymiz sinf xonalari, sport zali, o‘qituvchilar xonasi, kompyuter xonasi, sport maydonchasi, kutubxona, maktab oshxonasi, oshxona binosi, yorug‘, shinam.*

Kutilayotgan natija: o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llashga qaratilgan kundalik hayotida nutqiy vaziyatga ko‘ra muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirish.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

I. **Tashkiliy qism:**

- o‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish;
- davomatni aniqlash;

II. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilarga maktab haqida qisqacha matn o‘qib beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tinglab tushunish, yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar tinglaydilar va tushunganlarini gapiradilar va eslab qolgan so‘z va gaplarini daftarlariiga yozadilar. Namuna: Maktabimiz chiroyli. Maktab binosi ustida respublikamiz bayrog‘i hilpiraydi. Keng va yorug‘ sinflarda o‘qiyimiz. Maktab hovlisida gul va daraxtlar ko‘p. Biz ularni parvarish qilamiz. Maktabimizni juda sevamiz.



Audio: «Qadrdom maktabim» she’rini o‘qituvchi o‘quvchilarga diqqat bilan eshitishni so‘raydi.

«Salom maktab» (Muhiddin Omon)

Salom, maktab, jon maktab, Bilimlarga kon maktab.	Vatanning baxti uchun Sarf aylagin bor kuching,
Aql-u odob, tarbiya	Olib elning duosin,
Berguchi makon maktab.	Ravo qil muddaosin.
Ustozlarim mehribon,	Bu tilakka labbay, deb,
O‘qi, derlar bearmon,	Javob beraman tayin.
Sen – Istiqlol farzandi,	Ma’rifat ziyosidan
Barkamol bo‘l, bolajon!	Ulg‘ayaman kun sayin.
Sog‘lom bo‘lu, polvon bo‘l,	O‘zbekiston nomini
El-u yurtga posbon bo‘l.	Jahonga qilgum doston.
Bel olishsang maydonda	Chunki boshqa topilmas
Or-nomusi osmon bo‘l!.	Dunyoda bunday bo‘ston.

Eshitilgan she’r savollar yordamida mustahkamlanadi.

1. She’r nima haqida ekan?
2. Maktabga nima uchun kelamiz?
3. Tarbiya, bilim qayerda berilar ekan?
4. Vatan va maktab haqida yana nimalarni bilasiz?

III. Yangi mavzuning bayoni.

Slayd. Unli harf bilan tugagan sanoqni bildiruvchi so‘zlarga – nchi qo‘srimchasi, undosh bilan tugagan

so‘zlarga esa –inchi qo‘srimchasi qo‘shiladi.

Masalan: olti+nchi=oltinchi

sakkiz+inchi=sakkizinchi kabi.

O‘qituvchi slaydda ko‘rsatilgan so‘zlarni daftarga yozish topshirig‘ini beradi.

Eslab qoling. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan eslab qoling ruknida ko‘rsatilgan hafta kunlarini birgalikda talaffuz qiladi.

Hafta kunlari nomini yodda saqlang!

1-kun Dushanba

4-kun Payshanba

7-kun Yakshanba

2-kun Seshanba

5-kun Juma

3-kun Chorshanba

6-kun Shanba

Darslik bilan ishlash.

1-mashq. Ikkitadan o‘quvchi namuna asosida sinf doskasida bajaradi.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga -nchi, -inchi qo‘sishimchalarini qo‘yib raqamlarni so‘z bilan yozadilar.

1-topshiriq. Bu topshiriq og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar zanjir usulida suhbat matnini o‘qiydilar. Suhbat asosida savollarga javob beradilar.

Lug‘at bilan ishslash. «Xotira mashqi» o‘yini o‘tkaziladi. O‘quvchilarga lug‘atda berilgan so‘zlarni o‘qish va eslab qolish, kitoblarini yopish topshirig‘ini beradi. O‘qituvchi eslab qolgan so‘zlarni daftarlariiga yozishni so‘raydi. O‘quvchilar eslab qolgan so‘zlarni daftarga yozadilar. O‘qituvchi tekshiradi.

Sport zali

O‘qituvchilar xonasi

Oshxona

IV. Darsni mustahkamlash.

«Zanjir» o‘yini. O‘qituvchi birinchi bo‘lib so‘z aytadi. O‘quvchilar bu so‘z qaysi harf bilan tugagan bo‘lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so‘zni topib aytadilar. So‘z o‘yini shu tarzda davom etadi. Masalan: tabiat, maymunjon, non, nok, kitob, botir, ruchka. 2-variant: lola, ayiq, qiroq, limon. 3-variant: atirgul, Laziza, Amerika, anor va h.k.



Interaktiv mashq. Ovoz orqali topshiriq e’lon qilinadi.

Tushirib qoldirilgan harflarni nuqtalar o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni alifbo tartibida yozing.

Kito., do’s., har., de.qon, .nor, .odring, pa.ta, .at.

Foydalanish uchun harflar: b,t,h,x,a,f.

V. O‘quvchilarni baholash. O‘quvchilar darsdagagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi, darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlanriladi.

VI. Uyga vazifa berish. Lug‘atda berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish.

5-dars. KO‘CHAMIZ

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy: o‘quvchilarga nutqiy va grammatik mavzu haqidada «Ko‘chamiz» mavzusidagi tayanch so‘zlar, **-ga, -ka, -qa** qo‘sishimchali so‘zlarning talaffuzi va yozilishi, *qayerga, qayerda* so‘rog‘i haqidada ma’lumot berish.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, o‘z burch va huquqlarini bilish, mulkni asrab-avaylash tuyg‘ularini tarbiyalash.

d) rivojlantiruvchi: o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, husnixat bilan yozish ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol metod, aqliy hujum, suhbat, «Kim topqir?», «To‘g‘ri toping», «Xatoni tuzating» o‘yinlari.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jahozi: darslik, AKT, didaktik tarqatma materiallar, mavzuga oid rangli tarqatma rasmlar, multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *ko‘cha, ko‘p, uylar, xo-nadonlar, hovli, zamonaviy, yorug‘, keng, chiroyli, gullar, daraxtlar, bir qavatli, ko‘p qavatli, ozoda, aziz, yashamoq, yoqmoq, ketmoq,*

Kutilayotgan natija: kundalik muloqotga oid oddiy jumlalar ni tinglab tushunish, o‘qish, gapirish, yozish bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar ni to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish, mavzuga oid tayanch so‘zlar o‘zlashtiriladi va ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- davomatni aniqlash;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Oldingi mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasi slayd yordamida aniqlanadi. O‘quvchilar slaydda berilgan topshiriqlarni og‘zaki bajaradilar. Slaydda quyidagi topshiriqlar beriladi:

Berilgan so‘zlar asosida o‘quvchilar gaplar tuzadilar. Namuna: juda, maktabimizni, gullar, sevamiz, binosi, hovlisida, katta, bor.

«To‘g‘ri toping» o‘yini. O‘quvchilarga so‘zlar beriladi. O‘quvchilar to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni topib daftarlariiga yozadilar. Namuna: gullar, maktab, boramis, sevamiz, joylashkan, qaerda, joylashgan, sinif

III. Yangi mavzuning bayoni. Grammatik mavzu slayd asosida tushuntiriladi.

Jo‘nalish kelishigi -ga, (-ka -qa) qo‘sishchalar bilan yasaladi. Harakatning yo‘nalishini bildiradi. Kimga, nimaga, qayerga so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Uy	
Ish	
Ko'cha	ga
Gulzor	
Sirk	
Eshik	
Etak	ka
To'shak	

Qishloq	
Qirg'oq	
Buzoq	
Tuzoq	qa

«Kim topqir?» o'yini. O'quvchilarga slayd ko'rsatiladi. Slaydda berilgan so'zlarga nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yish topshirig'i beriladi. O'quvchilar topshiriqni mustaqil bajaradilar. Birinchi bajargan 3 ta o'quvchi vazifani sinf doskasiga yozadi. Namuna: tog'..a, eshik..a, bog'..a,

Darslik bilan ishslash.

1-topshiriq og'zaki bajariladi. Berilgan rasm asosida tayanch so'zlardan foydalaniib o'quvchilar so'z birikmali va gaplar tuzadilar.

2-topshiriq. O'qituvchi matnni o'qib beradi so'ngra o'quvchilar zanjir usulida o'qiydilar. Quyidagi savollar asosida matn mustahkamlanadi.

Ko'changizning nomini bilasizmi?

Ko'changizning atrofida qanday binolar bor?

Ko'changiz katta va ozodami?

Ko'changizning tozaligi uchun qanday ishlarni amalga oshirasiz?

Lug'at bilan ishslash. O'quvchilar lug'atni o'qiydilar. Ularga lug'atda berilgan so'zlarni eslab qolish vazifikasi beriladi. O'qituvchi o'quvchilardan zanjir usulida eslab qolgan lug'atlarini yoddan so'raydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Animatsiya. Test: O'yin avvalida «Ruscha», «Tojikcha», «Qirg'izcha», «Turkmancha», «Qozoqcha», «Qoraqalpoqcha» tugmalari tasviri paydo bo'ladi. O'quvchilar o'zlariga tegishlisini belgilaydilar. Masalan «Ruscha» tugmachasini bosish bilan: O'zbek tilidagi so'zlar ustuncha qilib ekranga yozilgan bo'ladi. So'zlarining ustiga sichqoncha tugmasini bosish bilan so'zlar o'zbekcha talaffuz etiladi. Berilgan so'zlar tagida aralash holda ruscha so'zlar beriladi. O'quvchilar o'zbekcha berilgan so'zlarining o'zlariga tegishli tildagi tarjimasini to'g'ri topib o'z o'rniga qo'yishlari talab etiladi.

jo'shib – с восторгом	shod-xurram – весёлый	baxtiyor – счастливый
-----------------------	-----------------------	-----------------------

o'ynaymiz – играем	yangramoq – звенят	barcha – все
--------------------	--------------------	--------------

«Xatoni tuzating!» o‘yini. O‘quvchilarga javobi xato berilgan lug‘atlar ko‘rsatiladi. Ular lug‘atni o‘qiydi, xatoni aniqlaydi va javobini to‘g‘ri joylashtirib yozadilar.

Namuna:

yorug‘ — просторный

keng — светлый

parvarish qilmoq — каждый день

har kuni — ухаживать

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. 3-topshiriq. She’rni yod olish.

6-dars. KO‘CHAMIZ

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy: o‘quvchilarning nutqiy va grammatik mavzu haqida bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, o‘z burch va huquqlarini bilish, kirishimlilik, mulkni asrab-avaylash tuyg‘ularini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi: o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; — o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, husnixat bilan yozish ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish.

Dars turi: mustahkamlash.

Dars metodi: interfaol metod, aqliy hujum, suhbat.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishlash.

Dars jahozi: darslik, AKT, didaktik tarqatma materiallar, rangli tarqatma rasmlari, multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *ko‘cha, ko‘p, uylar, xo-nadonlar, hovli, zamonaviy, yorug‘, keng, chiroyli, gullar, daraxtlar, bir qavatli, ko‘p qavatli, ozoda, aziz, yashamoq, yoqmoq, ketmoq.*

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

— davomatni aniqlash;

— o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilarga slaydda quyidagi topshiriq beriladi.

Namuna: 1-slayd. Nuqtalar o‘rniga, **-ga**, **-ka**, **-qa** qo‘sishimchalar-
dan mosini qo‘yib yozing. Toq..., boq..., bog‘..., tok..., eshik....,

Berilgan gaplarni o‘quvchilar davom ettirib daftarlariiga yozadilar.

2-slayd: Uyimiz ko‘chasiva Ko‘chamiz atrofida

3-slayd. Ko‘chamiz oldida Har bir inson o‘z ko‘chasini

...



Animatsiya:

Ekranda o‘g‘il bola va uning orqasida xarita tasvirlanadi.
Tasvirda: 1. O‘rmon. 2. Ko‘l. 3. Tog‘. 4. Uy. 5. Bog‘.

Bola o‘yin shartini quyidagicha tushuntiradi:

O‘yin sharti: Ushbu xaritada berilgan tasvirlarning ustiga ketma-ketlikda bosib, berilgan savollarga to‘g‘ri javob berish orqali yuqorida berkitilgan sehrli gapni toping. Tasvirda berkitilgan savollarga ketma-ket to‘g‘ri javob topsangizgina o‘yining keyingi shartiga o‘tasiz.

Savollar: 1. Qushga o‘xshar, qush emas,

Daraxtlarga qo‘nolmas.

Odam tashir, yuk ortar,

Yo‘lning tanobin tortar. (Samolyot, burgut, poyezd)

2. «Buyuk» so‘ziga ma’nodosh so‘zni toping.

a. Erka.

b. Ulug‘.

c. Kichik.

3. Berilgan matnda nechta gap bor?

Mahbuba opa xontaxta ustiga paxtaday oppoq dasturxon yozdi
Yumshoqqina non, idishda qaymoq keltirib qo‘ydi Buvisi faqat shu
idishchada qaymoq yeishni yoqtiradi

a. 4ta.

b. 3ta.

c. 5ta.

4. Ushbu she‘r muallifini toping.

Bahor keldi

Keldi bahor, gul bahor,

Erib bitdi oppoq qor.

Uchib keldi qushlarjon,

Daraxtlar taqdi marjon.

Quyosh nurlarin sochdi,

Atirgul g‘uncha ochdi.

Bog‘da qizil lolalar,

Terib oling, bolalar.

- a. Shukur Sa'dulla
 - b. Tursunboy Adashboyev
 - d. Muhiddin Omon
 - 5. Tushirib qoldirilgan **x-h** harflarini o'z o'rniga to'g'ri qo'ying.
.alq, .ato, tu.um, .amma, ba.or, me.nat .
O'yin yakunida xazinaning o'rnida quyidagi gap hosil bo'ladi. «.....»
- Darslik bilan ishslash.**

2-topshiriq. «Ko'cha odobi» matnini o'qituvchi o'qib beradi. So'ngra o'qvuchilar zanjir usulida o'qiydilar. Aqliy hujum. O'qilgan matn quyidagi savollar asosida mustahkamlanadi.

Ko'cha odobi deganda nimalarni tushunasiz?

Ko'chada yurganda kattalarga yo'l berasizmi?

Ko'chada o'zingizni qanday tutasiz?

1-mashq bilan ishslashda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. Har bir guruhdan 2 tadan o'quvchi chiqib, sinf doskasiga qayerda so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni topib o'qiydilar va sinf doskasiga yozadilar. Guruhlar bir-birlarining xatolarini topib, tuzatib boradilar.

3-topshiriq. «Maktabimiz ko'chasi» she'ri zanjir usulida o'qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri talaffuziga hamda ifodali o'qishiga e'tibor qaratadi. Quyidagi savollar bilan suhbat olib boriladi.

She' nima haqida ekan?

O'zingiz o'qiydigan maktab ko'chasi haqida gapirib bering?

Maktabingiz ko'chasi sizga yoqadimi?

Maktabingiz ko'chasi ozoda bo'lishi uchun nimalar qilasiz?

Mustaqil ish. O'quvchilar savollarga yozma javob beradilar.

1-topshiriq. O'quvchilar berilgan savollarni o'qiydilar. Savollarga og'zaki javob beradilar.

Guruhlarda ishslash. 1-guruh o'quvchilari q harfi ishtirot etgan, 2-guruh o'quvchilari esa -k harfi ishtirot etgan so'zlarga misollar topib daftarga yozadilar. Bunda eng ko'p so'z topib, to'g'ri yozgan guruh g'olib sanaladi.

Interaktiv mashq.

O'quvchilardan sichqoncha yordamida kataklarni birlashtirish orqali mavzuga mos so'zlarni topish topshirig'i beriladi.

k	o'	q	i	l	y	u
b	ch	b	sh	l	x	t
i	a	o	a	o	a	r
n	o	g'	ch	q	d	a

III. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

IV. Uyga vazifa berish. Ko‘cha, mahalla, bog‘, qishloq, uy so‘zlariga -ga qo‘sishimchasini qo‘sib, so‘z birikmalari tuzish va yozish.

7-dars. UYIMIZ

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: uyimiz mavzusiga oid tayanch so‘zlar, harakatni bildiruvchi so‘zlar, o‘rin-joy va harakat yo‘nalishini bildirgan so‘zlar haqida ma’lumot berish;

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o‘zaro mulo-qotda muomala madaniyatiga amal qilish, to‘g‘rilik kabi sifatlarni shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jihози: darslik, AKT, sinf xonasi aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *uyimiz, hovli, bir qavatli, ayvon, yotoqxona, hojatxona, zina, tom, devor, gulzor, hammom, osh xona, bolalar xonasi, yo‘lak, yashamoq, tepada, yonida, yoqmoq, joylashmoq*

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomatini aniqlash;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Oldingi mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasi slayd yordamida aniqlanadi. O‘quvchilar slaydda berilgan topshiriqlarni og‘zaki bajaradilar. Slaydda quyidagi topshiriqlar beriladi:

Berilgan javoblarga savollar tuzish:

- ?
- Ko‘chamiz keng va ozoda.
- ?

- Ko‘chamizga suv sepamiz va supuramiz.



Interaktiv mashq.

Ovoz orqali quyidagi topshiriq o‘qiladi: Qiz bolalar familiyasining birinchi harfiga qarab alifbo tartibida yozing.

Ilhomova, Lazizova, Yo‘ldoshev, G‘ulomova, Kamolova, Murodov, Olimov, Tohirova, Samadov.

III. Yangi mavzuning bayoni. Slayd. O‘qituvchi slayd asosida o‘quvchilar bilan birgalikda so‘zlarga savol berib javobini o‘qiydi.

O‘rin-joy va harakat yo‘nalishini bildirgan so‘zlarni farqlang!

Qayerda ?	Qayerga ?
Uyda (o‘tirmoq)	Uyga (bormoq)
Hovlida (ishlamoq)	Hammomga (tushmoq)
Hammonda (cho‘milmoq)	Gulzorga (kirmoq)
Devorda (ko‘rmoq)	Oshxonaga (kirmoq)
Gulzorda (uchrashmoq)	Ayvonga (chiqmoq)
Oshxonada (ovqatlanmoq)	Hovliga (chiqmoq)
Ayvonda (o‘tirmoq)	Devorga (osmoq)

Video: Bir oilaga tegishli bo‘lgan uy tasviri ekranda paydo bo‘ladi. Tasvirda hovli, ayvon, yotoqxona, hojatxona, zina, tom, devor, gulzor, hammom, oshxona, bolalar xonasi, yo‘lak ko‘rsatib o‘tiladi.

Video asosida 1-topshiriq bajariladi. Zanjir usulida o‘qitiladi. Matn asosida o‘quvchilar o‘z uylari haqida so‘zlab beradilar. O‘quvchilarga quyidagi savollarni berish orqali nutqiy mavzu mustahkamlanadi:

Uyingiz qaysi ko‘chada joylashgan bilasizmi?

Sizning uyingiz qanday?

Uyingizda nechta xona bor?

Sizning xonangizda nimalar bor? Tasvirlab bering.

Uyingiz doim ozoda bo‘lishi uchun nimalar qilasiz?

Shu jarayonda 1-mashq bajariladi. Rasm asosida berilgan savol-larga javob beradilar.

Lug‘at bilan ishlash.

«Xotira mashqi». Matn yuzasidan berilgan lug‘at o‘quvchilar tomonidan o‘qiladi. O‘qib bo‘lingach, o‘qituvchi o‘quvchilarning qay darajada eslab qolganliklarini og‘zaki so‘raydi. Eslab qolgan so‘zlarini o‘quvchilar lug‘at daftarlariiga yozadilar.

Uyimiz	Dahliz
Mehmonxona	Yuvinish xonasi
Xonodon	Ayvon
Bolalar xonasi	Jihoz
	Yoqadi

Keyingi bosqichda «**Xatoni tuzatamiz**» didaktik o‘yini o‘tkaziladi. O‘quvchilar slaydda ko‘rsatilgan lug‘atdagi xatolarni tuzatib, javobini o‘z o‘rniga qo‘yib yozadilar.

keng – визит

ozoda – дежурный

osilgan – просторный

navbatchi – чистый

Darslik bilan ishlash.

2-topshiriq og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar Adham Rahmatning «Mehmonga keling» nomli she’rini zanjir usulida o‘qiydilar. Quyidagi savollar asosida she’r mustahkamlanadi.

She’r nima haqida ekan?

Uyning to‘ri sizniki deganda nimani tushunasiz?

She’rda yana nimalar haqida aytilgan?

Lug‘at bilan ishlash. Slayd. Slaydda she’rga berilgan lug‘atdagi so‘zlar aralashtirib beriladi. O‘quvchilar tarjimasini lug‘atdan topib daftarlariiga yozadilar.

Guruhlarda ishslash. O‘quvchilar 4 guruhga ajraladilar. 2-mashqdagi maqollar 4 guruhga bittadan beriladi. Guruhlardan mazmunini sharhlab berishlari lozim. To‘g‘ri va batafsil sharhlagan guruh g‘olib sanaladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Interaktiv mashq (test):

1. O‘quvchilardan sichqoncha yordamida kataklarni birlashtirish orqali mavzuga mos so‘zlarni topish topshirig‘i beriladi.

m	n	x	o	n	a	h	l
e	o	o	n	a	d	a	i
h	m	x	o	n	a	n	z
x	a	sh	x	q	o	o	a
o	n	o	y	o	t	v	y

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtiroy etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish. 3-topshiriqdagi she’rni yod olish.

8-dars. UYIMIZ

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: Mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab gaplar tuzish, shu mavzuda berilgan gaplarning tallafuzi va yozilishi bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash; x va h tovushlarining talaffuzi va yozilishini o‘rgatish;

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarni Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish; oilada, jamiyatda muomala odobi, ularda insonparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi: o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi va mustahkamlash.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishlash.

Dars johozi: darslik, AKT, sinf xonasi aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *uyimiz, hovli, bir qavatli, ayvon, yotoqxona, hojatxona, zina, tom, devor, gulzor, hammom, oshxona, bolalar xonasi, yo‘lak, yashamoq, tepada, yonida, yoqmoq, joylashmoq.*

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- davommatni aniqlash;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Slayd. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib talaffuz qiling.

1. Uyimiz
2. Nechanchi uyda ?
3. Uyimizda va .. .
4. Uyimizda gullar

O‘quvchilar slaydda berilgan muomala odobiga oid gaplarni nuqtalar o‘rnini to‘ldirib davom ettiradilar.

- Iltimos,
- Iltimos,
- Iltimos,
- Rahmat,

1-mashq. O‘quvchilar savollarga javob beradilar.

III. Yangi mavzuning bayoni. X tovushi tilning eng orqa qismidan sirg‘alib chiquvchi undosh bo‘lib, nisbatan qattiq talaffuz qilinadi.

H tovushi esa bo‘g‘izdan sirg‘alib chiqadi va yumshoq aytildi.

Qiyoslang:

shox— shoh, xol —hol, xalta —halqa.

X va h tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qiling! O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda so‘zlarni talaffuz qiladi.

xona	hovli
xontaxta	dahliz
xizmat	hurmat
dasturxon	hashamatli
ixcham	ishtaha
oshxona	mahalla

Darslik bilan ishlash. 2-mashq. O‘quvchilar sinf doskasida ik-kitadan bo‘lib bajaradilar. Nuqtalar o‘rniga x va h harflaridan mosini qo‘yib so‘zlarni o‘qiydilar va yozadilar.

Matn bilan ishlash. 3-mashq. O‘quvchilar «Sen yashaydigan uy» matnni zanjir usulida o‘qiydilar. Matn ichida kelgan savollarga javob beradilar. X va h undoshlari ishtirot etgan so‘zlarni daftarlariiga yozadilar. Matn quyidagi savollar asosida mustahkamlanadi.

1. Siz qanday uyda yashaysiz?
2. Ko‘p qavatli uylardami yoki hovlida?
3. Uyimiz atrofi, uyimiz ozoda bo‘lishi uchun nimalar qilishimiz kerak?
4. Ozoda so‘ziga yaqin ma’nodosh so‘zlarga misollar keltiring.

Lug‘at bilan ishlash. «Xotira mashqi». Matn yuzasidan berilgan lug‘at o‘quvchilar tomonidan o‘qiladi. O‘qib bo‘lingach, o‘qituvchi o‘quvchilarning qay darajada eslab qolganliklarini og‘zaki so‘raydi. Eslab qolgan so‘zlarini o‘quvchilar lug‘at daftarlariiga yozadilar.

Ko‘p qavatli Atrof Ko‘rkam Xohlamoq	Yo‘lak Chiqindi Maxsus Beparvo Ta’sir
--	---

III. Yangi mavzuni mustahkamlash. 2-topshiriq. O‘quvchilar savol-larga javob bergan holda suhbatni davom ettiradilar.



Interaktiv mashq.

1. Ekranda ustunning ikki tomoni tasvirlanadi. Bir tomonida gap, boshqa tomonida so‘zlar beriladi. O‘quvchilardan gapni topish topshirig‘i beriladi.

Soviy, boshladi, havo.

Alisher, yasadi, qayiq,
qog‘ozdan

O‘qiydi, baholarga, a’lo,
Rahmatulla.

Havo soviy boshladi.

Alisher qog‘ozdan qayiq yasadi.

Rahmatulla a’lo baholarga o‘qiydi.

IV. O‘quvchilarni baholash. O‘quvchilar darsdagi faol ishtirokiga ko‘ra rag‘batlantiriladi va baholanadi.

V. Uyga vazifa berish. 3-topshiriqdagi topishmoqni yod olish.

9-dars. BOG‘DA

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: Mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, hisob so‘zlarini nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab gaplar tuzishga o‘rgatish;

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o‘zaro mulo-qotda muomala madaniyatiga amal qilish, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik kabi sifatlarni shakllantirish.

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishlash.

Dars jihizi: darslik, AKT, bog‘ tasviri, mevalar aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar; multimedia vositasi.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *bog‘, dala, hovli, daraxtlar, olma, uzum, anor, nok, ko‘chat, shirin, achchiq, bog‘bon, shirin, mazali, achchiq, suvli, suvsiz, parvarish qiladi, sug‘oradi, o‘tqazadi, teradi.*

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomatini aniqlash;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyda mavjud bo‘lgan uy jihozlari tasvirlangan rangli, rasmli kartochkalar har bir o‘quvchiga tarqatiladi. O‘quvchilar rasmga qarab jihozning nomini aytadilar va bittadan gap tuzadilar.

III. Yangi mavzuning bayoni.



Video: Tasvirda qator bog‘lar tasvirlanadi. Tasvir vaqtida mayin kuy bilan quyidagi she‘r o‘qiladi.

Bog‘lar tasviri aks etgan videorolik asosida nutqiyl mavzu tu-shuntiriladi. Shu jarayonda 2-topshiriq «Bog‘da» matni bilan ishlarnadi. O‘quvchilar matnni zanjir usulida o‘qiydilar. Quyidagi savollar asosida mavzu mustahkamlanadi.

1. Bog‘da nimalar pishadi?
2. Bog‘ga borganmisiz?
3. Mevalarga nimalar kiradi sanang.
4. Mevalar va sabzavotlarning farqli tomonlarini izohlang.
5. Bog‘da o‘zingiz ham meva terganmisiz?
6. Qancha meva tergansiz?
7. Bog‘dagi daraxtlarni kim parvarish qiladi?
8. Bog‘bon qanday ishlarni qiladi?
9. Nima uchun bog‘larni asrash kerak.

Lug‘at bilan ishslash. «Xotira mashqi». O‘quvchilar lug‘atni o‘qiydilar. O‘quvchilarga o‘qigan lug‘atlarini eslab qolish topshirig‘i beriladi. Kitobni yopib, o‘quvchilar eslab qolgan so‘zlarini lug‘at daftariga yozadilar.

Qishloq

Bog‘

Parvarish

Totli

Darslik bilan ishslash.

1-mashq. O‘quvchilar ikkitadan bo‘lib sinf doskasida bajaradilar. Gaplarni o‘qiydilar. Qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni yozadilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.



Guruhlarda ishlash. Animatsiya

Ekranda qator mevali daraxtlar tasviri paydo bo‘ladi. Daraxt ustiga sichqoncha tugmasini bosish bilan ustiga daraxtning nomi yoziladi hamda shu mevaga tegishli bo‘lgan sher aytildi.

Anvar Obidjon

Uzum	Anjir
Donalarim	Kecha-kunduz
Marjoncha.	Uxlamay,
Bir boshim-	Meva turgim
Naq bir jomcha.	Gullamay.
Quritsangiz,	Mevam o‘zi
Mayizman.	Gulchadir.
Dasturxonga fayzman.	Tillo rangli
Kuzda	Kulchadir.
Yeb-yeb to‘yishar.	G‘o‘daymayman,
Qishga osib qo‘yishar.	Sipoman.
Boqar shod	Ko‘p dardlarga shifoman.
Yosh-qarilar.	Meni yesa
Maqtar hatto	Mutallib,
Arilar.	Yurmas edi
	Yo‘talib.

O‘rik	Nok
Tanishaylik,	Qayda
O‘rikman.	Salqin havodir,
G‘aynoliga	Tan-jonimga
Sherikman.	Davodir.
Yeging kelsa	Mevalarim
Ko‘k g‘o‘ra,	Qand-bollik,
Bahor chog‘ida	Qilmasang bas
So‘ra.	Qo‘pollik.
Yozda esa	Uzgan choqda
Pishaman.	Kulib ol.
Qo‘rqma,	Pishganimni
O‘zim tushaman.	Bilib ol.
Xohlasang,	Kimki otsa
Ye mag‘zingni.	Menga tosh,
Qani.,	Dunyoda u-
Och-och og‘zingni...	Eng xumbosh.

Shaftoli	Gilos
Men turaman	Bir qiz,
Bukib shox.	Boldoq qilay deb,
Kamtarinman	Qulog‘imga
Va yumshoq.	Ilay deb,
Shundan hamma	Qo‘sh mevamni

Shirin der, Uzib olay Birin der. Bolakaylor Chug‘irlab, Meni bog‘dan O‘g‘irlab, Qo‘yinlarga Urishar... So‘ng Qichinib yurishar.	Uzvoldi. Uyqumniyam Buzvordi. Qarab tursam Ortidan, Bir chekkaga Bordi-da, Har ikkala «Boldoq»ni- Yeb qo‘ydi-ya... Aldoqchi!
---	---

Anor	Olma
Har donacham	Mikrofonni
Bir askar.	Baland tut.
Bir qal‘ada	Men so‘zlay,
Ming lashkar.	Sen so‘lak yut.
Ular yotar	Alang-jalang
Panada-	Kuzatma.
Oq pardali	Besh panjangni
Xonada.	Uzatma.
Xonalar tinch,	Ko‘pning
Atrof jim.	Ko‘zin kuydirgan,
Qal‘achani	Qornini ham
Buzsa kim,	To‘ydirgan
Boshlanadi	Menman o‘sha
To‘polon	Naqsh olma...
Va to‘kilar	Endi
Yana qon.	Yo‘lingdan qolma!

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. «Maktab bog‘i» mavzusida 3-4 ta gap tuzish.

10-dars. BOG‘DA

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: «Bog‘da» mavzusidagi tayanch so‘zlar, hisob bildiruvchi so‘zlarning ifodalaniishi, shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qish, topshiriqlarni yozishga o‘rgatish va mustahkamlash.

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o‘zaro mulo-qotda muomala madaniyatiga amal qilish, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik kabi sifatlarni shakllantirish.

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi va mustahkamlash.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat, «To‘g‘ri toping va talaffuz qiling», «Ha, yo‘q» o‘yini.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jahozi: darslik, AKT, poliz tasviri, poliz mahsulotlari aks et-gan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar; multimedia vositasi.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *bog‘, dala, hovli, daraxtlar, olma, uzum, anor, nok, ko‘chat, shirin, achchiq, bog‘bon, shirin, mazali, achchiq, suvli, suvsiz, parvarish qiladi, sug‘oradi, o‘tqazadi, teradi*

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomati aniqlanadi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Slaydda quyidagi topshiriq beriladi. Qavs ichida berilgan so‘zlarni o‘zbek tiliga o‘girib yozing. Bu (персик). Bu (красный) olma. Bu (черешня). Bu (виноград). Bu (слива). Berilgan topshiriqni to‘g‘ri va tez bajargan o‘quvchi g‘olib sanaladi.



Animatsiya: Interaktiv mashq

Ekranda gaplar beriladi. Quyidagi tovush orqali topshiriq sharti tushuntiriladi.

Qavs ichida berilgan yaqin ma’noli so‘zlardan mazmunga mosini tanlab, maqollarni yozing.

1. Do‘s^t (so‘zini, gapini) tashlama,
Tashlab, boshing qashlama.
2. Do‘s^{ting} (ming, bir) bo‘lsa ham – oz,
Dushmaning (bir, ming) bo‘lsa ham – ko‘p.
3. Olim bo‘lsang, (olam, jahon) – seniki.
4. Bilim (davlatdan, boylikdan) ham qimmat.
5. Vatan qadrini bilmagan
(O‘z, o‘zga) qadrini bilmas.

«To‘g‘ri toping va talaffuz qiling!» o‘yini. O‘qituvchi o‘quvchilarga mevali daraxtlarning nomlari yozilgan kartochkalarni tarqatadi. O‘quvchilar kartochkaga qarab poliz mahsulotlarini topadilar va talaffuz qiladilar.

III. Yangi mavzuning bayoni. Slayd asosida grammatick mavzu hisob so‘zlarning ishlatalishi talaffuzi tushuntiriladi.

O‘zbek tilida narsalarning o‘lchovini ifodalash maqsadida sanoq sonlar bilan birga hisob bildiradigan so‘zlar ham qo‘llanadi.

Masalan: ikki dona olma, uch yashik uzum, bir piyola choy, olti kilogramm gilos.

Darslik bilan ishlash.

1-topshiriq og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar rasm asosida berilgan hisobni bildirgan so‘zlardan mosini tanlab gaplar tuzadilar.

1-mashq. O‘quvchilar zanjir usulida gaplarni o‘qib, hisobni bildirgan so‘zlarni aniqlaydilar. Hisobni bildirgan so‘zlarni daftarlarga yozadilar.

2-mashq og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar suhbat matnini nuqtalar o‘rniga hisobni bildirgan so‘zlarni qo‘yib o‘qiydilar.

Matn bilan ishlash. O‘qituvchi «Bog‘i Boburiy» matnini ifodali o‘qib beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga matndan bog‘, daraxt, mevalarning nomi, qovun so‘zlarini topib gaplarni o‘qish topshirig‘ini beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning eshitib tushunganlari yuzasidan suhbat tashkil etadi.

1. Kim Hindistonga boribdi?
2. Hindiston qanday shahar ekan?
3. Boburshoh Hindistonda nima qilibdi?
4. Bog‘ga nimalar ekibdi?
5. Boburshoh nimani yaxshi ko‘rar ekan?
6. Boburshoh nima uchun xafa bo‘libdi?
7. Boburshohga nima olib kelishibdi?
8. Bog‘bon Boburshohga nima debdi?

Lug‘at bilan ishlash. «Xatosini tuzat» o‘yini. O‘quvchilar matn asosida berilgan lug‘atni o‘qiydilar va eslab qoladilar. O‘quvchilar kitoblarini yopadilar. O‘qituvchi slaydda aralashtirilgan holda xato berilgan lug‘atlarni ko‘rsatadi. O‘quvchilar lug‘atda berilgan so‘zlarni tuzatib o‘qiydilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. «Xotira mashqi». Oltita so‘z o‘qib beriladi va o‘quvchilar yodda saqlab qolganlarini yozadilar.

Namuna: sabzavot, meva, bozorda, yaxshi ko‘radi, sotib olyapti, yeyapti.



Interaktiv mashq.

Topishmoq beriladi. Ovoz orqali topishmoqlar o‘qiladi. O‘quvchilar javoblarini ekrandagi tasvirlangan rasmlardan topishlari kerak bo‘ladi.

1. Ko‘z uzolmay quyoshdan

Toblanadi bir lagan.

O‘sha lagan ichida

Mag‘iz, saryog‘ to‘plangan. (Kungaboqar)

2. Yer tagida xo‘p inoq,

Yetildi to‘p-to‘p yong‘oq.

Mazasi yog‘li qaymoq,

Ishonmasang chaqib boq! (Yeryong‘oq)

3 Tukdan parda yuzida,

Pishar o‘lkam kuzida.

Xushbo‘y hidli, tillarang,

Ko‘ngil uchun bir qarang.

Har biri kosadek u.

Mazali, lekin kamsuv.

Pishsa, yorilar zehi,

Buning nomimi....(behi)

4.Tuzilishi danakday,

Teshigi bor elakday.

Mag‘izin sevar bobom,

Nima ekan bu? (bodom)

5.O‘zi shirin tukligina,

Mazasi ham totligina. (shaftoli)

III. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

IV. Uyga vazifa berish. Berilgan savollarga 2-topshiriqdagi matn asosida javob berish.

11-dars. KUZGI ISHLAR

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: Mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri taffuz qilishga, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab gaplar tuzishga, ko‘plik sondagi shaxs-son qo‘shimchalari ishlatalishi, shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qish, topshiriqlarni yozishga sh tovushining yozilishi va talaffuzini o‘rgatish.

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioya q‘ilish, o‘zaro mu-loqotda muomala madaniyatiga amal qilish, halollik, to‘g‘rilik mehnatsevarlik kabi sifatlarni shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol, aqliy hujum, suhbat, «So‘z top».

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jahozi: darslik, AKT, kuz fasli aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositasi.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *kuzgi, hosilni yig‘adilar, hosil bayrami, havo, daraxtlar, barglar, poliz, sabzavotlar, qovoq, behi, kartoshka, sholg‘om, sabzi, tayyorgarlik, issiqxonha, ombor, sarg‘ayadi, to‘kiladi, soviydi, yig‘ib olinadi, haydaydilar, tekislaydilar.*

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomatini aniqlash;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan mevali daraxtlar, bog‘ mavzusiga oid rangli kartochkalar asosida suhbat tashkil etadi. O‘qituvchi kartochkalarni ko‘rsatadi va savol beradi. O‘quvchi savolga to‘liq javob berishi kerak. O‘quvchi javobini sinf doskasiga yozadi.

Namuna: Mana bu nima? — Bu daraxt

Bu qanday daraxt? — Bu mevali daraxt

Qanday meva beradi? — Shaftoli mevasi

Ana u nima? – O‘rik.

O‘rik daraxtining gullaganini ko‘rganmisiz? – Ha, o‘rik daraxti pushti rangda gullaydi.

Bu-chi? – Bu bog‘ tasviri.

III. Yangi mavzuning bayoni. Slayd asosida grammatik mavzu tushuntiriladi.

Ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilishi, ya’ni shaxs ko‘plik -lar, -dilar, -sinlar qo‘sishchalar bilan ifodalanadi.



Interaktiv mashq.

Ekranda katakchalar va gapning qolgan qismi berilgan bo‘ladi. Ekranning pastki qismida foydalanish uchun so‘zlar beriladi. O‘quvchilar sichqoncha tugmachasi yordamida so‘zlarni joyiga qo‘yishlari kerak bo‘ladi.

--	--	--	--	--

..... mevalar g‘arq pishadi.

.... va Vatan bizniki.

Bilim Keltirar.

Yolg‘onchining so‘zi ham

.... davlatdan ham qimmat.

Foydalanish uchun so‘zlar: Kuzda, baxt, ozod, obod, rost, yolg‘on, bilim.

Slayd. O‘qituvchi slayd asosida sh tovushining talaffuzi va yozilishini tushuntiradi. S va h harflarining birikishidan hosil bo‘lgan sh undoshi tilning oldingi qismidan sirg‘alib chiqadi va yumshoq talaffuz qilinadi. Ammo tilning orqa qismida hosil bo‘ladigan unli va undoshlar bilan yonma-yon kelganda qattiq aytildi.

Qiyoslang: shamol—shox, shirin —qishloq.

Darslik bilan ishlash.

2-mashq. Sinf doskasida ikkitadan o‘quvchi chiqib bajara-di. O‘quvchilar gaplarni o‘qib, -di, -dilar qo‘sishchalarini olgan so‘zlarni topib yozadilar.

1-mashq. Foydalanish uchun berilgan so‘zlardan foydalanib, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni yozadilar.

«O‘qing va to‘g‘ri talaffuz qiling!»

shahar	sholi
shakar	yumshoq
shamol	qo‘sishiq
ishla	xashak
pishdi	qush
mashhur	qoshiq
shudgor	sho‘x

2-topshiriq. «Bug‘doy» matnini o‘quvchilar zanjir usulida ifodali o‘qiydilar. Matndan sh harfi bo‘lgan so‘zlarni topib shu so‘zlarni talaffuz qiladilar. Matn asosida savollarga javob beradilar.

Bug‘doy qachon ekiladi?

Bug‘doy qanday rangda?

Bug‘doydan nimalar tayyorlanadi?

Bug‘doy qachon pishib yig‘ib olinadi?

Lug‘at bilan ishlash. O‘quvchilar lug‘atni birgalikda o‘qiydilar. Ularga lug‘atda berilgan so‘zlardan 3 tasini yozish topshirig‘i beriladi.

Boylit-	Yer ostida-
Ekmoq-	Unmoq-
Shudgor-	Boshqoq-
Tegirmon-	Yig‘ish-

Slaydda berilgan chap ustundagi so‘zlarga o‘ng ustundan mos keladiganlarini topib, so‘z birikmalarini tuzing. Hosil bo‘lgan so‘z birikmalaridan gaplar tuzing.

kuz boshlanadi

barglar soviydi

yig‘im-terim keldi

o‘qish sarg‘ayadi

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

«So‘z top» o‘yini.

O‘qituvchi: – Bolalar, kelinglar, Sh harfiga so‘z topamiz.

O‘qituvchi boshlab beradi: shudring, sholg‘om, ...,

O‘quvchilar davom ettiradilar.



Interaktiv mashq

O‘quvchilardan sichqoncha yordamida kataklarni birlashtirish orqali mavzuga mos so‘zlarni topish topshirig‘i beriladi.

T	u	z	m	e	r
e	k	h	o	v	a
r	i	m	s	a	l
b	o	g'	i	l	q

IV. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

V. Uyga vazifa berish. «Oltin kuz» she’rini yod olish.

12-dars. KUZGI ISHLAR

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy maqsad: Mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab gaplar tuzish, ko‘plik sondagi shaxs-son qo‘sishchalarini ishlatilishi, shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qish, topshiriqlarni yozishga sh tovushining yozilishi va talaffuzini mustahkamlash.

b) tarbiyaviy maqsad: odob-axloq qoidalariga rioxha qilish, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, to‘g‘rilik, mehnat-sevarlik kabi sifatlarni shakllantirish.

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish.

Dars turi: mustahkamlash.

Dars metodi: interfaol, aqliy hujum, suhbat, «Xatosini top va tuzat», «Farqini toping», «Xotira» mashqi.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishlash.

Dars jihizi: darslik, AKT, kuz fasli aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositasi.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *kuzgi, hosilni yig‘adilar, hosil bayrami, havo, daraxtlar, barglar, poliz, sabzavotlar, qovoq, behi, kartoshka, sholg‘om, sabzi, tayyorgarlik, issiqxona, ombor, sarg‘ayadi, to‘kiladi, soviydi, yig‘ib olinadi, haydaydilar, tekislaydilar.*

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomatini aniqlash;

— o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.



Test:

1. Mevali, mevasiz, shirin, mazali, oq, pushti so‘zlari ni-maning belgisini bildiradi?

A. Daraxtning.

B. Suvning.

C. Gulning.

2. Barcha so‘zlar to‘g‘ri yozilgan qatorni toping.

A. Tuproq, shahar, oftob.

B. Mehr, tuproq, ozot.

C. Opok, bahor, hosil.

3. Oxirida t yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.

A. Obo., avlo., ajdo. .

B. Oda., bax., tax. .

C. Darax., ozo., umi. .

Guruhlarda ishlash. Guruhlarga sh harfi qatnashgan va qatnashmagan rangli rasmlı kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar rasmiga qarab talaffuz qiladilar. Sh harflari qatnashgan so‘zlarni topadilar va yozadilar. Topshiriqni birinchi bajargan guruh g‘olib sanaladi.

Darslik bilan ishlash. 1-topshiriq. *Suhbat matnini o‘quvchilar o‘qiydilar va davom ettiradilar.*

1-mashq. Sinf doskasida ikkitadan o‘quvchi bajaradi. Rasmlar asosida nima qiladilar? Savoliga javob bo‘ladigan fe’llarni topib gaplarni yozadilar.

Matn bilan ishlash. 2-topshiriq. «Kuzgi shudgor» matnini o‘quvchilar zanjir usulida o‘qiydilar. Matnning birinchi va ikkinchi gapini tarjima qiladilar. Chap ustundagi so‘zlarning tarjimasini, o‘ng ustundan topib tarjima qiladilar. O‘ng ustunda so‘zlar aralashgan holda berilgan.

<i>Qishlog‘imizning ekin maydoni katta. U yerlar kuzda haydar qo‘yiladi.</i>	<i>Большой, осенний,</i>

Quyidagi savollar asosida matn mustahkamlanadi.



Audio. Valijon Ahmadjonning «Soz bo‘ldi» she’ri eshittiriladi.

Kuz kelgani soz bo‘ldi,

Omborlar donga to‘ldi.
Pishdi shirin mevalar,
Tatib ko‘ngil chog‘ bo‘ldi.
Bobodehqon mehnati,
Ona-yerning himmati.
Chanoqdagi paxtalar
Osmon qadar tog‘ bo‘ldi.

Guruhlarda ishslash. «Xatosini top va tuzat» o‘yini. Guruhlarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda berilgan gaplarning xatosini o‘quvchilar topadilar va tuzatib yozadilar. Keyin bir o‘quvchi taqdimot qiladi.

Namuna: 1-guruh: Kuz faslida so‘ng kuz keladi. Bir yilda besh fasl bor. Oktyabr oyidan o‘quv yili boshlanadi. Bahor faslida qovoq pishadi.

2-guruh: Bahor faslida daraxtlar sarg‘ayadi. Kuz faslida daraxtlar gullaydi. Yoz faslida havo soviy boshlaydi. Qish faslida dehqonlar hosilni yig‘ishga kirishadilar.

III. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

IV. Uyga vazifa berish. Topishmoqlarni o‘qing va yod oling.

13-dars. KITOБ

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumلالарни to‘g‘ri taffuz qilishga, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab gaplar tuzishga, *haqida, to‘g‘risida* ko‘makchilari haqida ma‘lumot berish;

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioxha qilish, o‘zaro mu-loqotda muomala madaniyatiga amal qilish, mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish.

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat, «Fikr charxi», «Xotira mashqi».

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jihizi: darslik, AKT, oila tasviri aks etgan rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar; multimedya vositasi.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *kitoblar, kutubxona, she’rlar, ertaklar, qahramon, hikoya, kitob, do’st, bilim manbai, ko’p narsa, varaqlari, ehtiyyot kabi tayanch so‘zlar; rangli, rasmi, qiziqarli, yangi, o’qiymiz, yod olamiz, so’zlab beramiz, yirtmang, asrang, buklamang, o’rganamiz, ehtiyyot qiling.*

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomati aniqlanadi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Guruhlarda ishlash. Kuz faslida pishadigan meva va poliz ekinlari tasvirlangan rangli, rasmi kartochkalar tarqatiladi va o‘quvchilar meva va sabzavotlarni ajratib oladilar, so‘zlarni talaffuz qilib, shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzadilar. Tuzgan gaplarini guruh vakili o‘qib beradi. Namuna:

1-guruhgaga: Kuz faslida pishadigan mevalarni ajrating, talaffuz qiling va gaplar tuzing;

2-guruhgaga: Kuz faslida pishadigan poliz ekinlarini ajrating, talaffuz qiling va gaplar tuzing.

III. Yangi mavzuning bayoni.

Slayd. «Kutubxona» mavzusida videorolik yoki kutubxona tasvirlari aks etgan slayd ko‘rsatiladi. Shu asosda 1-topshiriq bajariladi. O‘quvchilar dialogni o‘qiydilar, so‘ngra o‘quvchilar bilan suhbat o’tkaziladi.

Kutubxonada nimalar bor?

Maktab kutubxonasiga kirganmisiz?

Kutubxonada qanday kitoblar bo‘ladi?

Kitob o‘qishni yaxshi ko‘rasizmi?

Oxirgi marta qanday kitobni o‘qidingiz?

Uyingizda ham kutubxonangiz bormi?

Bilib oling. Slayd. Nutqimizda biror shaxsga, predmetga ta’rif berilayotganda, haqida, to‘g‘risida so‘zlaridan foydalanamiz. Masa-lan: kutubxona to‘g‘risida. Onam haqida.

Slayd. So‘zlarni bir-biriga qo‘shib, to‘g‘risida, haqida so‘zları ishtirokida gaplar tuzing.

Maktab, magazin, joylashgan, hayvonlar, kitob o‘qidim, mult-film, suhbatlashdik, bahor haqida.

Darslik bilan ishlash.

3-topshiriq og‘zaki bajariladi. «Nonday aziz» matnini o‘quvchilar zanjir usulida o‘qiylilar, uning mazmuni asosida kitob haqida suhbatlashadilar. Quyidagi savollar asosida matn mustahkamlanadi. Shu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga turli mavzulardagi kitoblaridan namunalar ko‘rsatadi.

Kitob o‘qish orqali nimalarni o‘rganasiz?

Qanday ertak kitoblarni o‘qigansiz?

Kitobni qanday asrashimiz lozim?

Mana bu kitob o‘zbek xalq ertaklari, mana bunisi esa sarguzasht kitobi, bunisi hayvonlar ensiklopediyasi, «Nega, nima uchun?», «Dunyo bo‘ylab sayohat» kitoblari. Siz qaysi birini yoqtirib o‘qiysiz?

O‘zingiz ham ota-onangiz bilan kitob sotib olasizmi?

Lug‘at bilan ishlash. «Xotira mashqi» o‘yini. O‘quvchilar lug‘atni takrorlaydilar va eslab qolganlarini daftarlaraiga yozadilar.

Kitob

Muqaddas

An’ana

Hikmatli

2-mashq sinf doskasida yozma bajariladi. O‘quvchilar ustunlardagi so‘zлarni bog‘lab, o‘qiylilar va savollarga javob yozadilar.

2-topshiriq. O‘qituvchi Qudrat Hikmatning «Kitob» she’rini ifodali o‘qib beradi. So‘ngra o‘quvchilar zanjir usulida o‘qiylilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Interaktiv mashq.

Ushbu interaktiv mashqda o‘quvchilar ikkita jadvalni bir-biriga moslashlari lozim bo‘ladi. Moslashtirishda sichqoncha tugmasini bir jadvaldan ikkinchi jadvalga olib borib moslashtiriladi. Masalan:

Go‘sht, banan, sut, non	Sog‘lik
Kitob, maktab, kutubxona	Ta’lim, iltifotli so‘z
Yod, bint, dori	Uyqu
Teatr, o‘yinchoq, to‘p	Oziq-ovqat
So‘k, choy, suv	Chanqoq
Krovat, yostiq, divan	Issiqlik
Batareya, olov,	Axborot
Rahmat, kechirasiz, iltimos	Xavfsizlik
Gazeta, kitob, radio	Tarbiya
Protivogaz, seyf, ognotushitel	Ko‘ngil ochish

«Fikr charxi» o‘yini. O‘quvchilarga yaxshi ko‘rib o‘qigan yoki eshitgan ertaklari haqida qisqacha ma’lumot yozish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar quyidagi jadvalni to‘ldiradilar. Har bir o‘quvchi o‘zining yozganini o‘qib beradi.

Ertakning nomi-

Ertak qahramonlari-

Mazmuni, nima haqida ekanligi -

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. 3-topshiriqdagi matnga savollar tuzish.

14-dars. KITOB

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: «Kitob» mavzusidagi tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilishni, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab gaplar tuzishni, -gan qo‘srimchasining birlik sonda tuslanishini o‘rgatish, nutqiy mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, shaxsiy rejalarini tuzish; odob-axloq qoidalariiga rioya qilish, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish kabi sifatlarni shakllantirish.

d) rivojlanuvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlanтирish, lug‘at boyligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, mustahkamlash.

Dars metodi: interaktiv metod, aqliy hujum, suhbat, «Xotira» mashqi, «Zehnlilar» o‘yini.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jihizi: darslik, AKT, kun tartibiga oid rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Nazorat usuli: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *kitoblar, kutubxona, she’rlar, ertaklar, qahramon, hikoya, kitob, do’st, bilim manbai, ko‘p narsa, varaqlari, ehtiyyot, rangli, rasmi, qiziqarli, yangi, o‘qiymiz, yod ola-*

miz, so 'zlab beramiz, yirtmang, asrang, buklamang, o'rganamiz, ehti-yot qiling

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

– o'quvchilarning davomati aniqlanib, darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Guruhlarda ishlash. O'quvchilar uch guruhgaga bo'linib ishlashadi. O'qigan ko'rghan asar qahramonlarini yozish topshirig'i beriladi. Ko'p yozgan guruh g'olib sanaladi.

III. Yangi mavzuning bayoni. Slayd yordamida grammatik mavzu tushuntiriladi.

Ancha ilgari bo'lib o'tgan harakatni bildirish uchun -gan qo'shimchasidan foydalanamiz.

Masalan: Men bu kitobni o'qiganman.

Birlik:

I shaxs Men o'qi+gan+man

II shaxs Sen o'qi+gan+san

III shaxs U o'qi+gan

Ko'plik:

I shaxs Biz o'qi+gan+miz

II shaxs Siz o'qi+gan+siz

III shaxs Ular o'qi+gan+lar

Darslik bilan ishlash.

2-mashq shartiga ko'ra o'quvchilar gaplarni ko'chirib -gan qo'shimchasining tagiga chizadilar. Ikkita o'quvchi sinf doskasida bajaradi.

Matn bilan ishlash. 2-topshiriq. O'quvchilar matnni zanjir usulida o'qiydilar. Matn quyidagi savollar bilan mustahkamlanadi.

1. Kitob do'st, kitob yo'l ko'rsatuvchi, kitob o'qituvchi deganda nimalarni tushunasiz, izohlang.

2. Kitobni qanday saqlash lozim.

3. Kitob o'qishni yaxshi ko'rasizmi.

4. Ota-onangiz bilan qachon kitob sotib oldingiz.

Lug'at bilan ishlash. Lug'at yuzasidan «Xotira mashqi» o'yini o'tkaziladi. Bunda o'quvchilarga lug'atni o'qish va eslab qolish

topshirig'i beriladi. O'qituvchi o'quvchilardan lug'atni og'zaki o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha shaklda so'raydi.

3-topshiriq. Miraziz A'zamning «Kitob nima desalar» she'rini zanjir usulida o'qiydilar. She'rning mazmuni yuzasidan quyidagi savollar bilan mustahkamlanadi.

1. She'rning mazmuni nima haqida ekan?
2. Kitob bu kon deganda nimani tushunasiz?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. «Zehnlilar» o'yini. O'quvchilarga slaydda quyidagi so'zlar beriladi. Chap ustundagi so'zlarga o'ng ustundagi so'zlardan mosini topib, so'z birikmalarini hosil qiladilar va sinf doskasida yozadilar.

Kitoblar, kutubxona, ertaklar rangli, she'rlar, rasmlari, kitob, qiziqarli, qahramon, ko'p narsa, yangi	varaqlari, yirtmang, asrang, buklamang, so'zlab beramiz, ehtiyyot qiling, bilim manbai, ehtiyyot, do'st o'qiyimiz, yod olamiz, o'reganamiz
---	--

V. O'quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish. O'zi yoqtirgan kitob haqida so'zlab berish.

15-dars. BOZORDA

Darsning maqsadi:

a) ta'limi: «Bozorda» mavzusiga oid tayanch so'zlar va jumlalarini to'g'ri talaffuz qilishga, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so'zlar bilan qo'llab gaplar tuzishga o'rgatish;

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioxal qilish, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, to'g'rilik kabi sifatlarni shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko'nikmasini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat, «Xotira mashqi» o'yini.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jahozi: darslik, AKT, kun tartibiga oid rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar; multimedya vositasi.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *bozor, sotuvchi, xaridor, sabzavotlar, ko‘katlar, quruq meva, yong‘oq, yeryong‘oq, qancha, narx, arzon, qimmat, necha pul, necha dona, necha so‘m, ko‘rsating, tortib bering* kabi tayanch so‘zlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomati aniqlanadi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. Aqliy hujum. O‘quvchilarga slaydda quyidagi topshiriq beriladi. O‘quvchilar topshiriqni o‘qiydilar va javob beradilar.

Agar sizga tanlash imkoniyati berilsa qaysi birini sotib olgan bo‘lar edingiz? Bittasini tanlang.

Kitob

Muzqaymoq  sotib olmoq

Shokolad

O‘qituvchi har bir o‘quvchidan so‘raydi va tanlaganlarini daftarlariiga yozishlarini so‘raydi.

III. Yangi mavzuning bayoni.

Bozor mavzusida videolavha ko‘rsatiladi. Hozirdagi zamonaviy bozorlar ko‘rinishi tasviri paydo bo‘ladi va quyidagi izoh beriladi. Bozor – savdo-sotiq qilinadigan joy. Har bir mamlakatda, uning shahar, qishloq markazlarida, gavjum joylarida bozorlar bo‘ladi. Bozorlarda nimalar sotilishiga qarab ularga nom berilgan: qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori, yoyma bozori, mol bozori, ko‘chat bozori, mashina bozori.

Videolavha asosida 1-topshiriq bajariladi. O‘qituvchi matnni o‘qib beradi. So‘ngra o‘quvchilar zanjir usulida o‘qiydilar. Quyidagi savollar asosida mavzu mustahkamlanadi.

Rasmida nimalarni ko‘rayapsiz?

Bu qaysi bozor ekan?

Yulduz kim bilan qoldi?

Yulduz buvisi bilan nima tayyorlamoqchi?

Bozorga kim boradigan bo‘ldi?
Yulduzning buvisi qanday maslahat berdi?
Yulduz bozordan nimalar olishi kerak?

Lug‘at bilan ishslash. «Xotira mashqi» o‘yini. O‘quvchilarga darslikda berilgan lug‘atni o‘qish va eslab qolish vazifasi beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan lug‘atni og‘zaki zanjir usulida o‘zbekcha va ruscha variantda aralashtirib so‘raydi va o‘quvchilarning so‘zlarni eslab qolish darajasini aniqlaydi.

Darslik bilan ishslash.

3-mashq shartiga ko‘ra ikkitadan o‘quvchi chiqib sinf doskasiда avval qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni o‘qiydilar, keyin yozadilar.

1-topshiriq. O‘quvchilar berilgan so‘zlardan foydalanib, gaplar tuzadilar va sinf doskasiga yozadilar.

1-mashq og‘zaki bajariladi. O‘qituvchi meva va sabzavotlar aks ettirilgan slaydni ko‘rsatadi. Slayd asosida o‘quvchilar namu nadagidek gaplar tuzadilar. Namuna: - Sizga bu olmagan necha kilogramm kerak?

– Menga bu olmaganne ikki kilogramm bering.

2-topshiriq ham og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar meva va sabzavotlarning nomini aytib, bozordan nimalardan qancha olganliklarini aytadilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mustaqil ish. O‘qituvchi Anvar Obidjonning «Qovun» nomli she’rini ifodali o‘qib beradi. So‘ngra o‘quvchilar ikki misradan zanjir usulida o‘qiydilar. Quyidagi savollar asosida mazmuni sharhlanadi.

She’r nima haqida ekan?
She’rdan qovunning nomini topping?
Qovun qachon pishib yetiladi?
Yana qanday qovunlarni bilasiz?
Qovunni yaxshi ko‘rasizmi? Nima uchun?
Qovunni qayerdan sotib olamiz?

Bozordan qovun olayotganingizda qovun qanday tanlanadi?
E‘tibor bergansizmi?

Lug‘at bilan ishslash. «Xotira mashqi» o‘yini. O‘quvchilar lug‘atni o‘qib chiqadilar. So‘ngra o‘quvchilardan lug‘at yoddan og‘zaki so‘raladi.

Qovun
Tishlamoq
Shirin
Xayol

Slayd. Chap ustunda berilgan so‘zlarga o‘ng ustunda berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib so‘z birikmalari tuzish va daftarga yozish.

shirin	oldik
sotib	qovun
katta	ajaratilgan
ko‘katlardan	berib yuboring
rastalar	bozor

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. «Qovun» she’rini yod oling.

16-dars. BOZORDA

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy: bozor, savdo-sotiq qilishga oid so‘zlar va savollarni, matnlarni tushunishga, savollarga javob berish, rasmlar asosida suhbatlashishga o‘rgatish;

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarni shakllantirish.

d) rivojlanuvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kundalik faoliyatida sanoq sonlarni o‘qish va foydalana olishni rivojlanuvchi, lug‘at boyligini boyitish;

Dars turi: yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat, klasster, «Kim topqir?» o‘yini.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jihizi: darslik, AKT, kun tartibiga oid rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar; multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: *bozor, sotuvchi, xaridor, sabzavotlar, ko‘katlar, quruq meva, yong‘oq, yeryong‘oq, qancha, narx, arzon, qimmat, necha pul, necha dona, necha so‘m, ko‘rsating, tortib bering, bordik, kilogramm, turli, bering* kabi tayanch so‘zlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomati aniqlanadi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilar sinf doskasida bozor mavzusiga oid muomala mu-rojaatlariga oid so‘zlarni klasster usulida yozadilar.

III. Yangi mavzuning bayoni. Bozorlar tasviri aks etgan videolavha ko‘rsatiladi. Videolavha asosida 2-topshiriq bajariladi. O‘qituvchi «Bozor» mavzusidagi matnni o‘qib beradi. O‘quvchilar zanjir usulida o‘qiydilar. Quyidagi savollar asosida matn mustahkamlanadi.

Bozorga borganmisiz?

Bozor qanday joyda joylashgan?

Bozorda nimalar sotiladi?

Bozor nima uchun kerak?

Bozorga kim bilan borgansiz?

Bozorga borishni yaxshi ko‘rasizmi? Nima uchun?

1-topshiriq. O‘quvchilar darslikda berilgan rasm asosida tayanch so‘zlardan foydalanib gaplar tuzadilar.

Lug‘at bilan ishlash. Slayd. Slaydda xato variantdagi lug‘at beriladi. O‘quvchilar darslikda berilgan lug‘at asosida xatolarni tuzatib yozadilar. Namuna: Rasta

Sotuvchi

Xaridor

Mahsulot

Quruq meva

Ho‘l meva

Eslab qoling. Belgini bildiruvchi so‘zlar slayd asosida tushuntiladi. Narsaning belgisini bildirgan so‘zlar qanday, qanaqa so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: qizil olma, shirin kulcha

Slayd. To‘g‘ri talaffuz qiling! O‘quvchilar slaydda ko‘rsatilagan so‘z birikmalarini jo‘r ovozda o‘qiydilar. So‘ngra qanday, qanaqa savoliga javob bo‘lgan so‘zlarni alohida savollari bilan birgalikda yozadilar.

Arzon mahsulot
Katta bozor
Sifatli quruq meva
Pishgan tarvuz
Shirin qovun
Mazali shirinliklar
Shirin uzum
Nordon anor

Darslik bilan ishlash.

1-mashq sinf doskasida yozma bajariladi. O‘quvchilar berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzadilar va sinf doskasiga yozadilar. Mashq birinchi og‘zaki bajarib olinadi. Har bir o‘quvchi o‘zi tuzgan gaplarni aytadi.

2-mashq. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni o‘qiydilar va sinf doskasida bajaradilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

«**Kim topqir?**» o‘yini. Slaydda ko‘rsatilgan so‘zlarga qanday, qanaqa, nima savollarini berib, shu savollarga javob bo‘lgan so‘zlarni ajratib jadvalga joylashtiring.

Namuna: olma, daftар, shirin, katta, bozor, rasta, keng, meva, sabzavot, chiroylı, kiyim-kechak,

Qanday, qanaqa?	Nima?


Interaktiv mashq

Krossvord beriladi. Krossvord javobi topishmoqlar javobi orqali topiladi va belgilanadi.

Eniga: 3. Qo'lsiz, oyoqsiz ko'yak kiyar.

4. Tarvuzim bor urug'siz,
Pichoq bilan kesilmas.
Kesganingda ham uni,
Maza qilib yeb bo'lmas.
5. Og'zi yo'g'-u, tishi bor,
Boshimizda ishi bor.
7. Singlimga o'xshar o'zi,
Aslo yumilmas ko'zi.
8. Toyim bor, kishnamaydi,
Yoz chog'i ishlamaydi.
9. Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.

Bo'yiga: 1.O'zi shirin
tukligina,
Mazasi ham totligina.
1. Sariqligi-zar, dedim,
Totib, asal-qand, dedim.
6.Pastakkina bo'yli,
Issiqina po'stinli.
9.Oyog'i yo'q—yuradi,
Og'zi yo'q—gapiradi.
11.Osti tosh, usti tosh,
O'rtasida jondor bosh.



V. O'quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish. Uyingiz yaqinidagi bozor haqida 3-4 ta gap tuzing.

17-dars. DO‘KONDA

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: «Do‘konda mavzusi **-dan qo‘shimchasi, qayerdan?** so‘rog‘ining ishlatalishi haqida ma’lumot berish; mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuzishga o‘rgatish;

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarni shakkantirish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, husnixat bilan yozish, kirishimlilik ko‘nikmasini rivojlantirish, lug‘at boyligini boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat, «O‘z o‘rnini top», «Kim topqir?».

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jihizi: darslik, AKT, mavzuga oid rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar; multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar do‘kon, ust kiyim, oyoq kiyim, ipak mato, paxtali, tugmali, yoqali, ko‘k rangli, kiyaman, yoqtiranman, yarashadi kabi tayanch so‘zlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarning davomati aniqlanadi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Slayd. Slaydda quyidagi topshiriqlar beriladi.

«Kim topqir?» o‘yini. Buning uchun «Bozorda» mavzusiga oid mahsulotlar tasvirlangan rangli rasmlı kartochkalar stol ustiga yoyib qo‘yiladi. O‘quvchilar navbat bilan kartochkalarni olib unda tasvirlangan mahsulotning nomini aytadilar va tayanch so‘zlar yordamida gap tuzadilar. Tayanch so‘zlar slaydda ko‘rsatib qo‘yiladi. Tuzgan gaplarini sinf doskasiga yozadilar. Namuna kartochka: kiyim bozori, oziq-ovqat bozori, mevalar, sabzavotlar, sutli mahsulotlar.

Tayanch so‘zlar: xarid qildik, sotib oldim, katta, shinam, yaxshi ko‘raman, uyimiz oldida, bozor, bor.

III. Yangi mavzuning bayoni.

Slayd asosida grammatik mavzu tushuntiriladi.

-dan qo‘srimchasi so‘zlarga qo‘shilganda predmetning kelib chiqish o‘rnini bildiradi. Bu so‘zlar kimdan, qayerdan, qachon so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Masalan: Nigora bozordan gul sotib oldi.

Salima do‘kondan keldi.

Slaydda ko‘rsatilagn so‘zlarni –dan qo‘srimchasini qo‘shib taffuz qiling.

Bozor  Do‘kon  dan keldi.
Maktab

Kitob do‘koni  Kiyim do‘koni  dan xarid qildim.
Oziq-ovqat do‘koni

Slaydda 3 ta gap beriladi. Bunda o‘quvchilarga so‘zlarga savol berish o‘rgatiladi. O‘quvchilarga namuna ko‘rsatiladi. Namunada berilgan gaplarni o‘qituvchi o‘quvchilar bilan og‘zaki o‘qib izohlaydi. O‘quvchilar namuna asosida keyingi ikkita gapni mustaqil og‘zaki bajaradilar.

Namuna:

Gulnoza do‘kondan gul sotib oldi.

↑
↓
Qayerdan?

Kecha do‘konga kirdim.

↑
↓
Qachon?

Sotuvchidan o‘yinchoqlarni tanlashimda yordam berishini iltimos qildim.

↑
↓
Kimdan?

Kitob do‘konidan qiziqarli ertak kitobini xarid qildim.

Akam bilan gul do‘konidan onam uchun rang-barang gullar xarid qildik.

Darslik bilan ishlash.

1-topshiriqni o‘qituvchi o‘qib beradi. O‘quvchilar zanjir usulida o‘qiydilar. 1-topshiriq shartiga ko‘ra lug‘atda berilgan so‘zlarni matndan topib, unga bog‘lanib kelgan so‘zlardan hosil bo‘lgan so‘z birikmalarini aniqlaydilar va daftarga ko‘chiradilar. «Do‘kon» mavzusi yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

Qanday do‘konlarni bilasiz?
Do‘konda nimalar sotiladi?
Do‘kon so‘zining tarjimasini ayting?
Do‘konda kimlar ishlaydi?
Do‘kondan o‘zingiz biron narsa xarid qilganmisiz?

Lug‘at bilan ishlash.

O‘quvchilarga darslikda berilgan lug‘atni o‘qish va eslab qolish vazifasi beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan lug‘atni og‘zaki zanjir usulida o‘zbekcha va ruscha variantda aralashtirib so‘raydi va o‘quvchilarning so‘zlarni eslab qolish darajasini aniqlaydi.

xarid qilmoq—	oziq-ovqat—	kiyim-kechak-
har xil-	xizmat ko‘rsatmoq-	

Keyingi bosqichda 1-mashq sinf doskasi ikki qismga bo‘linib yozma bajariladi. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga mos qo‘srimchalarni qo‘yib, daftarlariga yozadilar. 2-mashq. O‘quvchilar gaplarni daftarlari ko‘chiradilar va lug‘at yordamida ona tiliga tarjima qiladilar. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda gaplarni tarjima qilishga yordam beradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Animatsiya. Ekranda kanselyariya do‘koni hamda uning ichida sotuvchi tasviri paydo bo‘ladi. Do‘kon rastalarida qator predmetlar tasvirlangan bo‘ladi. Masalan: o‘chirg‘ich, qalam, ruchka, chizg‘ich, kitob, daftar, qalamdon, popka va h.k. O‘quvchilar shu predmetlar ustiga bosishlari bilan predmet kattalashib ekranga chiqadi hamda tasvir tagida so‘zni to‘g‘ri topishlari uchun katakkalar beriladi. Katakkalar tagida esa aralash holda harflar beriladi. O‘quvchilardan shu harflarni qatnashtirib predmet nomini to‘g‘ri topish talab etiladi.

Masalan: chizg‘ich ustiga bosilsa,



tasviri paydo bo‘ladi. Tasvir tagida shu predmetning nomi ya-shiringan kataklar bo‘ladi.



Ushbu kataklar tagida aralash holdagi harflar berilgan bo‘ladi.
a, b, ch, z, i,g‘, l, n, m.

o‘quvchilar predmet nomlarini katakchalarga to‘g‘ri joylashtir-salar katakchalar yashil rangga kiradi hamda uning yonida «!!!» bel-gisi paydo bo‘ladi. Predmet nomlarini noto‘g‘ri topsalar katakchalar qizil rangga kiradi.

«O‘z o‘rnini top» o‘yini. Sinf stoli ustiga so‘zlar yozilgan kartochkalar qo‘yib qo‘yiladi. Slaydda gaplar beriladi. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga kartochkalarda berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni sinf doskasiga yozadilar.

Slaydga namuna: berib yuboring. oling. yor-damlashib yuboray.

..... menga bunisini ko‘rsatib yuborsangiz.

Kartochkada beriladigan so‘zlarga namuna: iltimos, marhamat, keling, u兹.

«Kim topqir?» o‘yini. Buning uchun do‘konda sotiladigan mahsulotlar tasvirlangan kartochkalar stol ustiga yoyib qo‘yiladi. O‘quvchilar navbat bilan kartochkalarni olib unda tasvirlangan mahsulotning nomini qaysi do‘konda sotilishini aytadilar va gap tuzib sinf doskasiga yozadilar.

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirot etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. Uydan to maktabgacha qanday do‘konlar borligi haqida ma’lumot yozish, -dan qo‘sishimchasi ishtirokida 3-4 ta gap tuzish.

18-dars. DO‘KONDA

Darsning maqsadi:

a) **ta‘limiy:** qanday so‘rog‘ining ishlatalishi haqida ma’lumot berish; mavzuga oid tayanch so‘zlar va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz

qilishga, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuzishga o‘rgatish; «Do‘konda savdosoti» mavzusiga oid bilimlарини mustahkamlash.

b) tarbiyaviy: odob-axloq qoidalariga rioya qilish, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarni shakllantirish.

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini, kundalik faoliyatida sanoq sonlarni o‘qish va foydalana olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi va mustahkamlash.

Dars metodi: interfaol usul, aqliy hujum, suhbat. «O‘yla, izla, top», «Xatoni tuzating» o‘yini.

Dars shakli: yakka tartibda, guruh bilan ishslash.

Dars jahozi: darslik, AKT, mavzuga oid rangli rasmlar, didaktik tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Nazorat: o‘quvchilarining darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar reytingi dars oxirida e’lon qilinadi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: do‘kon, ust kiyim, oyoq kiyim, ipak mato, paxtali, tugmali, yoqali, ko‘k rangli, kiyaman, yoqtiraman, yarashadi kabi tayanch so‘zlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o‘quvchilarining davomati aniqlanadi;
- o‘quvchilarining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Guruhlarda ishslash. 1-guruhgа kitob do‘konida sotiladigan kitoblarning nomini yozish. 2-guruhgа kiyim do‘konida sotiladigan mahsulotlarning nomini yozish. 3-guruhgа oziq-ovqat do‘konida sotiladigan mahsulotlarning nomini yozish topshirig‘i beriladi. O‘qituvchi guruhlarning bajargan ishlarini o‘quvchilar bilan birgalikda tekshiradi. Aniq va savodli yozgan guruh g‘olib sanaladi.

Aqliy hujum. Rangli didaktik rasmlar asosida suhbat o‘tkaziladi. O‘qituvchi rasm asosida o‘quvchilarga savol beradi. O‘quvchilar javob beradilar. Bu nima? Qaysi do‘konda sotiladi? Rasmda qanday do‘konlar tasvirlangan? Kitob do‘konida nimalarni ko‘rayapsiz? Kitob do‘konida qanday kitoblar sotiladi?

III. Yangi mavzuning bayoni.

Bilib oling. Narsalarning nimadan tayyorlanganligini ifodalashda shu material nomini bildiruvchi so‘zlar qo‘llanadi. Bu so‘zlar qanday so‘rog‘iga javob bo‘lib, gapda sifat vazifasida keladi. Massalan: Munisa boshiga shoyi (qanday?) ro‘mol o‘radi. Do‘kondan charm (qanday?) qo‘lqop sotib oldim.

IV. Darslik bilan ishlash.

1-mashq og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar ustunchalardagi so‘zlarni o‘qiydilar. Bir-biriga mos keladigan so‘zlardan „sifat + ot« bog‘lanishli so‘z birikmalarini tuzadilar. Shu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga ot va sifat so‘z turkumi va savollari haqida ma’lumot berib ketadi. Ot - kim, nima, sifat – qanday, qanaqa savollariga javob bo‘ladi. O‘quvchilar har bir ustundagi so‘zlarga savol beradilar. Ustunlarda berilgan so‘zlardan so‘z birikmali tuzadilar.

Nutqiy mavzu bo‘yicha 2-topshiriq og‘zaki bajariladi. O‘qituvchi «Oziq-ovqat do‘konida» matnni og‘zaki o‘qib beradi. O‘quvchilar matnni zanjir usulida o‘qiydilar. 1 va 2-gapni ona tiliga lug‘at yordamida tarjima qiladilar. Quyidagi savollar yordamida matn mustahkamlanadi.

1. Qanday do‘konlarni bilasiz?
2. Nima uchun oziq-ovqat do‘koni deb ataladi?
3. Do‘konda nimalar sotiladi?
4. Do‘konda kimlar ishlaydi?
5. Sotuvchiga qanday murojaat qilasiz?

Lug‘at bilan ishlash. «Xotira mashqi» o‘yini. O‘quvchilar darslikda matn asosida berilgan lug‘atni o‘qib chiqadilar. So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchilarga eslab qolgan so‘zlarni daftarlariга yozish topshirig‘ini beradi. O‘qituvchi tekshirib chiqadi hamda o‘quvchilarning savodxonligini mustahkamlab aniqlab oladi.

2-mashq sinf doskasida yozma tarzda bajariladi. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga mos qo‘srimchalarni qo‘yib, gaplarni daftarlariга yozadilar. Ikkita o‘quvchi sinf doskasida bajaradi.

3-topshiriq. O‘quvchilar suhabat matnnini rollarga bo‘linib o‘qiydilar va shu tarzda mustaqil partadoshlari bilan davom ettiradilar.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash. Guruhlarda ishlash. O‘quvchilar uch guruhgaga bo‘linadilar. Kimdan, qayerdan, nimadan

so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarga 3 tadan misol keltirib shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzadilar. Foydalanish uchun so‘zlar: bozor, do‘kon, choy.

Namuna: Akamdan kitob oldim.

«**O‘yla, izla, top!**» o‘yini. O‘quvchilar berilgan savollarga javob bo‘ladigan so‘zlarni topib yozadilar. Ko‘p so‘z yozgan guruh g‘olib sanaladi.

Kimdan? –

Qayerdan? –

Nimadan? –

«**Xatoni tuzating**» o‘yini. Guruhlarda ishslash. Slaydda gaplar ko‘rsatiladi. Slaydda ko‘rsatilgan gaplarni o‘quvchilar o‘qiydilar va tuzatib daftarlariiga yozadilar. Oziq-ovqat do‘konidan dastro‘molcha sotib oldim. Sariyog‘, sut mahsulotlarini kiyim do‘konidan xarid qildim. Kiyim do‘koniga yangi sabzavotlarni olib kelishdi.

VI. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VII. Uyga vazifa berish. Uyingiz yaqinida joylashgan oziq-ovqat do‘konidan qanday mahsulotlar necha so‘m turishini yozib kelish.

19-dars. MAKTAB OSHXONASI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Maktab oshxonasi» mavzusidagi ta-yanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakillantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- tovushlarining to‘gri talaffuzi ustida ishslash;

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarga maktab oshxonasi haqida ma’lumot berish orqali jamoat joylarida o‘zini tutish madaniyati o‘stirib borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammo-larni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, aqliy hujum, «Bu qaysi taom?» o‘yini.

Dars jihizi: Maktab oshxonasi mavzusiga oid rasmlar, oshpaz-larning ish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan videolavha, AKT, taqdimat.

Tayanch so'zlar: maktab oshxonasi, oshpaz, milliy taomlar, choy, sharbat, non, somsa, sho'rva, chuchvara, palov, kabob, manti, shirin, mazali, bemaza, sho'r, tuzsiz, achchiq, ovqatlanamiz, ichamiz, yeymiz.

I. Darsning borishi.

Darsni tashkil etish:

- O'quvchilarni darsga hozirlash.
- O'quvchilar davomatini aniqlash.
- Yangi mavzu bilan tanishtirish.

II. Yangi mavzu bayoni.

1. Darslikda tasvirlangan «Maktab oshxonasi» rasmi yuzasidan suhbat:

- Bu qayer?
- Bu maktab oshxonasi.
- Bu yerda o'quvchilar nima qiladi?
- Bu yerda o'quvchilar nonushta va tushlik qiladilar.

O'quvchilarga savollar tushunarli bo'lishi uchun AKTdan quyidagi lug'at ko'rsatiladi:

2. Lug'at ishi: Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

sharbat –	сок
mastava –	рисовый суп
sho'rva –	шурпа, суп
chuchvara –	пельмени
manti –	манты
shirin –	сладкий
qovurilgan –	жареный
ichamiz –	будем пить
ovqatlanamiz –	будем обедать
palov –	плов
mazali –	вкусный
yeymiz –	будем есть
oshpaz –	повар

III. Yangi mavzu ustida ishlash.

2-topshiriqdagi matn ustida ishlash.

Maktab oshxonasi

Bu maktab oshxonasi. Oshxonamiz keng, yorug‘ va chiroyli. Biz har kuni shu yerda ovqatlanamiz.

Oshpazimiz Adiba opa juda mazali taomlar tayyorlaydilar. Nonushtaga issiq somsa, tuxum va shirin choy bo‘ladi. Tushlikka qovurdoq, palov, sho‘rva, mastava va chuchvara kabi taomlar tayyorlanadi. Tanaffusda maktab oshxonasiga kirdik. Men qovurdoq bilan choy oldim. Aziz palov bilan sharbat oldi. Palov juda mazali ekan.

«**Keling, bilib olamiz!**» daqiqasi tashkil qilinadi.

O‘zbek tilida predmetni xususiyatini bildiruvchi so‘z bilan ekan to‘liqsiz fe’li birgalikda qo‘llanilsa, u shaxs, predmetda u yoki bu xususiyat borligini tasdiqlash ma’nosini beradi.

Masalan:

Issiq + ekan

Mazali + ekan

Shirmoy non issiq ekan. Palov juda mazali ekan.

8. Topshiriqlar.

Berilgan so‘zlardan foydalanib, so‘z birikmalari tuzing:
Oppoq, shirin, nordon, sovuq, achchiq, foydali

Namuna: Maktab oshxonangizdagi dasturxonlar oppoq ekan.

Dam olish daqiqasi. O‘yin «Bu qanday taom?»

Guruahlarga oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavotlar tasvirlangan rasmlar va bir nechta taomlarning nomlari yozilgan qog‘oz bo‘laklari beriladi. O‘quvchilar 2 daqiqa ichida rasmlarga mos so‘zлarni yig‘ishlari hamda uni quyidagi tartibda o‘qishlari kerak:

Bu guruch, suv, shakar, tuz, saryog‘ va sut. Bu ovqatning nomi shirguruch (va hokazo).

Topishmoqlar. Topishmoqlarni slayd orqali namoyish qilib, topishmoqni o‘qituvchi o‘qiydi, o‘quvchilar takrorlaydilar va javobini aytadilar.

Ming bir qo‘ym suvgaga tushdi (chuchvara).

O‘zi oppoq, qor emas,

Non bo‘lmaydi, un emas (shakar).

Qozon ichda oppoq qor (shirguruch).

O'zi taom bo'lmas,

Usiz ta'm bo'lmas (tuz).

4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Lug'at

shirguruch — рисовая каша

nonushta — завтрак

qozon — казан

qaymoq — сливки

toshib ketmoq — переливаться, убежать

sut — молоко

Uyga vazifa: «Oshxonada» she'rini yod oling.

VII. O'quvchilarni rag'batlantirish.

20-dars. MAKTAB OSHXONASI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiylar: o'quvchining «Maktab oshxonasi» mavzusidagi tayanch so'zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o'rgatish.

- shu mavzuda og'zaki va yozma nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- tovushlarining to'g'ri talaffuzi ustida isqlash.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarga maktab oshxonasi haqida ma'lumot berish orqali jamoat joylarida o'zini tutish madaniyatini o'stirib borish.

d) rivojlantiruvchi: o'qib o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalilanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammo-larni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi (Mustahkamlovchi).

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, aqliy hujum, «Mumkin» va «Mumkin emas» o'yini.

Dars jihizi: Maktab oshxonasi mavzusiga oid rasmlar, oshpazlarning ish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan video lavha, AKT, taqdimot.

Tayanch so'zlar: maktab oshxonasi, oshpaz, milliy taomlar, choy, sharbat, non, somsa, sho'rva, chuchvara, palov, kabob, man-ti, shirin, mazali, bemaza, sho'r, tuzsiz, achchiq, ovqatlanamiz, ichamiz, yeymiz.

I. Darsning borishi:

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

Tashkiliy qism. Rasm asosida ishlash.

Maktab oshxonasi haqidagi savollarga javob bering:

- Siz qaysi oshxonada ovqatlanasiz?
- OiLangizda qanday milliy taomlar tayyorlanadi?
- Siz yana qanday taomlarni yoqtirasiz?

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

«Oshxonada» she’rini «Zanjir» metodi orqali so‘rash.

III. Yangi mavzu ustida ishlash. (Mustahkamlash)

Shu o‘rinda multimedia orqali oshxona anjomlarining nomini yozish ko‘rsatilib o‘tiladi. Shu o‘rinda berilgan so‘zlarning tarjimasi ham berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.	
cho‘mich	половник
kapgir	шумовка
tovoq	тарелка
elak	сито
tova	сковорода
pichoq	нож

Darslik bilan ishlash. 2-mashq. Birinchi ustundagi so‘zlarni ikkinchi ustundagi so‘zlarga to‘g‘ri bog‘lab, gaplar tuzing va ko‘chiring.

Namuna : – *Men palov yeyman. – Siz-chi?*

Nima? Niman?

non pishirmoq

choy olmoq

suv qaynatmoq

Nima qilasiz?

sho‘rva ichmoq

pishloq yemoq

5. O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan mustahkamlash mashqlarini o‘tkazish:

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan «Mumkin, mumkin emas» o‘yinini o‘tkazadi. Bunda o‘quvchilarga oshxonada o‘zini tutish qoidalari va bu qoidalalar buzilgan holatlarni ifodalovchi gaplar, rasmlar, so‘z

birikmalari aralash holda beriladi. O'quvchilar berilgan ma'lumotni «Mumkin» va «Mumkin emas» bo'limlariga ajrata olishlari kerak.

Masalan: «*Mumkin*» navbatda turish, ovqatni gapplashmasdan yeyish, o'zidan keyin idishlarni yig'ishtirish.

«*Mumkin emas*» ovqatni to'kib yeyish, qo'lni yuvmaslik, og'izda ovqat bilan gapplashish.

6. Darslik bilan ishslash: 3-mashq. Oshxona qoidalari bo'yicha savollarga javob bering. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

- A. Oshxonada nimalarga e'tibor berish kerak?
- B. Taom olish uchun ... turish kerak.
- D. Taomni ... yeyish lozim.
- E. Ovqatlanib bo'lgach ... yig'ishtiring.
- D. Ovqatlanish paytida ko'p

Foydalanish uchun so'zlar: to'kmasdan, gapirmang, navbatga, idishlarni.

1-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Bu o'zbek milliy taomlari oshxonasi. Oshxonada doimo odam ko'p. Nonushtaga issiq somsa yoki pishloq olish mumkin. Bu yerda go'shtli, kartoshkali, qovoqli somsalar ham bor. Ularning hammasi mazali. Oshpazlar osh damlaydilar. Qo'rada kabob pishiradilar.

Oshxonada moxora, sho'rva, mastava, moshxo'rda kabi suyuq taomlar, palov, manti kabi quyuq taomlar ham bor. Bu yerda hamma taomlar mazali tayyorlanadi.

(Animatsion tasvir) Biror taomning nomi paydo bo'ladi. Ushbu taomni tayyorlash uchun kerak bo'ladigan mahsulotlarni to'g'ri tanlay olish kerak. Agar mahsulotlar to'g'ri tanlansa ushbu taomning tayyor holatidagi rasm paydo bo'ladi.

IV. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash.

1. Rasm asosida suhbat. (Bu yerda maktab oshxonasida ikki o'quvchi tasvirlangan rasm berilishi kerak)

- Navbatda kim oxirgi?
- Men oxirgi.
- Bugun «Taomnoma»da qanday taomlar ro'yxati berilgan?
- Bugun «Taomnoma»da jarkop, chuchvara, mastava taomlari ko'rsatilgan.
- Sen qaysi taomni olmoqchisan?
- Men chuchvara olmoqchiman. Sen-chi?
- Men esa jarkop olaman.

– Yoqimli ishtaha.

– Rahmat. O‘zinga ham yoqimli ishtaha.

O‘qituvchi o‘quvchilarning ishlarini nazorat qilib turadi.

Dam olish daqiqasi.

«To‘g’ri top o‘yini. Doskaga quyidagi jadval osib qo‘yiladi.

O‘quvchilar «So‘zlar cassasi»dan foydalanib, jadvallarda berilgan topshiriqdan kelib chiqib, tagiga kerakli so‘zlarni qo‘yib, bu so‘zlarni tarjimasini ham topadilar. Masalan:

Taomlar	Ichimliklar	Shirinliklar	Oshxona anjomlari
Palov	Choy	Holva	Qozon
Mastava	Sut	Keks	Elak

V. Darsni yakunlash.

Maktabimizda oshxona bormi?

U yerda nimalar bor ekan?

Sizni yaxshi ko‘rgan taomingiz qaysi?

Bu taomni tayyorlash uchun qanday masalliqlar kerak?

Maktab oshxonasida nima qilish mumkin?

Maktab oshxonasida nima qilish mumkin emas?

VI. Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan taom haqida topishmoq yoki she‘r topib kelish.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

21-dars. YIL FASLLARI VA OB-HAVO

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Yil fasllari va ob-havo» mavzusidagi tayanch so‘z boyligini mukammallashtirish.

– shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

– nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarni yil fasllari va ob-havo bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish orqali mehnat-sevarlikni tarbiyalab borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammo-larni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «To‘gri javobga qarsak» o‘yini.

Dars jihози: Yil fasllari va ob-havoga oid rasmlar, ular haqida videolavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: yil, fasl, har xil, o‘xshamaydi, har kuni, har oyda, yozda, qishda, kuzdan keyin, bahordan oldin, harorat, esa, o‘ziga xos.

I. Darsning borishi.

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash.
- o‘quvchilar davomatini aniqlash.
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘quvchini o‘zi yoqtirgan taom haqida topib kelgan topishmoq yoki she’rni eshitish.

III. Yangi mavzu bayoni.

1. Darslikda tasvirlangan «Yil fasllari» rasmi yuzasidan suhbat: O‘quvchilarga savollar tushunarli bo‘lishi uchun AKTdan quydagi lug‘at ko‘rsatiladi:

Har fasl necha oydan iborat?

Fasllarda ob-havo qanday farq qiladi?

Sizga qaysi fasl yoqadi? Nima uchun?

Lug‘at ishi: Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.	
harorat	температура
o‘ziga xos	свойственно
oldin	сперва
keyin	потом, после
iliq	тёплое
shabada	ветерок

Yil fasllari haqida namunadagidek gaplar tuzing. O‘quvchilar javobi umumlashtirib to‘ldiriladi:

Namuna: *Bu – yoz fasli. Yozda o‘quvchilar ta‘ilda bo‘ladilar.*

Shu o‘rinda multimedia orqali yil fasllari haqida videolavha ko‘rsatiladi, o‘qituvchi lavhalarni izohlab boradi.

3. **Topishmoqlar.** Topishmoqlarni slayd orqali namoyish qilib, topishmoqni o‘qituvchi o‘qiydi, o‘quvchilar takrorlaydilar va javobini aytadilar.

Ko‘zga ko‘rinmas

Qo‘lga tutilmash (Havo).

Bostirdim ikki tovuq

Biri issiq, biri sovuq (Qish, yoz).

Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar (Shamol).

«**Keling, bilib olamiz!** daqiqasi tashkil qilinadi.

O‘zbek tilida so‘zlovchining ko‘pchilik bilan bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatini ifodalashda fe’llarga -k qo‘srimchasi qo‘shiladi. U I shaxs ko‘plik sondagi fe’llarni tuslovchi qo‘srimchadir.

Qarang: *Biz archani bezadi k . Lobar bilan qo‘sriq kuyladi k .*

IV. Darsni mustahkamlash. 3. Darslik bilan ishlash. 2-mashq.

Berilgan so‘zlarni o‘zaro bog‘lab, gaplar tuzing. I shaxs ko‘plik sondagi fe’llarga -k qo‘srimchasini qo‘sning.

Namuna: *Yangi yil haqida she’r yodladik.*

Bayroqcha, ipga, termoq ...

O‘yinchoq, osmoq, archa, shoxi ...

Rangli, o‘rnatmoq, chiroqlar

2-topshiriq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping, yod oling.

Katta oppoq dasturxon,

Yer yuzini qoplagan.

Yerni qor bosar,

Soyni muz bosar.

Shamol tinsa sal,

Bu qaysi mahal?

4. Topshiriqlar.

Savollarga javob bering.

1. Sizga qaysi fasl ko‘proq yoqadi?

2. Nima uchun?

3. Yil fasllarini, ularga kiruvchi oy nomlarini sanab bera olasizmi?

4. Hozir qaysi fasl?

5. Sinfoshshalariga qaysi fasl yoqishini bilasizmi?

5. Dam olish daqiqasi. O‘yin «To‘gri javobga qarsak». O‘qituvchi o‘quvchilarga har bir yil faslining o‘ziga xos jihatlarini o‘qib eshitiradi. Shu bilan bir qatorda boshqa yil fasliga taalluqli bo‘lgan tabiat o‘zgarishnini ham ataylab qo‘sib o‘qiydi. Shunda o‘quvchilar to‘g‘ri javobga bir marotaba qarsak chaladilar, notog‘ri javob bo‘lsa qarsak chalmaydilar.

V. Darsga yakun yasash:

O‘quvchilarning yil fasllari haqidagi bilimlarini suhbat orqali aniqlash:

1. Yil fasllariga qaysi oylar kirar ekan?
2. Yil fasllari o‘zgarganda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
3. Tabiat hodisalari haqida topishmoqlar bilasizmi?
4. Fe’llarga –k qo‘sishimchasini qo‘sib yozsa nimani bildiradi?
5. Ham, xuddi so‘zlari nimani bildirar ekan?

VI. Uyga vazifa. O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan yil fasllari haqida 2-3 ta gap yozish.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

22-dars. YIL FASLLARI VA OB-HAVO

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Yil fasllari va ob-havo» mavzusidagi tayanch so‘z boyligini mukammallashtirish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarini shaklantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarni yil fasllari va ob-havo bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish orqali mehnat-sevarlikni tarbiyalab borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «To‘gri javobga qarsak» o‘yini.

Dars jihози: Yil fasllari va ob-havoga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: yil, fasl, har xil, o‘xshamaydi, har kuni, har oyda, yozda, qishda, kuzdan keyin, bahordan oldin, harorat, esa, o‘ziga xos.

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

Tashkiliy qism. Rasm asosida ishslash. Slaydda «Yil fasllari» alo-hida «Bahor», «Yoz», «Kuz», «Qish» fasllarini rasmi berilgan bo‘lib, ushbu rasmlar raqamlangan bo‘ladi. O‘quvchilar tezkor ravishda fasllarning ko‘rinishiga qarab, rasmlarga qo‘yilgan raqamlarini yo-zadilar. To‘g‘ri javob keyingi slaydda berilgan bo‘lib, o‘quvchilar javoblarini solishtiradilar. Masalan: «Bahor» rasmiga 1 raqami, «Qish» rasmiga 2 raqami, «Yoz» rasmiga 3 raqami, «Kuz» rasmiga 4 raqami va hokazo. Javob esa quyidagicha yoziladi:

Bahor: 1

Yoz: 3

Kuz: 4

Qish: 2.....

Izoh: rasmlar har bir fasl uchun 2-3 tadan kam bo‘lmasligi ke-rak, rasm o‘rniga fasllarga xos bo‘lgan tabiatdagi o‘zgarishlar yozil-gan so‘zlarni ham qo‘llash mumkin. Masalan: yomg‘ir, qor, chaq-moq va hokazo.

II. O‘tilgan mavzu ustida ishslash.

O‘quvchilarni o‘zlari yoqtirgan yil fasllari haqida yozib kelgan gaplari quyidagi tartibda tekshiriladi: O‘quvchilar doskaning, o‘zlari yozib kelgan fasl ko‘rsatilgan joyiga borib turadilar va ketma-ketlik-da gaplarni o‘qiydilar.

III. Yangi mavzu bayoni. (Mustahkamlovchi)

1. Darslikda tasvirlangan «Qish o‘yinlari» rasmi yuzasidan savollar:

Rasmida qaysi yil fasli tasvirlangan?

Bolalar nima qilishyapti?

Qish faslida yana qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

Sizningcha qish fasliga nima uchun «Kumush qish» deb ta’rif berishadi?

2. Lug‘at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

sovimoq – похолодать

bog‘lamoq – привязать

shamollamoq – простудиться

yasamoq – лепить

qo‘lqop – перчатки

chiniqmoq — закаляться

qorbo‘ron — снежки

qorbola — снеговик

3. Shu o‘rinda multimedia orqali yil fasllari va undagi ob-havo tasviri ko‘rsatiladi, faqat ularning nomlari ataylab adashtirilgan holda beriladi. O‘quvchlar bu yil fasllarini va tabiatdagi o‘zgarishlar nomini to‘g‘ri topsalar, maqtov va shu so‘zning tarjimasi kelib chiqadi. Bordiyu javob noto‘g‘ri bo‘lsa, unda «O‘ylab ko‘ring» degan izoh beriladi.

4. Darslik bilan ishslash. Darslikdagi savollarga yozma ravishda javob berish.

— Qish fasli qachon tugaydi?

—

— Keyin qaysi fasl keladi?

—

— Bahorda havo qanday bo‘ladi?

—

— Daraxtlar yozda gullaydimi?

—

5. **3-topshiriq.** Matnni o‘qing va uning mazmuni asosida qishda qanday o‘yinlar o‘ynaganingiz haqida so‘zlab bering.

3-mashq. Javoblarni to‘ldirib, gaplarni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

1. — Bolalar nima uchun qo‘lqop kiyishdi?

— Qorbobo yasa.... .

2. — Anvar bilan Abror tepalikdan qanday tushishdi?

— ... chanada

3. — Nega ko‘chada yaxmalak uchish mumkin emas?

— Chunki ... mashinalar

4. — Ular chang‘ida uchishni o‘rganishdimi?

— Ha,

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Savollar tuzing.

Lug‘at

ob-havo — погода

yil fasllari — времена года

o‘lchamoq — измерять

belgilamoq — отмечать

6. (Animatsion tasvir) Yil fasllari tasviri paydo bo‘ladi. Ushbu tasvirlarning qay biriga tugma bilan bosilsa, shu faslning tasviri alohida ko‘rsatiladi u bilan birqalikda shu yil fasllariga xos tabiatdagi o‘zgarishlarining nomini to‘g‘ri talaffuz qilish, yozish, tarjimasi kabi mashqlar bajarish topshiriqlari kelib chiqadi. Masalan: Bulut – *bulut* - облако; yomg‘ir buluti, oq bulutlar, masalan, yomg‘ir buluti quyuq kulrang bo‘lib, yomg‘ir yog‘ayotgan tasvirga qo‘yilsa yomg‘ir yog‘adi, agar oq bulut rasmi yomg‘ir tasviriga qo‘yilsa yomg‘ir yog‘maydi.

7. Dam olish daqiqasi.

Yozdik-yozdik, ko‘p yozdik,
Qo‘llarimiz charchadi.
Endi birga turamiz,
Qo‘lda chapak chalamiz.
Oyoqlarni do‘pillatib,
Barmoqlarni ochib-yopib,
So‘ngra tez o‘tiramiz,
Davomini yozamiz.

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash.

1. Rasm asosida suhbat.

- Qish fasli qachon tugaydi?
—
- Keyin qaysi fasl keladi?
—
- Bahorda havo qanday bo‘ladi?
—
- Daraxtlar yozda gullaydimi?
—

1-mashq. Gaplarni o‘qing. Ularni fasllar tartibi bo‘yicha qo‘yib ko‘chiring. Ona tilingizga tarjima qiling.

1. Yozda havo issiq bo‘ladi. 2. Qishda juda sovuq bo‘ladi. 3. Maysalar ko‘karadi. 4. Yaproqlar sarg‘aya boshlaydi. 5. Harorat ko‘tariladi. 6. Bolalar qorbo‘ron o‘ynashadi, qorbobo yasashadi. 7. Bahorda kunlar yana isiy boshlaydi. 8. Kuzda havo salqin bo‘ladi.

2-topshiriq. Har bir faslga xos belgilarni alohida yozing.

Namuna: *Bahor faslida kunlar iliq bo‘ladi.*

Yomg‘ir yog‘adi. Maysalar ko‘karadi.

«Blits-so‘rov». Har bir o‘quvchiga namunadagidek tarqatma material beriladi. O‘quvchilar so‘rovnoma dagi savollarga javobni belgi yoki shu so‘zning tarjimasini yozish orqali amalga oshiradilar.

Masalan:

Yil fasllari	Bahor	Yoz	Kuz	Qish
Qor				Снег
Quyosh	Солнце	Солнце	Солнце	
Issiq		Жара		
Chaqmoq	Молния		Молния	
Yomg‘ir	Дождь		Дождь	Дождь
Bulut	Облачо	Облако	Облако	Облако
Do‘l	Град		Град	
Momaqaldiroq	Гром		Гром	
Xazon			Листопад	

4. «So‘z diktanti». O‘quvchilar o‘qituvchi aytgan so‘zlarni yozib boradilar. Topshiriq bajarilgach bir-birlari bilan daftар almashib, slaydda berilgan ushbu so‘zlarning to‘g‘ri yozilgan namunasi asosida partadoshlarining so‘z diktantlarini tekshiradilar. *q va g‘ tovushlarining talaffuzi va yozilishi.*

So‘zlar: *qor, pag‘a, sovuq, issiq, yomg‘ir, chaqmoq, chang‘i*

V. Darsni yakunlash.

Yil fasllari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Oila a‘zolaringiz qaysi fasllarda tug‘ilganini ayta olasizmi?

Sizga yoqadigan faslga, nomini aytmasdan, ta’rif bering.

Qolgan fasllarni qanday ta’riflagan bo‘lardingiz?

O‘quvchilarga beriladigan ta’til qaysi faslga to‘g‘ri keladi?

VI. Uyga vazifa. «Yil fasllari» klasterini tuzish.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

23-dars. BAHOR KELDI

Darsning maqsadi:

a) *ta’limiy*: o‘quvchining «Bahor keldi» mavzusidagi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarni atrofdagilarga nisbatan mehribon bo‘lish, tabiatni asrash unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalab borishda davom etish.

d) rivojlaniruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Tezkor savollar» metodi.

Dars jihozi: «Bahor keldi» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *bahorda, dehqon, ko‘m-ko‘k, qip-qizil, ko‘chat, daraxt, haydaladi, ekiladi, sug‘oradi, tozalamoq*

I. Darsning borishi.

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash.

2. Tashkiliy qism. «Tezkor savollar» metodi.

Fasllar ichida eng yoshi? (Bahor)

Bahor elchisi bo‘lgan gul? (Boychechak)

Ayollar bayrami nishonlanadigan oy nomi.... (Mart)

Bahorda birinchi bo‘lib uchib keladigan qush nomi. (Turna, qaldirg‘och)

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

«Yil fasllari» bo‘yicha bajarib kelingan klasterlarni tekshirish, javoblarni umumlashtirish.

III. Yangi mavzu bayoni.

1. Darslikda tasvirlangan «Bahor keldi» rasmi asosida savol-larga javob bering:

1. Bahorda qaysi daraxt oldin gullaydi?

....

2. Bahorda birinchi ochiladigan gulning nomi nima?

....

3. Bahorda qaysi qush birinchi bo‘lib janubdan uchib keladi?

....

4. Bahorda qaysi hasharotlar uyqudan uyg‘onadi?

....

2-topshiriq. Berilgan so‘zlardan foydalanib, matnni davom et-tiring.

Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

o‘tkazmoq –проводить
binafsha – фиалка
tanlov –конкурс
tadbir – мероприятие
boychechak – подснежник
lolaqizg‘aldoq – мак

3. O‘quvchilarga bahor faslida bo‘ladigan tabiat o‘zgarishlari haqidagi qisqa video lavha ko‘rsatiladi, bunda oldingi darslarda o‘tilgan yil fasllari va ob-havo haqida syujetlar ko‘rsatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. «**Keling, bilib olamiz!** daqiqasi tashkil qilinadi.

-da qo‘srimchasini olgan so‘zlar narsa-buyum yoki voqeahodisalarning o‘rin-joyini bildiradi. Ular q a y e r d a so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Masalan: **Bog‘da (qayerda?) daraxtlar gulladi.**

5. Shu o‘rinda multimedia orqali **-da** qo‘srimchasini qo‘llash yuzasidan topshiriqlar beriladi. O‘quvchilar -da qo‘srimchasini to‘g‘ri qo‘llay olsalar, maqtov va shu gapning tarjimasi kelib chiqadi. Bordi-yu javob noto‘g‘rib bo‘lsa, unda «O‘ylab ko‘ring» degan izoh beriladi.

Masalan:

Biz erta bahor... gul ko‘chatlar ekamiz.
Do‘stim o‘zbek tili fani... «5» baho olgan.
Katta qafas... sher bor.
Akam 7-sinf... o‘qiydi.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring. Ularni ona tilingizga tarjima qiling.

2-topshiriq. Maqollarni o‘qing va ma’nosini aytib bering.
Bahorgi harakat — kuzgi barakat.
Bir yil tut ekkan kishi,

Yuz yil gavhar teradi.
Birni kessang, o'nni ek!
Mehnat — mehnatning tagi rohat.

4. Darslik bilan ishlash.

3-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini qayta hikoya qiling. **-da** qo'shimchali so'zlarga so'roq bering.

5.Dam olish daqiqasi. She'r aytilib, unga mos harakatlar qilinadi.
Bahor keldi gurkirab,
Ariqda suv chopqillab.
Gul, lolalar teraylik,
Yoru-do'sta beraylik.
Belga olib kurakni,
Yerlarni yumshataylik.
Ayiq uyg'onadi
Barcha jonivorlar
Bahor kelganidan quvonadi.

IV. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash.

1. Rasm asosida suhbat. Bahor fasli turli sharoitda tasvir-langan rasmlar turi 3 tadan qilib beriladi. Ushbu rasmlar asosida bog'lanishli matn yaratish. O'quvchilar guruhda ish olib boradilar.

Masalan: *tog', daladagi dehqon, gullarning rasm'i.*

Yurtimizga bahor keldi. Hamma yer gullar bilan qoplandi. Dalada dehqonning ishi qizigan payt.

2. So'z birikmalaridan gaplar tuzish. Berilgan so'z birikmalardan chap ustunga mosini o'ng ustundan topib gaplar tuzish.

O'lkamizga	bo'chechak ochildi
Birinchi bo'lib	ko'chat ekmoqda
Bog'bon	tez-tez sug'oriladi
Daraxt ko'chatlari	bahor keldi

V. Darsni yakunlash.

Bugungi darsimizda qaysi fasl haqida suhbatlashdik?
Bahor oyiga qaysi fasllar kirar ekan?
Narsa-buyum yoki voqe'a-hodisalarni o'rni-joyini bildirish uchun qaysi qo'shimchadan foydalanamiz?
Ular ishtirokida misol keltira olasizmi?

VI. Uyga vazifa. Bahorda ochiladigan gullar nomini alifbo taribida yozib keling.

VII. O‘quvchilarни rag’batlantirish.

24-dars. BAHOR KELDI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Bahor keldi» mavzusidagi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda tabiatni asrash, unga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishni atrofdagilarga nisbatan mehribon bo‘lish tuyg‘usini tarbiyalash.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalilanlgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi (Mustahkamlovchi).

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Tezkor savollar» metodi.

Dars jihози: «Bahor keldi» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: bahorda, dehqon, ko‘m-ko‘k, qip-qizil, ko‘chat, daraxt, haydaladi, ekiladi, sug‘oradi, tozalamoq

I.Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism. «Adash nomlar» metodi orqali gullarning nomlari orasidan insonlarga ism qilib qo‘yilganlarini ajratib olish.

Masalan: Lola, boychechak, rayhon, chuchmoma, nargiz, binafsha va hokazo.

Lola, Rayhon, Nargiz

Izoh: o‘quvchilarga o‘z ona tillarida ham gul, ham ismni bildiruvchi gullar nomini yozishni taklif qilish mumkin.

II.O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

Bahorda ochiladigan gullar nomini alifbo tartibida yozib kelish topshirig‘ini tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni.

1. Darslikda tasvirlangan «Bog‘da» rasmi asosida suhbat tuzing va uni rollarga bo‘lib o‘qing.

- Salom Rahim!
- Salom Hamid!
- Sen qanday daraxt ko‘chatini ekyapsan?
- Men o‘rik ko‘chatini ekyapman. Sen-chi?
- Men esa o‘zim ekkan olma ko‘chatini sug‘oryapman.
- Lola menga ham qarashib yuborasanmi?
- Ha albatta. Men ham daraxtlarni sug‘orishga yordam beraman.

2. Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

ko‘karmoq — зеленеть

o‘zgarish — изменения

ekin — посев

tabiat — природа

kurtak — почка

charaqlamoq — светить

3. **Darslik bilan ishlash.** She’rni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Ajratilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Shu o‘rinda she’rni video tasvir orqali ifodali o‘qib eshittirilsa maqsadga muvofiq bolar edi.

5. Dam olish daqiqasi. She’r aytilib, unga mos harakatlar qilnadi.

Qushlar uchadi,

Gullar ochiladi,

Quyon sakraydi

Bo‘ri poylaydi

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga **Qayerda?** so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zлarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Namuna: *Qushlar (qayerda?) bog‘da sayrayapti.*

1. ... gullar ochildi.
2. ... qorlar eriyapti.
3. Dehqonlar ... ish boshlashdi.
4. ... daraxtlar gulladi.

2-mashq. Birinchi ustundagi so‘zlarni ikkinchi ustundagi so‘zlar bilan bog‘lab, ular asosida gaplar tuzing.

V. Darsni yakunlash.

Bugungi darsimizda nimalar qildik?

Bahorda qanday ishlar qilinar ekan?

-da qo‘sishchasi ishtirokidagi gaplarga misol keltiring.

Bahor fasliga qisqacha ta’rif bering.

VI. Uyga vazifa. Bahor fasli haqida kichik matn yozib kelng.

VII. O‘quvchilarini rag’batlantirish.

25-dars. ASSALOM, NAVRO‘Z!

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Assalom, Navro‘z!» mavzusidagi ta-yanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

-dilar; -(i)shdi qo‘sishchalarining qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni singdirib borish orqali, vatanga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalab borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Rasmlar nima deydi?» ta’limiy o‘yini, «Esse» metodi, «Klaster» metodi.

Dars jihizi: «Assalom, Navro‘z!» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *qadimdan, xursand, yilboshi, qariyalar, ehson, nogironlar, ziyorat, mehr-muruvvat, bahor taomlari, xabar olinadi, hashar, tozalanadi, xalq sayllari, o‘tkaziladi*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarini darsga hozirlash;

- o‘quvchilar davomatini aniqlash;

- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism. «Rasmlar nima deydi?» ta’limiy o‘yini. O‘quvchilar slaydda yoki doskaga ilingan rasmlar orqali bugungi o‘tiladigan mavzu nomini topishlari kerak (Rasmlarda Navro‘z bayrami tantanalari aks ettirilgan).

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

Bahor fasli haqida yozib kelingan kichik matnni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni.

1-topshiriq. Berilgan rasmlar asosida namunadagidek gaplar tuzing.
Namuna: Bayramga tayyorgarlik ko‘rdilar. Mehmonlarni taklif qilishdi. Xursandchilik qilishdi.

2. Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

Qadimdan – с древних времен

Xursand – радостный

Yilboshi – начало года

Ehson – пожертвование

Ziyorat – здесь: навещать

Mehr-muruvvat – милосердие

Xalq sayli – народное гуляние

Hashar – хашар (добровольная взаимопомощь)

Yodda tuting!

Ish-harakatning bir necha kishilar tomonidan bajarilganligi **-dilar, -(i)shdi** qo‘srimchalari yordamida ifodalananadi.

Masalan: *Ayollar sumalak pishirdilar. Bolalar ko‘chalarni tozalashdi.*

Darslik bilan ishlash.

3-mashq. Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. **-dilar, -ishdi, -ildi, -indi** qo‘srimchalarini to‘g‘ri talafuz qiling.

Shu o‘rinda yurtimizda Navro‘z bayram tantanalarini aks ettiruvchi videolavha izohi bilan beriladi. Videolavha Navro‘z haqidagi qo‘sish bilan berilishi mumkin.

Darslik bilan ishlash.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib daftaringizga ko‘chiring.

Dam olish daqiqasi.

Multimedia yoki audio orqali «Sayr» o‘yinini o‘tkazish. Buning uchun o‘quvchilarga qanday harakat bajarilishi aytib turiladi va shu

harakatga mos musiqa qo'yiladi. Masalan: tasavvur qiling biz sayr qilayotgan vaqt mayin shabada esdi (musiqa + qo'llar harakati), shamol kuchaydi (musiqa + qo'llar harakati tezlashadi) va hokazo. Harakatlar: isib ketish, yurish, sakrash, charchash, yomg'ir, qo'shiq aytish, raqsga tushish va boshqalar.

IV. O'r ganilgan mavzuni mustahkamlash.

3-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va davom et-tiring.

- Anvar, ertaga qanday bayram?
- Ertaga Navro'z bayrami.
- Navro'z qanday bayram?
- Navro'z-bahor bayrami.
-

«Esse» metodi. O'qituvchi o'quvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan qog'oz yoki varaqlar tarqatib, ushbu varaqlarga bugun darsda o'rgangan narsalariga qisqacha ta'rif berib yozish vazifasini beradi. Namuna:

4- «____ sinf o'quvchisi _____

BUGUN DARSDA O'RGANDIK:

1. Navro'z bayrami
2. -dilar; -(i)shdi qo'shimchalari
3. Mashq, topshiriqlar
4. O'yin o'ynadik
5. Baho oldik

V. Darsni yakunlash.

Bugungi darsda nimalarni o'rgandingiz?

Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?

- dilar; - (i)shdi qo'shimchali so'zlar nimani bildirar ekan?

Maktabingizda Navro'z bayramiga bag'ishlangan tadbiri qanday o'tadi?

VI. Uyga vazifa. Navro'z bayrami mavzusida «Klaster tuzish».

VII. O'quvchilarni rag'batlantirish.

26-dars. ASSALOM, NAVRO'Z!

Darsning maqsadi:

a) ta'limi y: o'quvchining «Assalom, Navro'z!» mavzusidagi tayanch so'zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o'rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash. -dilar; -(i)shdi qo‘shimchalarining qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni singdirib borish orqalil, vatanga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalab borish.

d) rivojlanтирувчи: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammlarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Esse» metodi, «Klaster» metodi.

Dars jihizi: «Assalom, Navro‘z!» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *qadimdan, xursand, yilboshi, qariyalar, ehson, nogironlar, ziyyarat, mehr-muruvvat, bahor taomlari, xabar olinadi, hashar, tozalanadi, xalq sayllari, o‘tkaziladi*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism. «Takrorlanmasin!» metodi. Navro‘z mavzusiga oid so‘zlarni sanab o‘tish. O‘quvchilar Navro‘z bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni aytishlari lozim, lekin so‘zlar takrorlanmasligi kerak. Bir o‘quvchi bir necha bor so‘zlar aytishi mumkin. Izoh: sinfning bilim darajasiga qarab, topshiriqni murakkablashtirish mumkin. Masalan: shu so‘zning tarjimasini aytish, so‘z birikmasi tuzish va hokazo.

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘qituvchi Navro‘z bayrami mavzusida tuzilgan «Klaster»larni doskaga yopishtirishni va ularni o‘qishni taklif qiladi.

III. Yangi mavzu bayoni (Mustahkamlovchi).

Shu o‘rinda «NAVRO‘Z – YANGI KUN» matni audio orqali eshittiriladi va matn mazmuniga mos video lavha namoyish etiladi.

2. Lug‘at ishi.

Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

bayram – праздник

yangi kun – новый день

teng bo'lmoq – уравниться
uzaymoq –продлиться

1-mashq. Tasvirlangan narsalar nomini yozib, matnni to'ldiring.
Yodda tuting!

i va u tovushlarining talaffuziga e'tibor bering.

Xush kelibsan, gul bahor,
Chin ko'ngildan assalom.
Xush kelibsan, yana bir bor,
Sengadir shirin kalom.

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Milliy, bayram, sumalak, ko'k somsa, osh, tayyorlamoq, supurmoq, oqlamoq, o'tkazilmoq.

2-topshiriq. Matnni o'qing va ona tilingizga tarjima qiling.

Navro'z – qadimiy bayram. O'rta Osiyo xalqlari bahorgi ishlarning boshlanishini shu kun bilan bog'laganlar. Yaxshi niyat bilan dalaga urug' sochganlar. Yurtimizda 21- mart umumxalq bayrami deb e'lon qilingan. O'zbekistonning har bir shahar va qishlog'ida bu kun xalq sayillari bo'lib o'tadi.

Qiziqarli o'yin va turli musobaqalar o'tkaziladi. Navro'zni biz ham qizg'in nishonlaymiz. Navro'z milliy urf-odatlarimiz mujassam bo'lgan bayramdir. U mehr-oqibat, insonni ulug'lash, do'stlik va totuvlikni qadrlashga chaqiradi.

Darslik bilan ishlash. 4-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini gayta hikoya qiling. Ajratilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Bahor fasli bayramlarga boy fasldir. Navro'zi olam ham bahor fasliga **to'g'ri keladi**. Navro'z – **qadimiy** bayramlardan biri. Navro'zda hovli va ko'chalar tozalanib, tartibga keltiriladi. Hamma yoqda bayram **tantanalari** o'tkaziladi. Navro'z bayramida sumalak, halim kabi **bahor taomlari** pishiriladi. Bemorlar va keksalarning holdidan xabar olinadi.

Dam olish daqiqasi.

Sumalakjon, sumalak,
Buncha shirin bo'lmasang.
Qariyalar kovlaydi,
Senga mehr tilaydi.

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash.

«Eslab qol, keyin yoz» mashqi. O‘tilgan mavzuga doir so‘zlar qatori beriladi. O‘quvchilar 10 soniyada so‘zlarni o‘qib, eslab qolishlari kerak (ekranda 10 dan 1 gacha teskari sanoq berish, 10,9,8.....hamda sanab turish ham mumkin). Ekrandagi yozuv o‘chgach, o‘quvchilar eslarida qolgan so‘zlarni yoza boshlaydilar. Keyin o‘quvchilarga partadoshlari bilan daftarlarini almashtirish taklif qilinadi. Undan keyin boshida ko‘rsatilgan so‘zlar yana ko‘rsatiladi. Shunda o‘quvchi partadoshi yozgan so‘zlarni ekrandagi so‘zlar bilan solishtiradi. Izoh: bu mashqni doskaning ko‘rinmas tomoniga yozib, kerak paytida ochish, yoki o‘qib eshitirish ham mumkin.

So‘zlar: halim, hashar, bayram, ehson, uzaymoq, yangi kun, zi-yorat, yilboshi

V. Darsni yakunlash.

Bugungi dars sizga yoqdimi?

Navro‘z bayrami haqida yana nimalar bilib oldingiz?

i va u tovushlari ishtirot etgan so‘zlarga misol keltiring.

Qanday yangi so‘zlarni bilib oldingiz?

VI. Uyga vazifa. Navro‘z bayramini mahallangiz, yaqinlaringiz bilan qanday o‘tkazganingiz haqida 3-ta gap tuzing.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

27-dars. ORASTA BO‘LING

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy: o‘quvchining «Orasta bo‘ling» mavzusidagi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shaklantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- lik qo‘sishchali sifatlarning qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda o‘zgalar mehnatini qadrlash, mehnatsevarlikni tarbiyalab borish.

d) rivojlaniruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Kim tez bajaradi» ta’limiy o‘yini, «Davomini top» mashqi, «Zanjir» metodi.

Dars jahozi: «Orasta bo‘ling» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida videolavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *tozalik, sog‘lik, tumov, kasal, tish, yuvadi,sovun bilan, doimo, iflos, toza tuting, dazmollab kiying, havasi keladi, amal qiling, kir, bo‘lmaydi, tirnog‘ini oladi, artadi, tozalaydi.*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism. «Kim tez bajaradi» ta’limiy o‘yini. O‘quvchilar slaydda yoki doskaga ilingan so‘zlar va so‘z birikmalaridan, tozalikka tegishli bo‘lganini tezlikda daftarlariga ko‘chirib olishlari kerak.

Foydalanish uchun so‘zlar: *kir, bo‘lmaydi, tirnog‘ini oladi, artadi, tozalaydi: tozalik, iflos, toza tuting.*

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘quvchilardan Navro‘z bayramini qanday o‘tkazganliklari haqidagi gaplarni tekshirish, bog‘dagi yumushlar bilan bog‘liq bo‘lgan gaplarga alohida to‘xtalib o‘tish.

III. Yangi mavzu bayoni.

1-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing va rasm asosida davom ettiring.

- Aziza, siz sinfingizda tozalikka rioya qilasizmi?
- Ha, albatta, biz mifikimiz va sinfimizni toza saqlaymiz.
- Buning uchun nima ishlar qilasizlar?
- Hammamiz, avvalo, o‘z sinfimizni toza saqlaymiz. Har kuni sinfimizni tozalab, gullarga suv quyamiz. Sinfimizdagi jihozlarni avaylab — asraymiz.
- Sinfingizda o‘zingizni qanday tutasiz?
- Sinfimizda tozalikka rioya qilamiz. Polga qog‘oz tashlamaymiz. Oyoq kiyimimizni tozalab artib, keyin sinfga kiramiz.

—

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

2-mashq. Birinchi ustundagi so‘zlarga ikkinchi ustundan mos so‘zlarni topib so‘z birikmalari yasang. Bu so‘z birikmalari yordamida gaplar tuzing.

Namuna: *idishlarni, yuvish* – *Men idishlarni yuvaman.*

Uy yuvish.

Idishlarni dazmollahash.

Kiyimlarni artish.

Changlarni supurish.

2. Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

namunali – примерный

havas qilmoq – желать, хотеть

yuvmoq – мыть

tozalamoq – чистить

artish – вытираять

supurish – подметать

orasta – опрятный

Bilib oling!

-lik qo’shimchasi sifatlarga qo’shilib, belgi – xususiyat otlarini yasaydi.

Masalan: *toza+lik* – *tozalik*, *ozoda+lik* – *ozodalik*, *orasta+lik* – *orastalik*.

Darslik bilan ishslash. 2-topshiriq. Berilgan so’zlarga -lik qo’shimchasini qo’shib yangi so’zlar hosil qiling. Ularni *yoqtirmoq* fe’li bilan bog’lab, tasdiq yoki inkor mazmunini ifodalovchi gaplar tuzing.

Namuna: *Tozalikni yoqtiraman.*

Foydalanish uchun so’zlar: go’zal, iflos, ko’rkam, olifta, qo’pol, tartibili, odobli.

Multimedia vositasi orqali tozalik bilan bog’liq bo’lgan ishlar ko’rsatiladi. Har bir tasvir tagiga shu tasvirni izohlovchi gap yozilishi va o’qib borilishi kerak. O’quvchilar shu gaplarni qaytarib talaf-fuz qilishadi va gaplarni og’zaki tarjima qilishadi.

1. Maktab hovlisini tozaladik.
2. Katta bolalar chelaklarda axlatlarni tashishdi.
3. Anvar va Nodira gullarni sug’ordi.
4. Qizlar supurgi bilan hovlini supurdilar.
5. Aziza hovliga suv sepdii.

Dam olish daqiqasi.

IV. O’rganilgan mavzuni mustahkamlash.

«Davomini top» mashqi. O‘tilgan mavzuga doir gaplar beriladi. Lekin gaplarning ba‘zi so‘zлari tushirib qoldirilgan bo‘ladi. Tasvirda savat beriladi, bu savatda tushirib qoldirilgan so‘zлar va boshqa mavzuga oid so‘zлar bo‘ladi. O‘quvchilar shu so‘zлardan mosini gaplarda tushirib qoldirilgan joylarga qo‘yishlari kerak. Javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘rili ma’lum ravishda bildirib boriladi.

1-topshiriq. She’rni «Zanjir» metodi orqali ifodali o‘qish, she’r mazmunini og‘zaki ravishda tarjima qilish.

Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

barvaqt – рано

mushaklar – мускулы

shior – лозунг

badantarbiya – зарядка

odat – привычка

pushaymon – раскаяние

V. Darsni yakunlash.

Orasta so‘zi nimani anglatar ekan?

Tozalik va ozodalikka rioya qilish uchun nimalar qilish kerak ekan?

Siz bu qoidalarga amal qilasizmi?

Sinfnigizda tozalik bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirasiz?

-lik qo‘srimchasi sifatlarga qo‘silib nimani hosil qiladi?

VI. Uyga vazifa. «Orasta bo‘ling» mavzusida 3-4 ta gap tuzing.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

28-dars. ORASTA BO‘LING

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy o‘quvchining «Orasta bo‘ling» mavzusidagi tayanch so‘zлar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shaklantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- lik qo‘srimchali sifatlarning qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda o‘zgalar mehnatini qadrlash, mehnatsevarlikni tarbiyalab borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammo-larni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi. (Mustahkamlovchi)

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Tartibini to‘g‘ri top» ta’limiy o‘yini, «O‘qilganini takrorlama» metodi, «Blits so‘rov» metodi.

Dars jahozi: «Orasta bo‘ling» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *tozalik, sog‘lik, tumov, kasal, tish, yuvadi,sovun bilan, doimo, iflos, toza tuting, dazmollab kiying, havasi keladi, amal qiling, kir, bo‘lmaydi, tirnog‘ini oladi, artadi, tozalaydi*

I. Darsning borishi.

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism.

«Tartibini to‘g‘ri top» ta’limiy o‘yin. O‘quvchilarga «Orasta bo‘ling» mavzusidagi gaplar berladi. Ular bu ishlarning bajarilishi tartibiga ko‘ra, gaplarni raqamlab chiqishlari kerak.

№	GAPLAR
	Changlar artiladi.
	Gilam va sholchalar qoqiladi.
	Rom va oynalar artiladi.
	Uy supurib, pollar artiladi.
	Keraksiz buyumlar, axlat tashlab yuboriladi.

To‘g‘ri javob:

№	GAPLAR
3	Changlar, uy jihozlari artiladi.
4	Gilam va sholchalar qoqiladi.
2	Rom va oynalar artiladi.
1	Uy supurib, pollar artiladi.
5	Keraksiz buyumlar, axlat tashlab yuboriladi.

II. O‘tilgan mavzu ustida ishslash.

O‘quvchilarning «Orasta bo‘ling» mavzusida yozib kelgan gaplari, «O‘qilganini takrorlama» metodi orqali tekshiriladi. O‘quvchilar

boshqa o‘quvchi o‘qiyotganda, diqqat bilan eshitadilar. Agar o‘zлari tuzgan gapga o‘xshagan gap bo‘lsa, uni o‘qimaydilar.

III. Yangi mavzu bayoni.

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

2-mashq. Gaplarni o‘qing, ularning mazmunidan kelib chiqib nima qilish kerakligini aytинг. Namunadagidek javoblar yozing.

Namuna : Qo‘li iflos bo‘ldi. – Qo‘lingni yuv.

Dam olish daqiqasi.

Multimedia yoki audio orqali «Sayr» o‘yinini o‘tkazish. Buning uchun o‘quvchilarga qanday harakat bajarilishi aytib turiladi va shu harakatga mos musiqa qo‘yiladi. Masalan: tasavvur qiling biz sayr qilayotgan vaqt mayin shabada esdi (musiqa + qo‘llar harakati), shamol kuchaydi (musiqa + qo‘llar harakati tezlashadi) va hokazo. Harakatlar: isib ketish, yurish, sakrash, charchash, yomg‘ir, qo‘sinq aytish, raqsга tushish va boshqalar.

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash. «Blits so‘rov» metodi. O‘quvchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha berilgan so‘zlarni, mos kelgan kataklardan topib, ularga + belgisini qo‘yadilar. Masalan:

Orasta bo‘ling	supurish	chelak	Idishlarni yuvish	chagitish	Suv sepish	Oynalarni artish	Kir oyoq kiyim bilan yurish	Supurgi	Axlatlarni xohlagan joyga tashlash
Mehnat qurollari									
Bajariladigan ishlar									
Nima qilish mumkin emas									

Orasta bo‘ling	supurish	chelak	Idishlarni yuvish	Chang artish	Suv sepish	Oynalarni artish	Kir oyoq kiyim bilan yurish	supurgi	Axlatlarni xohlagan joyga tashlash

Mehnat qurollari		+						+	
Bajariladigan ishlar	+		+	+	+	+			
Nima qilish mumkin emas							+		+

I-topshiriq. She'rni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Lug'at

avalambor – сначала
 yumush – работа
 xatcho'p – закладка
 nomin oqla – береги честь
 muqovalamoq – переплетать
 xulq – поведение
 yuqmasin gard – пусть не пачкается
 maqtov – похвала
 satr – строка

Topshiriqlar:

1. She'r nima haqida ekanligini so'zlab bering.
2. Orastalikka oid so'zlarni topib, ularni daftaringizga ko'chiring.
3. Yangi so'zlarni yod oling.

V. Darsni yakunlash.

Siz uyingizda qanday ishlar qilasiz?

Maktabda qanday ishlar bajardingiz?

Orasta bo'lish uchun yana nimalar qilish kerak?

Mahallangizda ham tozalik ishlari bo'ladimi? Siz bu ishlarda qatnashasizmi?

VI. Uyga vazifa. 1-topshiriqda berilgan she'rni yod oling.

VII. O'quvchilarni rag'batlantirish.

29-dars. SPORT VA SALOMATLIK

Darsning maqsadi:

- a) ta'limiylar:** o'quvchining «Sport va salomatlik» mavzusidagi ta'yanch so'zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o'rgatish
- shu mavzuda og'zaki va yozma nutqiy ko'nikmalarni shaklantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;
- qanday? so‘rog‘ining qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda sportga bo‘lgan qiziqishni yana-da uyg‘otish, sportning biror turi bilan muntazam shug‘ullanishga qiziqtirish, o‘z sog‘liklariga befarq bo‘lmaslikka o‘rgatib borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Mini test» metodi, «Sara-lash» mashqi.

Dars jahozi: «Sport va salomatlik» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *sport, sport turlari, suzish, yugurish, badiiy gim-nastika, kurash, mashq qilish, cniniqish, sport anjomlari, shug‘ullanish, sog‘lom bo‘ladi, toza havo, sog‘lik, boylik*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash.
- o‘quvchilar davomatini aniqlash.
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism. «Saralash» mashqi. O‘quvchilarga berilgan so‘zlardan faqat sport bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni tezlikda ajratish topshirig‘i beriladi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *ko‘ylak, koptok, kitob, chang‘i, kurash, daftar, shaxmat, etik, pichoq, suzish, maktab, do‘sit, tenni, to‘r*

Izoh: so‘zlar slaydda ham berilshi mumkin, so‘zlar o‘rniga rasmlar ham berilishi mumkin.

II.O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

«Orasta bo‘l» she’rini yoddan aytishni tekshirish.

Izoh: bunda bir necha usulda she’rni yod olganligini tekshirish mumkin. Masalan: «Zanjir» metodi, «Davom ettir» (o‘quvchi o‘qituvchining ishorasiga ko‘ra yoddan aytayotgan she’rini to‘xtatadi, aynan shu yerdan boshqa o‘quvchi she’rni yodlashni davom ettiradi), «Juftlikda yodlash» (2-3 o‘quvchi birgalikda yoki satrlarni ketma-ketlikda yoddan aytib beradilar).

III. Yangi mavzu bayoni. 1-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom etiring.

- Kishi sog‘lom bo‘lishi uchun nima qilishi kerak?
- Doim sport bilan shug‘ullanishi va ozoda yozishi kerak
- Badanni chiniqtirish foydalimi?
- Ha, albatta. Inson badanini chiniqtirsa doim sog‘lom bo‘ladi.

Bilib oling!

Belgini bildirgan so‘zlar qanday? so‘rog‘iga javob beradi. Masalan: toza, ozoda. Faoliyatni bildiradigan so‘zlar nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Masalan: Nigora oynani toza artdi

3. Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying va daftaringizga ko‘chiring.

Anvar bola. U toza bo‘lishi uchun harakat qiladi. Ali ko‘cha qoidalariga O‘quvchi partada o‘tirishi kerak. Qo‘l va ozioda tutish kerak. tez keladi, lekin sekin ketadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *badanini, aqlli, qiyshaymay, amal qiladi, dard, betini*.

2-topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

Sport sog‘lijni mustahkamlaydi. Har bir kishi sport bilan **shug‘ullanishi kerak**. O‘g‘il bolalar futbol, kurash, boks bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radilar. Qizlar ko‘proq gimnastika, tennisni tanlaydilar.

Aytgandek, shaxmat va shashka ham **sport o‘yinlari**. Ko‘chada bekinmachoq, quvlashmachoq **o‘ynaganda** siz yugurasiz. Arqon o‘ynaganda sakraysiz. Bunday o‘yinlarni o‘ynash juda **foyDALI**. Shunda **tana a’zolaringiz** o‘sadi, **baquvvat** bo‘ladi. Shuning uchun sportni seving! Sportning biror turi bilan doimo shug‘ullaning!

Lug‘at

chiniqmoq — закаляться

sport turi — вид спорта

shug‘ullanmoq — заниматься

foyDALI — полезний

aytgandek — кстати

tana a’zolari — части тела

tanlamoq — выбрать

baquvvat — сильный

Shu o‘rinda sport o‘yinlari aks ettirilgan video tasvir, izoh bilan birgalikda namoyish etilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Namoyish vaqtida sog‘lom bo‘lish uchun sport bilan shug‘ullanish, badan-tarbiya qilish, sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish zarurligi haqida ham gapirib o‘tish kerak.

IV. O‘rganilgan mayzuni mustahkamlash.

Mini test bajaring

Sport turlari	Charm qo‘lqop	Koptok	Belbog‘	Ring	Hakam	Darvoza
Futbol						
Kurash						
Boks						

Mini test bajarilgani

Sport turlari	Charm qo‘lqop	Koptok	Belbog‘	Ring	Hakam	Darvoza
Futbol		+			+	+
Kurash			+		+	
Boks	+			+	+	

V. Darsni yakunlash.

Bugungi darsimizda nimalarni o‘rgandik?

Sizga qaysi sport turi yoqadi?

Maktabingizda qanday sport to‘garagi bor?

Qaysi sport to‘garagiga qatnashasiz?

Sog‘lom bo‘lish uchun nimalarga amal qilish kerak?

VI. Uyga vazifa. Sizga qaysi sport turi yoqadi. Shu haqida 4–5 ta gapdan iborat bog‘lanishli matn tuzing.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

30-dars. SPORT VA SALOMATLIK

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Sport va salomatlik» mavzusidagi ta-yanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakl-lantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- qanday? so‘rog‘ining qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda sportga bo‘lgan qiziqishni yanada uyg‘otish, sportning biror turi bilan muntazam shug‘ullanishga qiziqtirish, o‘z sog‘liklariga befarq bo‘lmaslikka o‘rgatib borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi (Mustahkamlovchi).

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, mashq va topshiriqlar.

Dars jahozi: «Sport va salomatlik» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *sport, sport turlari, suzish, yugurish, badiiy gim-nastika, kurash, mashq qilish, cniniqish, sport anjomlari, shug‘ullanish, sog‘lom bo‘ladi, toza havo, sog‘lik, boylik*

I.Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarни darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism.

Sport yangiliklaridan xabarlar. O‘qituvchi ayni kunlarda sport olamida qanday yangiliklar bo‘layotgani haqida ma’lumot berishni taklif qiladi.

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘quvchilarga yoqgan sport turi haqidagi 4–5 ta gapdan iborat bog‘lanishli matnni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni. 1-topshiriq. Savol-javoblardagi nuqta-lar o‘rniga mos so‘zlar

topib, suhbatni davom ettiring.

- ... badantarbiya qildingmi?
- Ha, ertalab O‘zing-chi?
- ... to‘garagiga qatnashaman.
- Men ham qatnashmoqchiman.
- Yur, ... murabbiy ... tanishtiraman.

3- mashq. Berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

2-topshiriq. Matnni o‘qing mazmuniga mos sarlavha toping.

Lug‘at

epchil — ловкий

chaqqon — шустрой

terma jamoa — сборная команда
aka-uka — братья

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz ertalab turib badantarbiya qilasizmi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, sog‘lom va tartibli bo‘lish uchun nima qilish kerak?
3. Sport bilan shug‘ullangan inson qanday bo‘ladi?
4. Sportning qaysi turi sizga yoqadi? Nima uchun?

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan mosini qo‘yib gaplarni bildiring.

2-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Belgi bildiruvchi so‘zlarni topib daftaringizga ko‘chiring.

jismonan baquvvat — физический крепкий (сильный)

charxlamoq — оттачивать

qomat - фигура

dovyurak — смелый, храбрый

Yodda tuting!

«Tozalik — oltin qoydalari»

1. Ko‘chadan kelganda qo‘lingizni yuving.
2. Ozoda kiyining.
3. Atrofingizni iflos qilmang.
4. Sport bilan shug‘ullaning.
5. Vaqtida ovqatlaning.
6. Meva va sabzavotlarni yuvib yeng.

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash.

Bugungi dars sizga yoqdimi?

Kasal bo‘lmaslik uchun nimalar qilsh kerak?

Oila a’zolaringizga qaysi sport turi yoqadi?

Qaysi spotchilarni bilasiz?

Sportga bog‘liq qanday yangiliklarni bilib oldingiz?

VI. Uyga vazifa. «Tozalik — oltin qoydalari» riga qo‘shicha kiriting.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

31-dars. HAR DOIM BO‘LSIN TINCHLIK!

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Har doim bo‘lsin tinchlik!» mavzusidagi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shaklantirish;
- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;
- **u** tovushining qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda o‘zaro totuvlik, millatlararo bag‘rikenglik kabi fazilatlarni tarbiyalab borishda davom etish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, test savollari

Dars jahozi: «Har doim bo‘lsin tinchlik!» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *tinchlik, barqaror, dunyo, xotirjamlik, chunki, vayron, xotira, hech kim, bo‘lsin, ko‘paymasin, istamaydi, olib boradi*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism.

O‘quvchilarga sinfda qaysi millat vakillari bilim olayotganini aytish vazifasi beriladi. Bunda o‘quvchilar o‘z millatlarini aytadilar va bir o‘quvchi sinfda qaysi millat vakilidan nechta o‘quvchi borligini raqamlar bilan aytadi. Masalan: o‘zbeklar 4 ta, ruslar 8 ta, coreyslar 2 ta va hokazo.

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘quvchilar «Tozalik – oltin qoydalari» riga kiritgan qo‘srimcha takliflarini doskaga yozadilar.

III. Yangi mavzu bayoni.

Videolavha orqali O‘zbekistonning Respublikasidagi tinchlik, barqarorlik aks ettirilgan lavhalar namoyish etiladi. Namoyish jarayonida «Tinchlikni kuylaymiz» she‘ri o‘qib eshittiriladi.

Tinchlikni kuylaymiz

Tinchlik istar butun olam,
Tinch yashashni sevar odam,
Barcha ellar do'st-qadrdon,
Do'stlik uyi – O'zbekiston.
Biz tinchlikni kuylaymiz shod,
Tinchlik bilan ellar obod.
Doimo tinch bo'lsin jahon,
Tinchlik bo'lsa – yurt farovon.
Do'stlik, tinchlik – shiorimiz,
Tinchlik eli – diyorimiz.

Barot Isroil

Lug'at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

istamoq – хотеть

qadrdon – дорогой

farovon – благополучный

shod – весёлый

sevmoq – любить

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Ko'chiring, gaplarning mazmunini so'zlab bering.

2- mashq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Bu so'zlardagi **u** va **o'** tovushlarining talaffuzini farqlang.

Yodda tuting!

O'zbek tilida birinchi bo'g'inida **u** tovushi bo'lgan so'zlarning ikkinchi bo'g'inida ham **u** yoziladi.

Ba'zan ikkinchi bo'g'indagi **u** tovushi **i** tovushi kabi talaffuz qilinsa ham, doim **u** yoziladi.

Masalan : *udum, butun, kulgu, burun.*

Dam olish daqiqasi.

Multimedia orqali tinchlik haqida qo'shiq tinglanadi.

IV. O'r ganilgan mavzuni mustahkamlash. Test savollariga javob berish.

1. Berilgan gapni davom ettiring.
Daraxt ildizi bilan kuchli, odam
A. Aqli
B. Puli
C. Do'stlari
2. «Tinchlikni kuylaymiz» she'rining muallifi kim?
A. Barot Isroil
B. Yo'ldosh Sulaymon
C. Muzaffar Turobov
3. Farovon so'zining to'g'ri tarjimasini toping
A. Дорогой
B. Благополучный
C. Весёлый
4. O'zbek tilida birinchi bo'g'inda u tovushi berilsa, ikkinchi bo'g'inda qanday tovush yoziladi?
A. i
B. yu
C. u

V. Darsni yakunlash.

Tinchlik deganda nimani tushunasiz?
Qo'shnilaringiz qaysi millatga mansub?
Tinchlikni asrash uchun nimalar qilish kerak?
Tinchlik haqida maqol, she'r bilasizmi?
- u tovushini so'zlarda to'g'ri yozilishi haqida nima deya olasiz?
Misol keltiring.

VI. Uyga vazifa. Topshiriqlarni bajaring. «Tinchlikni kuylaymiz» she'ri asosida.

1. She'r nima haqida yozilgan?
2. «Tinchlik» deganda nimani tushunasiz?
3. Tinchlik mavzusida beshta bog'lanishli gap tuzing.

VII. O'quvchilarni rag'batlantirish.

32-dars. HAR DOIM BO'LSIN TINCHLIK!

Darsning maqsadi:

a) ta'limiylar: o'quvchining «Har doim bo'lsin tinchlik!» mavzusidagi tayanch so'zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o'rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakl-lantirish;
- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;
- u tovushining qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda o‘zaro totuvlik, millatlararo bag‘rikenglik kabi fazilatlarni tarbiyalab borishda davom etish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalilanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammo-larni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, jadval bilan ishlash.

Dars jahozi: «Har doim bo‘lsin tinchlik!» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *tinchlik, barqaror, dunyo, xotirjamlik, chunki, vayron, xotira, hech kim, bo‘lsin, ko‘paymasin, istamaydi, olib boradi*

I. Darsning borishi.

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

2. Tashkiliy qism. «Tezkor savollar» metodi. O‘qituvchi o‘quvchilarga savol beradi, o‘quvchilar bir so‘z bilan javob berish-lari kerak. Savollar:

1. Barcha millat vakillarining ahilligi nimaga sabab bo‘ladi?
(Tinchlikka)

2. Tinchlik so‘zining teskarisi (Urush)
3. Maqolning davomi: Qo‘sning tinch, sen ham (Tinch)
4. Tinchlik ramzi hisoblanuvchi qush bu (Kabutar)

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

«Tinchlikni kuylaymiz» she’ri yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarilishini tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni.

Video lavha orqali yurtimizdagi tinchlik, faravonli, o‘sish, rivoj-lanish, boshqa davlatdagi vayronakorliklar bilan solishtirgan holda olib boriladi.

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Har bir qatorda qavs ichida berilgan raqam o‘rniga alifbo tartibidagi harfni qo‘yib maqollarni o‘qing.
(20) rush — o (5) at.

Tin (28) lik ur (20) shni yen (6) ar.

Tinchli (10) — (5) aro (26) at.

(16) o‘sh (13) ing tinch — sen tinch.

1-topshiriq. Qavs ichida berilgan yaqin ma’noli so‘zlardan gap mazmuniga mosini topib, maqollarni yozing.

Dam olish daqiqasi.

Multimedia orqali «Vatanim» she’ri jo‘r bo‘lib o‘qiladi.

2-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. u va o‘ harflarining talaffuziga ahamiyat bering.

Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

kuylamoq — петь

nash'a — радость

yangramoq — звенеть

jo‘sib — с восторгом

baxtiyor — счастливый

quchoq — объятие

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash. «Har bir harfga bitta ustun so‘z» mashg‘uloti. O‘quvchilar imkon qadar «Har doim bo‘lsin tinchlik!» mavzusiga oid so‘zlardan yozishlari kerak. Shu o‘rinda darslikdan foydalanish taklif qilinadi. Agar mavzu bo‘yicha so‘zlar topish qiyin bo‘lsa, u holda bilgan so‘zlarini yozadilar.

T	I	N	Ch	L	I	K
tobora	Inoq	Non	Chin do’st	Loyiq	Ishonch	Kabutar
tantana	Iltimos					

V. Darsni yakunlash.

Dars sizga yoqdimi?

Tinchlik so‘ziga ta’rif bering.?

Siz yashaydigan joyda necha millat vakillari bor?

Bugun o‘rgangan yangi so‘zlardan bir nechta aytинг.

VI. Uyga vazifa. «Har doim bo‘lsin tinchlik!» mavzusida maqol, she’r yoki chaqiruv shiorlaridan namuna yozib kelish.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

33-dars. YO'L HARAKATI

Darsning maqsadi:

a) **ta'limiy:** o'quvchining «Yo'l harakati» mavzusidagi tayanch so'zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o'rgatish

- shu mavzuda og'zaki va yozma nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- dan kelishik qo'shimchasining qo'llanishi;

- sh; -ish qo'shimchalarining qo'llanishi.

b) **tarbiyaviy:** o'quvchilarda o'zgalar mehnatini qadrlash, mehnatsevarlikni, davlat mulkiga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishni, yo'l harakati qoidalariga rioya qilishni tarbiyalab borish.

d) **rivojlantiruvchi:** o'qib o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalilanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Ortiqchasini top» mashqi,

Dars jihizi: «Yo'l harakati» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida videolavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so'zlar: yo'l, harakat, yo'lka, yo'lovchi, piyodalar yo'lkasi, mashinalar yo'li, bekat, to'xtash joyi, yo'l belgilari, haydovchi, piyoda, yo'l qoidalari, kutib turish

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o'quvchilarni darsga hozirlash.
- o'quvchilar davomatini aniqlash.
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

Tashkiliy qism. «Ortiqchasini top» mashqi. O'quvchilarga avvaldan tayyorlab qo'yilgan quyidagi tarqatma material beriladi. Xuddi shu tarqatma materiali slaydda yoki doskada ham bo'lishi kerak. O'quvchilar yozib bo'lgach bir-birlari bilan bajargan ishlarini almashtilar va slayd yoki doskadagi to'g'ri javob bilan solishtiradilar.

№	4-<> » sinf o'quvchisi: Svetofor, yo'l belgisi Chorraha, yo'lak Bog', xiyobon Yo'l, harakat
---	---

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

«Har doim bo‘lsin tinchlik!» mavzusida maqol, she’r yoki chاقiruv shiorlaridan namuna yozib kelish.

III. Yangi mavzu bayoni. 1-topshiriq. Rasm asosida quyidagi savollarga javob berish.

Rasmda qanday transport vositalari tasvirlangan?

1. Avtobusni kim boshqaradi?
2. Avtobus kimlarni tashiydi?
3. Mashinalar yuradigan joy qanday ataladi?
4. Piyodalar yuradigan yo‘l qismi-chi?

Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

Yo‘l – дорога

deyiladi – называется

yo‘lka – тротуар, дорожка

xavfli – опасный

yurish kerak – надоходить

o‘tish – переходить

chorraha – перекрёсток

yengil mashina – легковая машина

2-topshiriq. Shu o‘rinda shahar ko‘chalaridagi videolavha namoyish etiladi. Namoyish jarayonida «Ko‘cha» nomli matn o‘qib eshittiriladi.

Bilib oling!

-dan qo‘srimchasi so‘zlarga qo‘shilganda predmetning kelib chiqish o‘rnini bildiradi. Bu so‘zlar *Kimdan*, *qayerdan*, *qachon* so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: Nigora chorrahadan o‘tdi. Salima mashinadan tushdi.

O‘zbek tilida **-sh**, **-ish** qo‘srimchali so‘zlar ko‘pincha **kerak**, **mumkin**, **mumkin emas** kabi so‘zlar bilan birga ishlataladi. Masalan: **yurish kerak** – надоходить, **o‘tish mumkin** – можно переходить kabi.

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Dam olish daqiqasi. Berilgan topishmoqlarni topish.

Pat-pat etib suzib ketar,

Izi tezda o‘chib ketar. (Motorli qayiq)

Daladadir yumishi,
Tavoni to‘la tishi. (Buldozer)
Qush emas qanoti bor,
Burgutdan zo‘r haybati bor.
Uchsa lochin yetolmas,
Tolmas zo‘r qanoti bor. (Samolyot)

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash. 3-topshiriq. Dialoglar-ni rollarga bo‘lib o‘qish va davom ettirish.

V. Darsni yakunlash.

Svetoforning ranglari nimalarni bildiradi?

Qanday yo‘l belgilarini bilasiz?

Piyodalar yo‘lning qayeridan o‘tishi kerak?

- dan qo‘s Shimchasi ishtirokidagi gapga misol keltiring.

- sh; -ish qo‘s Shimchasi ishtirokidagi gaplarga misol keltiring.

VI. Uyga vazifa. A4 qog‘oziga 2-3 ta yo‘l belgisini chizish va mumkun, mumkin emas kabi so‘zlar ishtirokida 2 ta gap tuzib keliш.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

34-dars. YO‘L HARAKATI

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy: o‘quvchining «Yo‘l harakati» mavzusidagi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakl-lantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- dan kelishik qo‘s Shimchasining qo‘llanishi;

- sh; -ish qo‘s Shimchalarining qo‘llanishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda o‘zgalar mehnatini qadrlash, mehnatsevarlikni, davlat mulkiga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lishni, yo‘l harakati qoidalariга rioya qilishni tarbiyalab borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi (Mustahkamlovchi)

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Ortiqchasini top» mashqi,

Dars jihozи: «Yo‘l harakati» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida videolavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *yo‘l, harakat, yo‘lka, yo‘lovchi, piyodalar yo‘lkasi, mashinalar yo‘li, bekat, to‘xtash joyi, yo‘l belgilari, haydovchi, piyoda, yo‘l qoidalari, kutib turish*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

Tashkiliy qism. «T chizma» metodi

O‘quvchilarga yo‘l harakati belgilari aralash holda beriladi. O‘quvchilar ushbu yo‘l belgilarini ikki ustunga ajratib yozishlari kerak.

Mumkin Mumkin emas

Izoh: Ushbu topshiriqni multimedia, slayd yoki doskada ham bajarlsa bo‘ladi. Doskada bajarish uchun o‘quvchilar soniga qarab, ularga tanish bo‘lgan yo‘l belgilarini bir xil hajmdagi nusxalarini tayyorlab qo‘yiladi. Ushbu belgilar magnit yoki skotch yordamida doskadagi T chizmasining ikki ustuniga ajratib chiqiladi. Undan keyin bajarilgan ish tahlil qilinadi.

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘quvchilarning A4 qog‘oziga chizib kelgan yo‘l belgilarining rasmlari doskaga ilinadi va jami nechta yo‘l belgisi borligi sanaladi. (Bunda bir xildagi yo‘l belgisi bir nechta chizilgan bo‘lsa ham, bitta sanaladi). Shuningdek **mumkin, mumkin emas** so‘zlari ishtirokidagi gaplar ham tekshiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni. 1-topshiriq. Quyidagi yo‘l belgilarining nomini aytинг. Yo‘l belgilari haqida suhbatlashing.

Quyidagi savollarga javob bering:

Yo‘l belgilari qayerga o‘rnatalidi?

«Bolalar» belgisi nimani bildiradi?

Piyodalar harakatini qaysi belgi taqiqlaydi?

Shu o‘rinda o‘quvchilarga hozir poytaxtimizda o‘rnatalayotgan o‘zi boshqariladigan svetofor, tezkor xizmat aloqa telefonlari haqidagi ma’lumot berish.

To‘g‘ri talaffuz qiling!

qarash	o‘tish	bilish
o‘qish	kutish	chopish
to‘xtash	yurish	aytish

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib, so‘ngra daftaringizga ko‘chiring.

Izoh: bu mashqni «Tezkor savollar» metodi orqali avval og‘zaki ravishda ham o‘tsa bo‘ladi.

Dam olish daqiqasi. Multimedia orqali amalgalash uchun mazmuniga qarab, tasvirlar o‘zgarib turadi. She‘r teksti ham aks ettiriladi.

Lug‘at

Ko‘cha - ko‘yda – на улице
nazoratchi – регулировщик
tayoq - палка
ishorasin - знак

Yoki

Qoidani bil, Omon,
Yurish joyi o‘ng tomon.
To‘xta, shoshilma, o‘rtoq,
Mashina bor yo‘lga boq.
Ko‘chada o‘ynash yomon,
Borgin maydoncha tomon.
Serqatnov yo‘l,
Hushyor bo‘l.

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash. «Saralash» metodi.
(BBB metodining tarqoq shakli)

Har bir o‘quvchiga 3 tadan kartochka tarqatiladi. (Kartochka o‘rniga bir varaq qog‘ozni uchga bo‘lib, har biriga quyidagich so‘zlar yoziladi). O‘quvchilar tezlikda ishni bajarishlari va har bir kartochkaga mos ravishdagi qutichalarga o‘zlari to‘ldirgan qog‘ozlarni tashlashlari kerak.

Masalan:

Bu kartochkalarning yoki qog‘ozlarning saralanishi o‘ituvchiga yordam berib, dars qay darajada o‘zlashtirilganligi haqida tezkor ma’lumot beradi. O‘qituvchi javoblarni umumlashtiradi.

V. Darsni yakunlash.

Yo‘l harakati qoidalari nima uchun kerak?

Siz yo‘lni qanday kesib o‘tasiz?

Agar svetofor yoki piyodalar yo‘lagi bo‘lmasa-chi?

-sh, -ish qo‘srimchasi ishtirot etgan so‘zlarga misol keltiring.

VI. Uyga vazifa. Maktabdan uyingizgacha bo‘lgan yo‘l davomida qanday yo‘l belgilari borligini va ular nimani bildirishi haqida 3-4 ta gap yozing.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

35-dars. YOZGI TA’TIL

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Yozgi ta’til» mavzusidagi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilishini to‘g‘ri ifoda etilishi.

b) tarbiyaviy: O‘quvchilarda o‘zgalar mehnatini qadrlash, jamoat joylarida axloq qoidalariga rioya qilishni tarbiyalab borish.

d) rivojlaniruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammo-larni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Tezkor savollar» metodi, «Zanjir» usuli, «Klaster» metodi.

Dars jihizi: «Yozgi ta’til» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida video lavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *yozgi, ta’til, hordiq, birga, oromgoh, zerikmaymiz, do’stlashamiz, ba’zi, chiniqamiz, taassurot, esdalik, qaytadilar*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;

- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

Tashkiliy qism. «Tezkor savollar» metodi. O‘quvchilarga savollar beriladi. Ular bir so‘z bilan savollarga javob berishlari kerak. Savollar:

1. Eng katta ta’til beriladigan fasl? (Yoz)
2. Dam olish uchun o‘quvchilarga mo‘ljallangan joy? (Oromgoh)
3. Boshqa joylarga sayr qilgani borish? (Sayohat)
4. Yoz fasliga kiradigan oylar nomini orqadan oldinga qarab ayting? (Avgust, iyul, iyun)

II. O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘quvchilardan maktabdan uygacha bo‘lgan masofada qanday yo‘l belgilari borligi va bu belgilar nimani bildirishi haqidagi tuzib kelgan gaplarni tekshirish, baholash.

III. Yangi mavzu bayoni. 1-mashq. Berilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llab, rasm mazmuniga mos gaplar tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *ta’til, reja, oromgoh, dam olish, sayr qilish, sayohatga chiqmoq, chiniqmoq, soya—salqin, cho‘milmoq, baliq tutmoq, qiziqarli o‘yinlar, do‘stlashmoq.*

1-topshiriq. Matnni o‘qib sarlavha qo‘ying.

Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

Yoz kunlari – летние дни

Issiq – жарко

Oromgohda – в лагере

Kimdir – кто-то

Cho‘miladilar – купаются

Go‘zal – прекрасный

Ta’til – каникулы

Har xil – разный

Fasl – время года

Chiniqadi – закаляется

Shu o‘rinda yoz haqidagi matn o‘qib eshittiriladi. Matn mazmunga mos videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar matnni diqqat bilan eshitadilar va shu matnga sarlavha qo‘yadilar.

Yozda kunlar issiq bo‘ladi. Bog‘da mevalar pishadi. Tabiat yanada go‘zal bo‘ladi. O‘quvchilarning ta’til kunlari boshlanadi.

Kimdir qishloqqa dam olishga, kimdir oromgohlarga jo‘nab ketadi. Oromgohda har xil o‘yinlar o‘ynaydilar, daryoda cho‘miladilar. Kitob o‘qiydilar, sayohatga chiqadilar.

Darslik bilan ishlash. 1-mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli so‘zlarni qo‘yib, daftaringizga yozing.

Muomala odobi! Istak bildirish va xayrlashishga oid so‘zlar.

Yaxshi dam oling Ko‘rushguncha

Ta’tilingiz maroqli o‘tsin Yaxshi qoling

Sog‘-salomat bo‘ling Xayr

Dam olish daqiqasi. Multimedia orqali amalga oshiriladi. Bunda yoz fasli haqida she‘r o‘qiladi. She‘rning mazmuniga qarab, tasvirlar o‘zgarib turadi. She‘r teksti ham aks ettiriladi.

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash. «Klaster» metodi. Ushbu topshiriqni individual, hamkorlikda va kichik guruhlarda bajarish mumkin. «Klaster» topshirig‘in bajarish uchun vaqt chegaralab beriladi. Jarayon oxirida javoblar umumlashtiriladi.

V. Darsni yakunlash.

Sizga yoz fasli yoqadimi? Nima uchun?

Bu yilgi yozgisi ta’tilda qayerga bormoqchisiz?

Ta’tilga oid qanday qoidalarni bilib oldingiz?

Do‘stlaringizga qanday istaklar bildirgan bo‘lardingiz?

VI. Uyga vazifa. O‘zingiz bilgan 2-3 ta oromgohlar nomini yozib keling. Yozgisi ta’til mavzusida 2 ta gap tuzing.

VII. O‘quvchilarni rag’batlantirish.

36-dars. YOZGI TA’TIL

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchining «Yozgi ta’til» mavzusidagi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish. Mustaqil matn tuzishni o‘rgatish.

- shu mavzuda og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;

- nutqiy va grammatik mavzuni mustahkamlash;

- ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilishini to‘g‘ri ifoda etilishi.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda o‘zgalar mehnatini qadrlash, jamoat joylarida axloq qoidalariiga rioya qilishni tarbiyalab borish.

d) rivojlantiruvchi: o‘qib o‘rganganlari va hayot tajribasidan foy-dalanilgan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, «Tezkor savollar» metodi, «Zanjir» usuli, «Klaster» metodi.

Dars jahozi: «Yozgi ta’til» mavzusiga oid rasmlar, ular haqida videolavhalar, AKT, taqdimot.

Tayanch so‘zlar: *yozgi, ta’til, hordiq, birga, oromgoh, zerikmay-miz, do’stlashamiz, ba’zi, chiniqamiz, taassurot, esdalik, qaytadilar*

I. Darsning borishi

Darsni tashkil etish:

- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- yangi mavzu bilan tanishtirish.

Tashkiliy qism. «Ziyarak o‘quvchi» mashqi. O‘qituvchi yoz fasliga tegishli bo‘lgan so‘zlarni aytadi. Orada ataylab, boshqa mavzuga oid so‘z aytildi. Shunda bu holatni sezgan o‘quvchi darrov qo‘lini ko‘taradi.

Masalan: issiq, oromgoh, sayohat, mактаб, то‘г, cho‘milish, dam olish, kurash va hokazo.

II.O‘tilgan mavzu ustida ishlash.

O‘quvchilardan o‘zlari bilgan oromgohlarning nomlari va yoz mavzusidagi tuzib kelgan gaplarni tekshirish, baholash.

III. Yangi mavzu bayoni. 1-topshiriq. Matnni o‘qib, uning maz-muni asosida savollar tuzish.

Lug’at ishi. Animatsion tasvir orqali amalga oshiriladi.

yaqinda – скоро, на днях

ta’til – каникулы

reja – план

ko‘pchilik – большинство

oromgoh – лагерь

Bilib oling!

Ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilishi, ya’ni III shaxs ko‘plik **-lar, -dilar, -sinlar** qo‘srimchalari bilan ifodalanadi.

Qarang: *Ular oromgohga ketdilar. Barcha bolalar musobaqada qatnashsinlar.*

Darslik bilan ishlash. 2-mashq. Gaplarni o‘qing. **-dilar, -sinlar** qo‘sishmchalarini olgan so‘zlarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Yozda do‘stilrim oromgohga bordilar.
 2. Boshqalar sizga yordam bersinlarmi?
 3. Bu yerda bolalar do‘stlashadilar, birga o‘ynaydilar
 4. Sinfdoshlарим kelsinlar, keyin mashinaga chiqamiz.
 5. Bolalar daryo bo‘yida uchrashadilar.
- 2-topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qish.

Suhbat

- Yozgi ta`til qachon boshlanadi?
- Yozgi ta`til 1-iyundan boshlanadi.
- Sen yozgi ta`tilni qayerda o‘tkazasan?
- Men yozgi ta`tilni bobomnikida o‘tkazaman.
- Bobong qayerda yashaydilar?
- Samarqandda yashaydilar.
- Samarqand qanday shahar?
- Samarqand – katta va chiroyli shahar. U yerda tarixiy joylar juda ko‘p.

Dam olish daqiqasi. Berilgan topishmoqlarni topish.

Qavat-qavatdir to‘ni,

Fe‘li yomondir uni.

Yechsang agar to‘nini,

Yig‘latadi, bil shuni. (Piyoz)

Erta bahor ekkanmiz,

O‘zi ko‘m-ko‘k ham silliq.

Archib, tuzlab yesangiz,

Juda muzdek ham suvlik. (Bodring)

Men ko‘rdim qiziq olma,

Oq emas, qizil olma.

Daraxtda pishmas, biroq

O‘zi olmadan yumshoq. (Pomidor)

IV. O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash.

Siz yozda qayerda dam olmoqchisiz?

Ta'tilda ko'pchilik qayerga boradi?

Sayohatga kimlar bilan borasiz?

Qaysi oromgoh sizga yoqadi?

Oromgohda nimalar qilmoqchisiz?

V. Darsni yakunlash.

Bugungi darsimiz yoqdimi?

Qanday kitoblarni o'qimoqchisiz?

Yozgi ta'til rejalaringiz?

VI. Uyga vazifa. Yozgi ta'til taassurotlarini keyingi o'quv yiliga-cha tayyorlab kelish.

VI. O'quvchilarni rag'batlantirish.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
O‘zbek tilini o‘qitishda ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	6
O‘zbek tilini o‘qitish uslubiyoti	13
Metodik qo‘llanmaning tuzilishi	14
O‘zbek tili fanidan ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan dars ishlanmalari	18
1-dars. Vatan	18
2-dars. Vatan	24
3-dars. Qadrdon maktabim	26
4-dars. Qadrdon maktabim	30
5-dars. Ko‘chamiz	33
6-dars. Ko‘chamiz	36
7-dars. Uyimiz	39
8-dars. Uyimiz	42
9-dars. Bog‘da	44
10-dars. Bog‘da	47
11-dars. Kuzgi ishlar	51
12-dars. Kuzgi ishlar	54
13-dars. Kitob	56
14-dars. Kitob	59
15-dars. Bozorda	61
16-dars. Bozorda	64
17-dars. Do‘konda	68
18-dars. Do‘konda	71
19-dars. Maktab oshxonasi	74
20-dars. Maktab oshxonasi	77
21-dars. Yil fasllari va ob-havo	80
22-dars. Yil fasllari va ob-havo	83
23-dars. Bahor keldi.....	87

24-dars. Bahor keldi.....	91
25-dars. Assalom, Navro‘z!	93
26-dars. Assalom, Navro‘z!	95
27-dars. Orasta bo‘ling	98
28-dars. Orasta bo‘ling	101
29-dars. Sport va salomatlik.....	104
30-dars. Sport va salomatlik.....	107
31-dars. Har doim bo‘lsin tinchlik!	110
32-dars. Har doim bo‘lsin tinchlik!	112
33-dars. Yo‘l harakati	115
34-dars. Yo‘l harakati	117
35-dars. Yozgi ta’til.....	120
36-dars. Yozgi ta’til.....	122

**Fotima Tolipova, Hilola Bakiyeva, Zarifa Jumanova,
Ma’pura Akramova, Dildora Nuriddinova**

O’ZBEK TILI

*Ta’lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy
o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf o‘qituvchilari uchun
metodik qo‘llanma*

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent–2017

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Asqar Yoqubjonov*
Sahifalovchi *Shaxboz Sirojiddinov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

Bosishga ruxsat etildi 10.10.2017. Bichimi $60 \times 90 \frac{1}{16}$, Kegli 11.
«Times Uz» garniturasi. Shartli b. t. 8,00. Nashr h. t. 9,00.
Adadi 2 092 nusxa. Buyurtma № 203-17.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodi yui bosmaxonasida chop etildi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.